O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI
# AXBOROTNOMASI
№4 (64) 2025
Et docere et discere servitute legis




# INSON QADRI, ERKINLIK, TENGLIK VA ADOLAT GAROVI

PREZIDENT TASHABBUSI, XALQ IRODASI – YANGILANGAN KONSTITUTSIYA ASOSI

ASOSIY MAQSAD SUDNI TOM MA'NODA "ADOLAT QO'RG'ONI"GA AYLANTIRISHDAN IBORAT

YANGI O'ZBEKISTON: KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARDAN – KONSTITUTSIYAVIY BARQARORLIK SARI

BOLALAR MANFAATLARINI HIMOYA QILISH KONSTITUTSIYADA MUSTAHKAMLANGAN MUHIM IJTIMOIY KAFOLATDIR

## 8-DEKABR – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGAN KUN

33 yil

## MAXSUS SON
СПЕЦВЫПУСК
SPECIAL ISSUE

www.proacademy.uz
ISSN 3093-8929

JURNAL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI RAYOSATINING 2013-YIL 30-DEKABRDAGI 201/3-SONLI QARORI BILAN ILMIY JURNALLAR RO'YXATIGA KIRITILGAN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI
# AXBOROTNOMASI

ILMIY-AMALIY, IJTIMOIY-HUQUQIY NASHR

**MUASSIS:**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

**Bosh muharrir:**
Yevgeniy Kolenko

**Mas'ul kotib:**
Davurxon Nodirov

**Tahrir kengashi:**
Nig'matilla Yo'ldoshev
Baxriddin Valiyev
Salom Samadov
Marat Bashimov
Mirakbar Rahmonqulov
Akmal Saidov
Raxim Xakimov
Patrik Olsson
Ichihashi Katsuya

**Tahrir hay'ati:**
Halim Boltayev
Baxtiyor Po'latov
Faxri Raximov
Muzaffarjon Mamasiddiqov
Uyg'un Nigmadjanov
Jahongir Maksumov
Vahobjon Karimov
Gulchehra Malikova
Baxodir Ismailov
Matluba Aminjonova
Avazbek Komilov
Adham Odinayev
Baxtiyor Kayumov
Muxtaram Radjapova
Xurshid Karimov
Nosirjon Askarov
Alisher Hidoyatullayev
Istam Astanov

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2010-yil 7-yanvarda 0580-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan va 2023-yil 25-martda qayta ro'yxatdan o'tgan.

2010-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining (2013-yil 30-dekabr 201/3-sonli) 2018-yil 30-maydagi 253/7-sonli qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini nashr qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. Jurnalda chop etilgan materiallardan foydalanganda "O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Axborotnomasi"dan olingani deb ko'rsatilishi shart. Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatlarini olmagan.

**Manzil:**
100190, Toshkent shahri,
Rixsiliy ko'chasi, 9-uy
**veb-sayt:** www.proacademy.uz
**e-mail:** publish@proacademy.uz

Sahifalovchi:
**J. Abduqahhorov**
Buyurtma №278-23. Adadi 734.
Jurnal **"Credo Print"** MCHJ kitob fabrikasida chop etildi.
**Bosmaxona manzili:**
Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi, 160-uy
Tel.: 71 234-44-01/05. www.credoprint.uz

## MUNDARIJA

| | | |
|---|---|---|
| **N. YO'LDOSHEV** | Inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi | **3** |
| **B. ISLOMOV** | Asosiy maqsad sudni tom ma'noda "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirishdan iborat | **7** |
| **A. SAIDOV** | Yangi O'zbekiston: konstitutsiyaviy islohotlardan – konstitutsiyaviy barqarorlik sari | **10** |
| **F. ESHMATOVA** | Konstitutsiyaviy normalarni ta'minlashda Ombudsman institutining roli | **15** |
| **A. BURXANOV** | Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi – aksilkorrupsiyaviy islohotlar kafolati | **18** |
| **S. RAHMONOVA** | Bolalar manfaatlarini himoya qilish Konstitutsiyada mustahkamlangan muhim ijtimoiy kafolatdir | **21** |
| **Y. KOLENKO** | O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy qonuniylikni mustahkamlash sohasida prokuratura faoliyatining huquqiy asoslarini rivojlantirish | **25** |
| **M. RUSTAMBAYEV** | Prezident tashabbusi, xalq irodasi – yangilangan Konstitutsiya asosi | **29** |
| **R. XATAMOV** | Yangi tahrirdagi Konstitutsiya taraqqiyotimizning mustahkam asosi | **36** |
| **B. XODJAYEV** | O'zbekistonda konstitutsiyaviy tafakkur evolyutsiyasi: diskursiv konstitutsionalizm va XXI asr sinovlari | **39** |
| **SH. ABDUQODIROV** | Qonuniylik va ijtimoiy adolatning konstitutsiyaviy kafolatlari | **43** |
| **M. MAMASIDDIQOV** | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan ta'lim olish huquqini Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimlarida yuridik ta'limni tashkil etishga tatbiq qilish masalalari | **46** |
| **Y. KANYAZOV** | Konstitutsiyada mustahkamlangan ta'lim va huquqiy yordam kafolatlari: yuridik kadrlar malakasini oshirish misolida | **54** |
| **SH. ZULFIQOROV** | Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan Qonunchilik palatasi deputatlarining parlament nazorati shakllaridan samarali foydalanishining ilmiy-amaliy jihatlari | **58** |
| **X. ODILQORIYEV** | O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi – zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyatni yuksaltirish asosi | **62** |
| **X. KARIMOV** | Konstitutsiya – inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida muhim huquqiy kafolat | **66** |
| **L. YUGAY** | Конституционные гарантии защиты персональных данных | **69** |
| **D. ABDULLAYEVA** | O'zbekiston Konstitutsiyasida mehnat huquqlarini kafolatlash va XMT standartlari: qiyosiy-huquqiy tahlil | **75** |
| **A. MAMATOV** | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — prokuratura organlarida huquqiy axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy mezoni | **79** |
| **T. KENJAYEV** | От теории к практике: Конституционно-правовая реализация права человека на приобретение гражданства | **84** |
| **N. ABDURAHIMOV** | Tadbirkorlik subyektlariga yetkazilgan soliqqa oid zararni qoplashning nazariy masalalari | **91** |

**Nig‘matilla YO‘LDOSHEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori**

# INSON QADRI, ERKINLIK, TENGLIK VA ADOLAT GAROVI

**O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.**

*O‘zbekiston Respublikasi*
*Konstitutsiyasining 143-moddasi*

***ANNOTATSIYA.*** *Maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish, odil sudlovni ta’minlash, murojaatlarni ko‘rib chiqish samaradorligini oshirish, raqamlashtirish va sun’iy intellektni joriy etish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, tergov nazorati, sud amaliyoti, korrupsiyaga qarshi kurashish, kadrlar malakasini oshirish va prokuratura organlarining jamiyatdagi huquqiy ishonchni mustahkamlashdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

***АННОТАЦИЯ.*** *Статья посвящена реформам прокуратуры Узбекистана в условиях обновлённой Конституции, включая защиту прав человека, обеспечение справедливого правосудия, цифровой надзор и внедрение искусственного интеллекта при рассмотрении обращений и расследованиях. Рассматриваются меры по борьбе с коррупцией, повышению квалификации кадров, межведомственной интеграции и усилению доверия общества к верховенству закона.*

***ABSTRACT.*** *The article presents institutional reforms of Uzbekistan’s Prosecutor’s Office under the renewed Constitution, emphasizing human rights protection, fair justice, digital oversight, and the introduction of artificial intelligence to improve the handling of appeals and investigative processes. It also highlights anti-corruption measures, professional capacity building, court cooperation, and the prosecution system’s role in strengthening the rule of law and public confidence.*

***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, prokuratura, inson huquqlari, odil sudlov, raqamlashtirish, E-tergov, sun’iy intellekt, jinoyat-profilaktika, korrupsiyaga qarshi kurashish, majburiy ijro, iqtisodiy jinoyatlar, sud nazorati, malaka oshirish, normativ-huquqiy islohotlar, ijtimoiy himoya.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, прокуратура, права человека, справедливое правосудие, цифровизация, электронное расследование, искусственный интеллект, предупреждение преступности, борьба с коррупцией, исполнительное производство, экономические преступления, судебный контроль, повышение квалификации, правовые реформы, социальная защита.*

***Key words:*** *Constitution, prosecution, human rights, fair justice, digitalization, E-investigation, artificial intelligence, crime prevention, anti-corruption, enforcement, economic crimes, judicial oversight, capacity building, legal reforms, social protection.*

*Bu yil mustaqil davlatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 33 yilligini keng nishonladik. Asosiy qonun milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, erishilgan barcha yutuq va marralar, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlarning mustahkam poydevori hisoblanadi.*

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi mamlakatimizda huquqiy davlat qurish, inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida tan olish hamda jamiyatda qonun ustuvorligini amalda qaror toptirish yo‘lida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Hech shubhasiz, davlatimiz rahbari asos solgan taraqqiyotimizning yangi bosqichida jamiyatda adolatni qaror toptirish, qonuniylikni mustahkamlash hamda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha keng qamrovli va misli ko‘rilmagan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bosh qomusimizga muvofiq, davlat organlari faoliyati barcha jabhada inson manfaatlarini ta’minlash, adolat hamda ochiqlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Shu jumladan, prokuratura organlari Konstitutsiyada belgilangan ushbu yuksak maqsadlarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishi ustidan umumiy nazoratni olib borish, fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish prokuraturaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

## Tashabbuslar samaralari raqamlarda namoyon

Taraqqiyotimizning yangi bosqichida Prezidentimizning tizim faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tashabbuslari samarasi o‘laroq, har jihatdan o‘zgarib borayotgan prokuratura organlari bu kabi mas’uliyatli vazifalarni samarali amalga oshirish uchun barcha imkoniyatga va zarur salohiyatga ega.

Faoliyatimizning ayrim yo'nalishlarida erishilayotgan natijalarga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, prokuratura organlari tomonidan hududlarda aholi turmush tarzini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, voyaga yetmaganlarning ta'lim-tarbiyasi yo'nalishlarida olib borilayotgan islohotlar asosida muayyan ishlar bajarilayotir.

Yurtboshimizning tegishli farmoniga asosan kambag'al oilalarni reyestrga kiritish va chiqarishning haqqoniyligi muntazam o'rganib borilmoqda hamda o'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida ijtimoiy yordam mablag'larini olib kelayotgan 86 867 ta oila reyestrdan chiqarilishi natijasida budjetdan 30 mlrd. so'm iqtisod qilinishiga erishilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha 28 720 nafar tadbirkorga amaliy yordam ko'rsatildi, jumladan, 4 762 nafar tadbirkorga 924,4 mlrd. so'm kredit, 1 143 nafariga 508 gektar yer maydoni va 136 nafariga bino ajratilishida, 655 nafariga ruxsatnoma va litsenziya berilishida, 10 588 nafariga muhandislik tizimlariga ulanishida, 11 436 nafariga boshqa masalalarda ko'maklashildi. Natijada 6 160 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, 9 310 tasining faoliyati tiklandi, 23 201 ta ish o'rni yaratilishiga erishildi.

Voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularni qonunga itoatkorlik hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida har bir tuman-shahardan bittadan maktab prokurorlar tomonidan otaliqqa olinib, ularga manzilli ko'maklashish choralari ko'rib borilmoqda.

Bu borada har bir maktab bo'yicha alohida tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturlari ijrosi ta'minlanib, **"Prokuror — maktab — mahalla — ota-ona — o'quvchi"** tamoyili asosida jismonan va ma'nan yetuk yosh avlodni tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlari himoyasiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, Huquqni muhofaza qilish akademiyasining professor-o'qituvchilari tomonidan tuman-shahar prokurorlariga biriktirilgan maktablarda o'qituvchilar uchun zamonaviy pedagogika va kasbga yo'naltirish borasida mahorat darslari o'tkazilib, soddalashtirilgan **"200+ taqiqlar"** nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi.

### Prokuratura zimmasidagi mas'uliyat

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida tub yangiliklarni mustahkamlab, ularning buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, prokuratura zimmasiga mas'uliyat yuklaydi. Bu esa har bir murojaatni o'z vaqtida, xolis va qonuniy ko'rib chiqishni, fuqarolarning buzilgan huquqlarini samarali tiklashni taqozo etadi.

Prokuraturaning butun tizimi inson huquqlarini himoya qilishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida anglab ish yuritishi shart. Har bir murojaat — insonning taqdiri, har bir qaror qonun ustuvorligiga berilgan bahodir. Xususan, prokuratura organlari tomonidan murojaatlar bilan ishlash hamda jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari qabulini tashkil etish bilan bog'liq faoliyat samaradorligini ko'tarish borasida zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, jismoniy hamda yuridik shaxslarning vakillari qabulini amalga oshirish, murojaatlarni ko'rib chiqish va hal etishda qonuniylik, xolislik tamoyillariga qat'iy amal qilinishi ustidan nazorat o'rnatilgan.

Tahlillarga ko'ra, 2025-yilning o'tgan davrida prokuratura organlariga kelib tushgan murojaatlar soni 332 300 (*2024-yilda 380 978*) tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 48 678 ta yoki 12,7 foizga kamaygan. Ko'rilgan choralar natijasida 48 512 (*49 177*) nafar shaxsning buzilgan huquqlari tiklangan. Shu bilan birga, ushbu davrda prokuratura organlari xodimlari tomonidan jami 250 560 nafar, shu jumladan, sayyor va ommaviy qabullarda 68 597 nafar jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari shaxsan qabul qilinib, muammolarini hal etish choralari ko'rilgan.

Prokuratura organlari tomonidan tergov va surishtiruv jarayonlarida shaxs daxlsizligi, aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqining kafolatlanishi prinsiplariga qat'iy rioya etishni ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Noqonuniy bosim, majburlash yoki dalillarni soxtalashtirish holatlariga nisbatan mutlaq murosasizlik siyosati olib borilmoqda. Har bir ish bo'yicha adolatli, dalillarga asoslangan va qonun talablariga to'la mos qaror qabul qilinishi prokuratura faoliyatining muhim mezonidir.

Ta'kidlash joizki, faoliyatda asosiy e'tibor tergovni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, sohaga raqamli kriminalistikani joriy etish, nazoratni zamonaviy uslubda tashkil qilish, tergov jarayonida fuqarolarning huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, tergovchilarning malakasini oshirishga qaratildi.

Tergov jarayonidagi inson omili bilan bog'liq qonun buzilishi, nuqson va kamchiliklarni keskin kamaytirish, ortiqcha qog'ozbozlik hamda byurokratiya va fuqarolar ovoragarchiliklarining oldini olish maqsadida sohani raqamlashtirish tarmoq oldida turgan dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Shunga asosan sudga qadar ish yuritishdagi dastlabki va eng muhim bosqich hisoblangan hodisa joyini ko'zdan kechirish tergov harakatini

raqamlashtirish bo'yicha yaratilgan **"E – tergov"** dasturiy ta'minotini takomillashtirish chorasi ko'rildi. Xususan, bu borada tuzilgan ishchi guruh tomonidan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" asosida ishlarni qisqa muddatda tamomlash choralari ko'rilib, Bosh prokurorga o'tkazilgan taqdimot natijasiga ko'ra, dasturiy ta'minot planshetlarga o'rnatilgan holda barcha hududlarga yuborildi va sinov jarayonlari o'tkazildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat organlari ochiqligi va shaffofligini kuchaytirishni nazarda tutgan. Shu asosda prokuratura tizimida raqamlashtirish jarayonlari izchil davom ettirilmoqda.

### "Raqamli prokuratura — 2030" strategiyasi — amalda

Bugun raqamlashtirish jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan biriga aylandi. **"Raqamli O'zbekiston — 2030"** strategiyasi kabi dasturiy hujjatlar asosida ustuvor vazifalar ham belgilab berildi.

O'tgan yillarda prokuratura organlarida ham mazkur vazifalar ijrosi bo'yicha muayyan ishlar qilindi. Bundan 6 yil oldin birorta axborot tizimi bo'lmagan idoramizda bugunga kelib, o'z mutaxassislarimiz tomonidan yaratilgan 45 ta dastur ishga tushirildi.

Davlat organlarining 200 ta axborot tizimi bilan integratsiyalandi. Tizimni raqamlashtirish natijasida so'nggi besh yilda 100 mlrd. so'm iqtisod qilindi.

Prezidentimizning 2025-yil 3-noyabrdagi farmoni bilan prokuratura organlari faoliyatini to'liq raqamlashtirishga qaratilgan **"Raqamli prokuratura — 2030"** strategiyasi va **"Yo'l xaritasi"** tasdiqlandi.

Farmonda mamlakatda qonunlar ijrosi ustidan samarali nazoratni ta'minlash orqali qonun ustuvorligiga erishishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Jumladan, murojaatlar bilan ishlashda inson omilini istisno etadigan sun'iy intellekt joriy qilinadi. Natijada murojaatlarning sanoqli daqiqalarda ijrochiga yetkazilishiga hamda ularda ko'tarilgan masalalarning qisqa muddatda hal etilishiga erishiladi.

Bosh prokuraturaning axborot tizimiga vazirlik va idoralarning tizimlarini **to'liq integratsiya qilish** ham ko'zda tutilmoqda. Tergov jarayonlariga joriy etiladigan axborot tizimi surishtiruv va tergovning barcha bosqichi ustidan real vaqt rejimida kundalik nazorat o'rnatish imkonini beradi.

Jinoyat sudlarida bo'lgani kabi, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sudlar bilan ham prokuraturaning axborot tizimi integratsiya qilinadi. Bu esa prokurorlarning sud jarayonlarida real va samarali ishtirokini, sud amaliyotidan to'liq xabardorligini masofaviy usulda ta'minlaydi, sud hujjatlariga nisbatan tezkor munosabat bildirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sud-huquq tizimini, jumladan, prokuratura organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlovni samarali ta'minlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilib, prokuraturaning huquqni himoya qilishga doir vakolatlari kuchaytirilishiga ustuvor ahamiyat berildi. Endilikda **prokuratura organlari inson huquqlari, davlat va jamiyat manfaatlari himoyachisi sifatida yangicha huquqiy maqomda faoliyat yuritmoqda.**

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda birinchi instansiyada jami 416 699 ta ish ko'rilib, shundan prokuror ishtiroki majburiy bo'lgan 33 527 tasida ularning qatnashishi ta'minlangan. Bu davrda prokurorlar tomonidan sudlarga jami 103,2 mlrd. so'mlik 1 883 ta da'vo arizasi kiritilib, shundan 96 mlrd. so'mlik 102 030 tasi qanoatlantirilgan. Bu da'volar bo'yicha undirish belgilangan pul mablag'ining 12,1 mlrd. so'mi amalda undirilgan.

Yoki bo'lmasa, joriy yilning 10 oyida respublika iqtisodiy sudlari tomonidan jami 562 319 ta ish ko'rilgan. Ularning 13 896 tasida prokuror ishtirok etib, sudlarga nizolarni qonuniy hal etish yuzasidan asoslantirilgan fikrlar berilgan. Prokurorlar tomonidan sudlarga jami 1 trln. 47 mlrd. so'mlik 5 284 ta da'vo arizasi kiritilgan. Ushbu da'vo arizalarining sudlarda ko'rilishida 573,2 mlrd. so'mlik 4 997 tasini yoki 93,7 foizi qanoatlantirilishi ta'minlangan.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan prokuratura organlarida Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashish bo'yicha ixtisoslashgan prokurorlar korpusi tashkil etilishi, sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to'laqonli ro'yobga chiqarishga hamda odil sudlov sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, o'tgan davrda respublika sudlari tomonidan birinchi instansiyada 64 957 nafar shaxsga nisbatan 51 603 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning barchasida prokuror ishtiroki to'liq ta'minlangan.

### Norma ijodkorligi va malakali kadrlar salohiyati

So'nggi yetti yil davomida Bosh prokuraturaning norma ijodkorligi faoliyatini ro'yobga chiqarish maqsadida 413 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqildi. Xususan, 156 ta qonun, Prezidentning 83 ta farmoni, qarori va farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 129 ta qarori va farmoyishi, 45 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasi tayyorlandi. Mazkur hujjatlarning 206 tasi qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi.

Davlatimiz rahbari boshchiligida joriy yilning 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf etish borasida belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan joriy yilning 29-iyul kuni Bosh prokuror tomonidan davlatimiz rahbari huzurida **maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish** va uning oldini olish chora-tadbirlariga bag'ishlangan taqdimot o'tkazilib, tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

Barcha darajadagi prokuratura rahbarlari oldiga yangi tahrirdagi Konstitutsiya talablarini amaliyotga to'liq joriy etish bo'yicha aniq vazifalar qo'yilgan. Xodimlarning yuridik malakasini muntazam oshirish, xizmat intizomi va shaxsiy javobgarlikni kuchaytirish prokuratura organlarida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xodimlarning bilim va malakasini yanada chuqurlashtirish ishlari doimiy diqqat markazimizda bo'lmoqda.

Jumladan, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan joriy yilning o'tgan davrida 43 ta mavzuda 57 ta malaka oshirish kursi (*shundan 30 tasi rejadan tashqari*) o'tkazilib, ularda jami 30 320 nafar xodim qatnashdi. Akademiyaning o'quv-ta'lim portaliga joylashtirilgan 7 ta majburiy va 52 ta elektiv kurslarda jami 1 328 nafar xodimning ishtiroki ta'minlandi.

Shuningdek, masofaviy kurslarni sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlab chiqish amaliyotga joriy etildi va hozirga qadar ushbu kurslarni 300 nafardan ortiq tinglovchi muvaffaqiyatli yakunladi. Mazkur kurslarda 25 ta videodars va 16 ta videoli kazus bevosita sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlab chiqilib, dars mashg'ulotlarida foydalanilmoqda.

Prokuratura organlari va muassasalariga xizmatga qabul qilish, xodimlarning ma'naviy-intellektual salohiyatini, shaxsiy fazilatlarini va kasbiy mahoratini baholab borish, shuningdek, kadrlarga oid boshqa masalalarni kollegial tartibda hal etish maqsadida **Malaka va Odob-axloq** kengashlari tashkil etildi.

Xodimlarda o'z kasbidan iftixor tuyg'usini shakllantirish maqsadida prokuratura organlarida o'z xizmati bilan alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlar uchun kasbiy tanlovlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

### "Tarixiy xotira beqiyos"

O'zbekiston prokuraturasi boy meros va tarixga ega. Albatta, bunday bebaho merosni kelgusi avlodlarga yetkazish muqaddas burchimizdir. Shu maqsadda qariyb ikki yillik izlanishlar natijasida o'tgan yili **Bosh prokuratura muzeyi faoliyatini to'la yo'lga qo'ydik**. Muzeyda prokuratura tarixida ilk bor 15 mingdan ortiq adabiyotga ega kutubxona faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston prokuratura organlari faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jamoatchilik markazi tomonidan faxriylarga e'tibor ko'rsatish, moddiy hamda ijtimoiy ko'maklashish, ularning jamiyat hayotida faol qatnashishini ta'minlash, yuzaga kelgan hayotiy muammolarini hal etishda yordam berish kabi vazifalar ijrosi tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, qatag'on qurboni bo'lgan prokuratura xodimlarining pok nomini tiklash va abadiylashtirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Bosh prokuror farmoyishi asosida 1917 — 1940-yillarda qatag'on qilingan sohaning 160 nafar xodimi aniqlanib, ularning 80 nafari **"Tarixiy xotira beqiyos"** nomli maxsus kitobning 1 va 2-jildlariga kiritilib, chop etildi. Ushbu ishlar davom ettirilib, hozirda o'sha yillarda qatag'on qilingan yana 40 nafar xodimni qamrab olgan "Tarixiy xotira beqiyos" nomli maxsus kitobning 3-jildini nashrga tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Aytish joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiya prokuratura faoliyati uchun mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Uning har bir normasi hayotga to'liq tatbiq etilgan taqdirdagina fuqarolarning adolatga ishonchi ortadi, jamiyatda qonunga hurmat yuksaladi va davlatning huquqiy nufuzi yanada mustahkamlanadi.

Prokuratura organlari zimmasiga yuklangan ushbu mas'uliyatni to'la anglagan holda, biz fuqarolar huquq hamda erkinliklarini ishonchli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lidagi faoliyatimizni izchil davom ettiramiz.

#

**Baxtiyor ISLOMOV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi**

# ASOSIY MAQSAD SUDNI TOM MA’NODA “ADOLAT QO‘RG‘ONI”GA AYLANTIRISHDAN IBORAT

**O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi.**

*O‘zbekiston Respublikasi*
*Konstitutsiyasining 11-moddasi*

***ANNOTATSIYA.*** *Maqolada O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahriri sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlashdagi institutsional normalari tahlil qilinadi. Bunda sud vakolatlari, sud qarorlarining majburiyligi, sudyaning xavfsizligi va inson huquqlarini himoya qilishga oid konstitutsiyaviy mexanizmlar yoritiladi. Sud ishlari bo‘yicha Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi, sudga murojaat qilish kafolatlari va “Elektron odil sudlov” tizimi odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirgani ta’kidlanadi.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В статье раскрываются конституционные основы независимости судебной власти Узбекистана, закреплённые в новой редакции Конституции. Отмечаются гарантии обязательности судебных решений, полномочий судей, их безопасности и прямого применения конституционных норм при рассмотрении дел. Подчёркивается роль Конституции в обеспечении доступа к правосудию, судебной защиты прав граждан и реализации цифровых механизмов «электронного правосудия» как инструмента открытости и равенства.*

***ABSTRACT.*** *The paper examines the constitutional foundations of judicial independence in Uzbekistan established by the updated Constitution. It highlights the mandatory nature of judicial decisions, judicial safeguards, direct constitutional application in court proceedings and guaranteed access to judicial protection. The Constitution also underpins the development of electronic justice mechanisms, ensuring transparency, equal access and effective enforcement of human rights.*

***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, sud hokimiyati, odil sudlov, sud mustaqilligi, sud qarorlarining majburiyligi, inson huquqlari, konstitutsiyaviy kafolatlar, bevosita qo‘llash, sudga murojaat huquqi, elektron odil sudlov.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, судебная власть, справедливое правосудие, независимость суда, обязательность судебных решений, права человека, конституционные гарантии, прямое применение норм, право на обращение в суд, электронное правосудие.*

***Key words:*** *Constitution, judiciary, judicial independence, fair justice, mandatory judicial decisions, human rights, constitutional guarantees, direct constitutional application, right to judicial review, electronic justice.*

*“Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!”.*

*Bu yil Bosh qomusimiz qabul qilinganining 33 yillik bayrami ana shunday bosh g‘oya negizida o‘tkazilgani bejiz emas. Yangi O‘zbekiston strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida aks ettirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarimiz, jamiyatimiz hayotida naqadar yuksak ahamiyatga ega ekanini amalda namoyon etmoqda.*

Asosiy qonunimizda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat hamda birdamlik kabi ezgu g‘oyalar yurtimiz hayotining barcha sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardagi ifodasini amaliy misollar – shiddatli yangilanishlar samaralari talqinida yaqqol ko‘rsatib bermoqda.

O‘zgarishlarning muhim yo‘nalishi hisoblangan sud-huquq tizimidagi strategik islohotlar samarasini ta’minlashda, albatta, Konstitutsiyamizning norma va prinsiplari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bosh qomusimizga sud hokimiyatiga bag‘ishlangan alohida XXIII bob kiritilgan bo‘lib, uning 130-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadigan sud hokimiyatining Konstitutsiya darajasida institutsional mexanizmlari belgilab berildi.

Konstitutsiyaning 11-moddasidagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi” degan konstitutsiyaviy prinsip amalda bo‘lishini ta’minlaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning sud hokimiyatiga bag‘ishlangan bobidagi 11 ta moddada odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, sud hokimiyatining huquq va majburiyatlari, sud qarorlari barcha uchun majburiyligi, sudya va oila a’zola-

rining xavfsizligini ta'minlash, sudyaning muayyan ishni ko'rishdagi vakolatlari hamda sudlar faoliyatini moliyalashtirish kabi 30 dan ziyod muhim konstitutsiyaviy normalar mustahkamlandi. Bularning barchasi sudyalar mustaqilligi, odil sudlov tizimini demokratlashtirishning konstitutsiyaviy asoslari qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim shartlari sifatida sezilarli darajada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

### Tizim mustaqil bo'lmasa, jamiyatda rivojlanish bo'lmaydi

Ta'kidlash joizki, sud hokimiyatining tom ma'nodagi mustaqilligini ta'minlashga, tizim xodimlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilashga yuksak darajada e'tibor qaratib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari **"Sud tizimi mustaqil bo'lmas ekan, jamiyatimizda rivojlanish bo'lmaydi"** degan fikrni hamisha takrorlashi bejiz emas. Chunki sud idorasiga ishi tushgan har bir shaxs ushbu dargohda qonun va adolat ustuvor ekaniga ishonch hosil qilishi lozim.

Yangi O'zbekistonda har qanday bahsli masalaga adolatli yechim faqat odil sud tomonidan topilishi kerak. Bu borada sudlar tomonidan konstitutsiyaviy normalar to'g'ridan-to'g'ri va bir xilda qo'llanilishi orqali inson huquqlariga oid kafolatlarni to'laqonli ta'minlash maqsadida Oliy sud Plenumining "Odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu o'rinda Konstitutsiya normalari qo'llanib ko'rilgan sud ishlari statistikasiga e'tibor qarating: 2023-yil 1-maydan 2025-yilning o'tgan 10 oyigacha bo'lgan davrda sudlar tomonidan jami 426 mingdan ortiq ish va materiallarda yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalari to'g'ridan-to'g'ri qo'llanildi. Xususan, shu qisqa muddat ichida 67 157 ta jinoyat ishi hamda materialida, ma'muriy huquqbuzarlikka oid 149 665 ta ish va materialda, 75 549 ta fuqarolik ishida, 112 149 ta iqtisodiy ishda, shuningdek, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan 21 535 ta ma'muriy ishda sudlar tomonidan bevosita yangilangan konstitutsiyaviy normalarga tayanib ish ko'rildi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasiga ko'ra, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Bugungi kunda ushbu qoidalarni hayotga tatbiq etish barcha bosqichdagi sudlarning bosh vazifasiga aylangan.

### "Yangi O'zbekiston – yangi sud" tamoyili

O'tgan qisqa davrda sudlarning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, sud-huquq tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2022 – 2025-yillarda Oliy sud tomonidan 60 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat loyihalari ishlab chiqilib, sud tizimiga oid 30 dan ziyod qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular asosida sud tizimi tubdan takomillashtirildi.

Bu hujjatlar bilan **"Inson qadri uchun"** g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatining samarali himoyasiga yo'naltirish, adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishilmoqda. Shu orqali xalqimiz, jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, **"Yangi O'zbekistonda – yangi sud"** tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sohaga ilg'or xalqaro mezonlarni joriy etish choralari ko'rilmoqda.

Davlatimiz rahbarining tegishli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining ham "Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish" yo'nalishida sud tizimi uchun 18 ta aniq vazifa belgilab berildi.

Sud islohoti doirasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan yana bir muhim hujjat – "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni bilan 2023 – 2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqlandi.

Uning doirasida tizim faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya etishga yo'naltirish bo'lib, unda adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalq, jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalar siymosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish kabi 40 ta aniq vazifa belgilab berildi.

Sudlarning moliyaviy mustaqilligi kuchaytirildi. Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipiga rioya qilish, sudlarni moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash masalalarini mustaqil hal etish

maqsadida Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti faoliyati yanada takomillashtirildi.

Qolaversa, sud ishlarini yuritishda yangi institutlar kiritildi, mavjudlari takomillashtirildi. Jinoyat protsessida yarashuv instituti kengaytirildi, jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida alohida sudyalar – tergov sudyalari lavozimlari kiritildi, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda sudgacha majlis, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish, mediatsiya institutlari joriy qilindi.

Xususan, jinoyat ishi yurituvida insonparvarlik tamoyillari asosida "Xabeas korpus" institutini yanada keng tatbiq etish maqsadida 2025-yil 1-yanvardan tergov sudyalari instituti milliy amaliyotga joriy etilishi bilan inson huquqlarining sud orqali himoya qilinishi kafolatlandi.

## "Elektron odil sudlov" tizimi va raqamlashtirish

Davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil 21-avgustda imzolangan "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon sud-huquq islohotlarining izchil davomi sifatida sudlar uchun tarixiy hujjat bo'ldi. Farmon bilan sud-huquq tizimining samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengroq joriy etish nazarda tutildi.

Ushbu texnologiyalar byurokratik to'siqlarni kamaytirish, ayniqsa, sun'iy intellektga asoslangan "aqlli" texnotizimlar orqali arizalarni elektron tarzda qabul qilish, hujjatlarni avtomatlashtirilgan tarzda ko'rib chiqish va sud qarorlarining shaffofligini ta'minlaydi.

Sud ishlarini yuritishda qog'oz shaklidan voz kechish maqsadida **"Raqamli sud"** konsepsiyasi asosida ishlarning yuritilishini to'liq elektron shaklga o'tkazish, joriy yil yakuniga qadar tajriba tariqasida Toshkent shahrida barcha raqamli imkoniyatni o'zida mujassam etgan zamonaviy sud zallari tashkil qilinadi. Tajriba natijalari asosida konsepsiya 2026 – 2027-yillarda bosqichma-bosqich respublikaning barcha sudlarida tatbiq etiladi.

Shuningdek, 2023 – 2026-yillarda sud tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha Harakatlar dasturi bilan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, bugungi kunda sudlarni raqamlashtirish ishlari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilmoqda. Sudlar faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilmoqda.

Sudlarda ishlarni ko'rib chiqishda adolatni, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun **"Elektron odil sudlov"** tizimi tatbiq qilindi. Endilikda sudyalar o'rtasida ishlarni inson omilisiz, avtomatik ravishda taqsimlash, sudlarga elektron murojaat va sud hujjatlarini taraflarga elektron shaklda yuborish, sud majlislarini audioyozuvda qayd etib borish, sud qarorlarini internet tarmog'ida e'lon qilish, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish kabi zamonaviy yondashuvlar odil sudlov samaradorligini oshirishga zamin yaratmoqda.

Hozirda sudlarning axborot tizimi bilan vazirlik va idoralarning axborot tizimlari o'rtasida ma'lumotlarni elektron shaklda olish tartibi amaliyotga joriy etilib, ular bilan ma'lumotlar almashinuvi to'liq yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda Oliy sudning interfaol xizmatlar portali ishga tushirilib, u orqali fuqarolarga 14 turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatilmoqda.

## Singdirilgan mezon samarasi

Umuman, yangilangan Asosiy qonunimizga singdirilgan "inson manfaati har narsadan ustun" mezoni bugun amalda o'z ifodasini topmoqda.

Davlatimiz rahbari sud sohasi vakillari uchun eng muhim vazifalar sifatida belgilab bergan, xalqimiz kutayotgan adolatli qarorlar qabul qilishga har tomonlama qodir, irodasi mustahkam, yuksak kasb va ma'naviy fazilatlarga ega sud xodimlari tarkibini shakllantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, sud qarorlari ijrosini so'zsiz ta'minlash, odil sudlovga erishish bo'yicha muntazam ish olib borish mutlaqo yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida davr talabidir.

#

**Akmal SAIDOV,**
**Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, akademik,**
**BMTning Inson huquqlari qo‘mitasi a’zosi**

# YANGI O‘ZBEKISTON: KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARDAN – KONSTITUTSIYAVIY BARQARORLIK SARI

***ANNOTATSIYA.*** *Maqolada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlarning milliy konstitutsionalizmni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish, davlat suvereniteti va konstitutsiyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar xalq ishtiroki, milliy institutlarning konstitutsiyaviy maqomi, huquqlarning sud orqali himoyasi, konstitutsiyaviy sudlov vakolatlarining kengayishi va konstitutsiyaviy madaniyatni yuksaltirish bilan izohlanadi. Konstitutsiya jamiyatdagi yangilanishlarning huquqiy ifodasi sifatida davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlovchi asosiy siyosiy-huquqiy hujjat ekanligi ta’kidlanadi.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В статье анализируются конституционные реформы в Узбекистане и их значение для укрепления современного конституционализма, защиты прав человека, национального суверенитета и политико-правовой стабильности. Особое внимание уделено народному участию в разработке поправок, конституционному статусу национальных правозащитных институтов, расширению судебной защиты прав и компетенции Конституционного суда. Рассматривается формирование конституционной культуры и конституционного патриотизма как фундамент устойчивого развития, а Конституция определена как ключевой политико-правовой документ, отражающий динамику общественных преобразований.*

***ABSTRACT.*** *The article examines Uzbekistan’s constitutional reforms as a fundamental driver of modern constitutionalism, human rights protection, national sovereignty and long-term legal stability. Key aspects include public participation in the amendment process, the constitutional status of national human rights institutions, expanded judicial protection and the growing role of the Constitutional Court. The paper highlights the development of constitutional culture and constitutional patriotism, emphasizing the Constitution as a living political-legal instrument ensuring societal transformation and sustainable statehood.*

***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, konstitutsiyaviy islohotlar, konstitutsiyaviy barqarorlik, inson huquqlari, xalq ishtiroki, milliy institutlar, Konstitutsiyaviy sud, sud vakolatlari, konstitutsiyaviy madaniyat, konstitutsiyaviy vatanparvarlik.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, конституционная реформа, конституционная стабильность, права человека, народное участие, национальные институты, конституционный суд, судебные полномочия, конституционная культура, конституционный патриотизм.*

***Key words:*** *Constitution, constitutional reform, constitutional stability, human rights, public participation, national institutions, constitutional court, judicial competence, constitutional culture, constitutional patriotism.*

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar mamlakatning huquqiy va siyosiy taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichni belgilab bermoqda. Jahonda yuz berayotgan geosiyosiy beqarorlik, global inqirozlar, inson huquqlari sohasidagi yangi chaqiriqlar davlatning Asosiy qonunini yanada takomillashtirish, uni zamon talablariga moslashtirish zaruriyatini kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda o‘tkazilgan konstitutsiyaviy islohotlar nafaqat milliy davlatchilikni mustahkamlash, balki demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va huquqiy davlat tamoyillarini amalda ta’minlash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Ma’lumki, yildan yilning farqi bor, deydilar. Darhaqiqat, 2025-yil yodda qoladigan muhim voqealar va yubiley sanalariga boy bo‘ldi. Ayniqsa, joriy yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 80 yilligi hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Xelsinki hujjatining 50 yilligi keng nishonlanayotgani alohida e’tiborga molikdir. BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasida xalqaro hamjamiyat mazkur xalqaro tashkilot faoliyatini isloh qilish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Bu islohotlar samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash, vazifalarni bajarish tartibini qayta ko‘rib chiqish hamda ehtimoliy tarkibiy o‘zgarishlar va dasturlarni qayta tuzish masalalarini o‘z ichiga oladi.

Ayni chog‘da, 2025-yilda jahon hamjamiyati inson huquqlari bo‘yicha birinchi majburiy yuridik shartnoma – **Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya qabul qilinganining 60 yilligini,** shuningdek, zamonaviy ijtimoiy va siyosiy hayotning gender mezo-

niga asos solgan **Xotin-qizlar to‘g‘risidagi Pekin deklaratsiyasi va Harakat dasturining 30 yilligini** nishonlamoqda.

**Inson huquqlari – hozirgi zamon sivilizatsiyasi taraqqiyotining o‘ziga xos ko‘rsatkichidir.** Afsuski, dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, iqlim o‘zgarishlari, narx-navo kelishmovchiliklari, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamlashtirish borasidagi tengsizliklar, o‘zaro ishonchning yo‘qolishi kabi muammolar inson huquqlari masalalariga va 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibini amalga oshirish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hozirgi davrda **Yangi O‘zbekiston ortga qaytmas demokratik islohotlar yo‘lidan dadil bormoqda, pragmatik tashqi siyosat yuritmoqda, jahon hamjamiyati bilan ochiq va faol muloqot olib bormoqda.** Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Biz tez o‘zgaruvchan sharoitlarda shakllanadigan va sezilarli xilma-xillikka ega bo‘lgan konstitutsiyalar dunyosida yashayapmiz. Bugungi kunda konstitutsiyalar milliy o‘zlikni shakllantirishga, ijtimoiy kelishmovchiliklarni yumshatishga, inson hayotini mashinalar va sun’iy intellekt bilan o‘zaro munosabatlarga moslashtirishga, shuningdek, tabiiy va texnogen inqirozlarni bartaraf etishga ko‘maklashmoqda.

**XXI asrning birinchi choragi butun dunyoda shiddatli konstitutsiyaviy islohotlar va konstitutsiyalarni yangilash davri bo‘ldi.** Statistik ma’lumotlarni keltiramiz: XXI asrda dunyo mamlakatlarida 60 ga yaqin yangi Konstitutsiya qabul qilingan; parlamentlar konstitutsiyalarga tuzatishlarni 750 martadan ortiq ko‘rib chiqqan. **Dunyoda o‘zgarishlarga uchramagan konstitutsiyalar deyarli qolmadi.** Qisqasini aytganda, zamonaviy konstitutsiyalar globallashuv va milliy taraqqiyot talablariga mos hamda muvofiq bo‘lishga intilmoqda.

**Binobarin, tuzatishlar kiritish imkoniyati barcha yozma konstitutsiyalarning muhim xususiyatidir.** Konstitutsiyaviy islohotlarning o‘ziga xos jihatlaridan biri – asosiy qadriyatlarni eng avvalo davlat suvereniteti va mamlakat hududiy yaxlitligi, oila va bolalik kabi qadriyatlarni mustahkamlash orqali milliy konstitutsiyaviy o‘zlikni (o‘ziga xoslikni, qiyofani) yanada kuchaytirish hisoblanadi.

Dunyodagi jadal konstitutsiyaviy o‘zgarishlar muqarrar ravishda konstitutsiyaviy islohotlarning asoslariga murojaat qilishni taqozo etadi. Bu o‘z navbatida, konstitutsionalizmni nazariy jihatdan tushunishni yoki boshqacha aytganda, zamonaviy konstitutsiyaviy huquqni idrok etishni talab qiladi.

Konstitutsiyani tushunish haqiqiy amaliyotni ham, shuningdek, konstitutsiyaviy normalarni qo‘llashni ham birdek nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, ayni jarayon **"Amaldagi Konstitutsiya"** tushunchasini anglatadi. Bundan ko‘zlangan **asosiy maqsad – konstitutsiyaviy davlat qurishdir.**

Konstitutsiyaviy tartibga solishning muayyan sohalari bilan bog‘liq global dunyo chaqiriqlariga javob berar ekanmiz, muqarrar ravishda huquqni, ayniqsa, konstitutsiyaviy huquqni tushunishga taalluqli bo‘lgan yalpi masalaga duch kelamiz.

Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalari va ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning mohiyati, qay tarzda bo‘lmasin, konstitutsiyaviy qonunchilikning rivojlanishida o‘z aksini topadi.

Konstitutsiyaning rivojlanishi, umuman olganda, doimo jamiyat va davlat taraqqiyotining asosiy bosqichlariga mos keladi.

Konstitutsiya davlat va jamiyat rivojlanishining deyarli barcha jihatlarini qamrab olib, eng umumlashgan normativ tartibga solishni belgilaydi. Konstitutsiya boshqa qonunlarga, shu jumladan, kodekslarga qaraganda ko‘proq butun jamiyatga, ijtimoiy qatlamlarga, inson va fuqaroga qaratilgan bo‘ladi.

Jahondagi konstitutsiyaviy o‘zgarishlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, davlatning Asosiy qonunini zamon talablariga moslashtirish va yuzaga kelayotgan muammolarga javob bera olish qobiliyati uning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

**Dunyoda zamonaviy konstitutsiyaviy rivojlanishning ustuvor tendensiyalari quyidagilardan iborat:**

- **konstitutsiyaviy islohotlarning keng qamrovligi,** ya’ni bu islohotlar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar sohalarni, shuningdek, konstitutsiyaviy o‘zgarishlar va modernizatsiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda aloqadorligini qamrab oladi;
- **konstitutsiyaviy tartibga solish ko‘lamining kengayishi,** ya’ni davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish va boshqaruv shaklini o‘zgartirish;
- **konstitutsiyaviy makonni rivojlantirish**, huquqiy suverenitetni mustahkamlash va davlatning konstitutsiyaviy o‘ziga xosligini (qiyofasini) belgilash;
- **inson konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ro‘yxatini kengaytirish** hamda inson huquq va

erkinliklarining sud orqali himoya qilinishi tartibini kuchaytirish;

• **konstitutsiyaviy sudlov vakolatlarini kengaytirish,** fuqarolarga Konstitutsiyaviy sudga bevosita murojaat qilish huquqini berish;

• **konstitutsiyaviy huquq ijodkorligining globallashuvi,** xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalarini dunyo davlatlarining milliy konstitutsiyalarida mustahkamlash;

• **davlat va jamiyatning konstitutsiyaviy rivojlanishini ekologiyalashtirish,** sifatli tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati prinsipini amalga oshirish;

• **raqamli huquqlarni mustahkamlash va rivojlantirish,** axborot jamiyatini institutsionallashtirish, kiberxavfsizlikni huquqiy tartibga solish;

•**konstitutsiyaviy rivojlanishni baynalmilallashtirish,** xalqaro huquq normalari ta’sirini kuchaytirish.

Zamonaviy dunyoda Konstitutsiya davlatning siyosiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash fuqarolik jamiyatini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon konstitutsiyalari faqatgina hokimiyat institutlari o‘rtasidagi munosabatlarni yaratish va tartibga solish, protsedura jarayonlarini belgilash bilan cheklanib qolmaydi. Ular insonparvarlashtirish jarayonini boshdan kechirgan, alohida shaxslar va guruhlarning markaziy rolini belgilab, huquqlar va asosiy erkinliklar to‘g‘risidagi qonunlar majmuyini konstitutsiyaning asosiy unsurlaridan biri sifatida o‘z ichiga olgan. Konstitutsiyaviy islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan jamiyatning turli qatlamlaridan bo‘ladigan qo‘llab-quvvatlashlarga bog‘liq.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti shuni ta’kidlaydiki, **“konstitutsiyani ishlab chiqish suveren milliy jarayon hisoblanadi va muvaffaqiyatga erishish uchun bu jarayon mamlakatlarning o‘zlari tomonidan boshqarilishi va amalga oshirilishi lozim. Yagona qolipga solingan konstitutsiyaviy model yoki hammaga birdek mos keladigan konstitutsiyaviy islohot amaliyoti mavjud emas, shuningdek, bu boradagi milliy mualliflik davlat tuzilmalari, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati va keng jamoatchilik ishtirokini o‘z ichiga olishi shart”.**

Aynan O‘zbekistonda o‘tkazilgan so‘nggi konstitutsiyaviy o‘zgarishlar mazmun-mohiyatini muxtasar tahlil etadigan bo‘lsak, mazkur jarayonda **xalqning keng ishtiroki – konstitutsiyaviy islohotlarning birinchi o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.** Keng jamoatchilik ishtiroki va mazmunli munozaralar ta’minlangan ochiq va erkin jamoatchilik muhokamasidan keyingina Konstitutsiyaga tegishli o‘zgartirishlar ishlab chiqildi.

**Ikkinchi xususiyati** – inson huquqlarini himoya qiluvchi organlarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi belgilangani. Parij prinsiplari, Vena deklaratsiyasi va Harakatlar dasturi tavsiyalariga muvofiq O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tashkil etilgan. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar yaratildi. Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida O‘zbekiston dunyoda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning konstitutsiyaviy maqomini mustahkamlagan to‘rtinchi (Meksika, Marokash va Misrdan keyin) davlatga aylandi.

**Uchinchi xususiyati** – inson huquqlari va erkinliklarini samarali himoya qilish kafolatlari kuchaytirilgani. Ma’lumki, Inson huquqlari bo‘yicha Vena deklaratsiyasi va Harakatlar dasturida har bir davlatga inson huquqlari bo‘yicha milliy harakatlar rejalarini qabul qilish tavsiya etilgan. Bugungi kunda dunyoning 80 ta mamlakatida inson huquqlari sohasida 150 dan ortiq milliy reja (strategiya) qabul qilingan.

O‘zbekistonda 2020-yildan boshlab **Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya** amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiyada konstitutsiyaviy shikoyat institutini joriy etish, Konstitutsiyaviy sudda masalalarni ko‘tarish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar doirasini kengaytirish vazifalari ham qamrab olingan.

Hozirda 2030-yilgacha mo‘ljallangan yangi strategiya ishlab chiqilmoqda. Unda yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini hisobga olgan holda asosiy huquqlarni himoya qilish ustuvor yo‘nalish bo‘ladi.

**To‘rtinchi xususiyati – fuqarolarning konstitutsiyaviy madaniyatini shakllantirish**ga alohida ahamiyat qaratilgan. Bu o‘rinda BMTning Inson huquqlari sohasidagi ta’lim bo‘yicha Jahon dasturi doirasida ta’lim muassasalarida inson huquqlarini o‘qitish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini alohida qayd etish lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy va adolatli davlat qurish yo‘llarini keng ochib berdi” deb ta’kidlagani zamirida g‘oyat ulug‘vor haqiqatlar mujassam. Chunki Konstitutsiyamizda davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida tayanadigan

konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillar qat'iy belgilab berilgani bu fikrning yaqqol isbotidir.

Eski tahrirdagi matnda Konstitutsiya normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llashga doir ushbu mexanizmlar mavjud emasdi. Asosiy qonunimizning **"Konstitutsiya va qonunning ustunligi"** bobidagi 15-16-moddalar yangi va eski matnidagi normalar o'zaro qiyoslansa, bu fikrlarimiz qanchalik haqqoniy ekanligi o'z tasdig'ini topadi. Yangilangan Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq:

**"O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi".**

Madridda 2025-yilning oktabrida bo'lib o'tgan Konstitutsiyaviy sudlar jahon konferensiyasining oltinchi kongressida ishtirokchilar sud qarorlari vijdonan bajariladigan va sud tanqidining konstruktivligini ta'minlashga imkon beradigan konstitutsionalizm madaniyatini shakllantirishga chaqirgani bejiz emas. Aynan shaffoflik, hisobdorlik va institutlar hamda fuqarolik jamiyati bilan muloqot sud hokimiyatining mustaqilligini zaiflashtirmaydi, balki mustahkamlaydi.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi 2025-yilda o'zining o'ttiz yilligini nishonlamoqda**. Ta'kidlash joizki, 1990-yildayoq, bundan 35 yil oldin O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazorat to'g'risidagi birinchi qonun qabul qilingan va Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi tashkil etilgan edi.

O'z faoliyati davomida Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy odil sudlov amaliyotini shakllantirdi. Shu bilan birga, ushbu amaliyot uzluksiz rivojlanib bormoqda. Bu esa huquq tizimi bir joyda to'xtab qolmay, boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va institutlar bilan birgalikda izchil taraqqiy etayotganidan dalolat beradi.

Konstitutsiyaviy sudning o'ttiz yilligi munosabati bilan "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunga kiritilgan o'zgartirishlarni ham ta'kidlash lozim, zero ayni yangilanishlarning poydevori 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar asnosida qo'yilgan edi. Eng muhimi, Konstitutsiyaviy sud maqomi va tartib-taomillari masalalariga taalluqli o'zgartirishlar ko'p yillik milliy amaliyot va ijobiy xalqaro tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy qonunga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida **tugatish prinsipi** shikoyatni ish yuritishga qabul qilishga yondashuvning asosi etib belgilandi. Unga ko'ra, shikoyatni ish yuritishga qabul qilish uchun arizachi sud himoyasining barcha ichki davlat vositalarini tugatishi lozim bo'ladi.

Bir qarashda mavhum va konstitutsiyaviy odil sudlovga erishishni cheklashi mumkin bo'lib ko'rinadigan bunday qaror, aslida:

birinchidan, konstitutsiyaviy nazorat organi faoliyatining sifatini oshirishga;

ikkinchidan, butun sud tizimining uyg'un ishlashini ta'minlashga;

uchinchidan, sudlar funksiyalarining takrorlanish holatlarini cheklashga qaratilgan.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, 2024-yilda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan Konstitutsiyaviy sudga "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunning **86-moddasiga sharh berish** masalasi kiritildi. Konstitutsiyaviy sudning tushuntirishicha, ishni sudda ko'rish tugagan kun deganda, ishni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha qabul qilingan so'nggi sud hujjati sanasini tushunish lozim.

Konstitutsiyaviy sud huquqiy maqomining yana bir muhim jihati – uning vakolatlari doirasi kengaytirilganidir. Birinchi navbatda sud O'zbekiston Respublikasida **referendumga qo'yilayotgan masalalarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida xulosa berish huquqiga ega bo'ldi.** Bu huquq 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida muvaffaqiyatli qo'llanildi.

Konstitutsiyaviy sudning o'ttiz yillik faoliyati tajribasidan kelib chiqib, Konstitutsiyada belgilangan huquqiy normalar nafaqat chuqur yuridik mazmunga egaligi, balki doimiy rivojlanishda ham ekanligini e'tirof etish ham qarz, ham farzdir.

Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyani qo'llash va talqin qilish jarayonida uning nafaqat "harfi", ya'ni shakli va matni, balki "ruhi", demakki, tub mazmun-mohiyati ham taraqqiyotning har bir yangi bosqichiga nechog'lik mutanosibligini aniqlab, uning muayyan qoidalarini jamiyatdagi o'zgarayotgan munosabatlarga moslashtirib boradi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatidagi o'ttiz yillik bosqich – Yangi O'zbekistonning konstitutsiyaviy odil sudlovi rivojlanishiga oraliq yakun yasash uchun muhim nuqtadir. Bugungi kunda ham Konstitutsiyada belgilangan fundamental huquqiy tamoyillarga sodiqligini baralla namoyon etar ekan, Konstitutsiyaviy

sud mamlakat taraqqiyotining huquqiy poydevorini yaratish va mustahkamlash ishiga munosib hissasini qo'shmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya – doimo harakatdagi muhim siyosiy-huquqiy hujjat. Ya'ni u hayot jo'shqinligi va o'zgarishlarini o'zida yaqqol aks ettiradi. Hozirgi kunda konstitutsiyaviy vatanparvarlikni shakllantirish ustuvor vazifadir.

**Konstitutsiyaviy vatanparvarlik** tushunchasining tub mazmun-mohiyati shuki, bunda fuqarolar o'z vatani va xalqini, uning tarixi, madaniyati, azaliy qadriyatlari va huquqiy an'analarini faqat sevish hamda hurmat qilish bilangina cheklanib qolmaydi. Balki ular zimmasidagi konstitutsiyaviy majburiyatlarni halollik va ulkan mas'uliyat bilan ado etish orqali Konstitutsiyada qayd etilgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni barpo etish ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishga intiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar mamlakat taraqqiyotining huquqiy ifodachisi sifatida zamonaviy konstitutsionalizm talablariga to'liq mos keladi. Konstitutsiya – jamiyatda kechayotgan yangilanish va tub o'zgarishlarning oynasi bo'lib, uning doimiy ravishda takomillashib borishi milliy davlatchilikning barqarorligi va inson huquqlarining ishonchli kafolatiga aylanmoqda. Konstitutsiyaviy sudning roli va vakolatlarining kengayishi, inson huquqlarini himoya qiluvchi institutlarning konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lishi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar – buning yaqqol isbotidir. Shu bois konstitutsiyaviy vatanparvarlikni mustahkamlash, Asosiy qonun ustuvorligini hayotning har bir jabhasida ta'minlash va uning ruhini amalda tatbiq etish Yangi O'zbekistonning huquqiy kelajagini barqaror va ishonchli tarzda belgilab beradi.

#

**Feruza ESHMATOVA,**
**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining**
**Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), yuridik fanlar doktori**

# KONSTITUTSIYAVIY NORMALARNI TA’MINLASHDA OMBUDSMAN INSTITUTINING ROLI

***ANNOTATSIYA.*** *Maqolada yangilangan Konstitutsiya sharoitida inson huquqlarini ta’minlashda Ombudsman institutining o‘rni va vakolatlari yoritiladi. Fuqarolarning murojaatlari, monitoring tashriflari va huquqlarni tiklash bo‘yicha amaliy natijalar qisqa tahlil qilinadi. Ombudsmanning qiynoqlarning oldini olish, insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashdagi roli ko‘rsatiladi.*

***АННОТАЦИЯ.*** *Статья кратко раскрывает значение института Омбудсмана в обеспечении прав человека по обновлённой Конституции Узбекистана. Рассматриваются работа с обращениями, мониторинг мест содержания лиц с ограниченной свободой и меры реагирования, направленные на восстановление нарушенных прав. Подчёркивается вклад Омбудсмана в предотвращение пыток и укрепление гуманистических принципов.*

***ABSTRACT.*** *The article briefly outlines the role of the Ombudsman in safeguarding human rights under Uzbekistan’s renewed Constitution. It highlights petition handling, monitoring of detention facilities, and enforcement measures aimed at restoring violated rights. The Ombudsman’s contribution to preventing torture and promoting human dignity is emphasized.*

***Kalit so‘zlar:*** *inson huquqlari, Konstitutsiya, Ombudsman, O'zbekistonda inson huquqlari, xalqaro institutlar, Miranda qoidasi, Xabeas korpus, insonparvarlik, jazoni ijro etish muassasalari, qiynoqlarning oldini olish, fuqarolik jamiyati.*

***Ключевые слова:*** *права человека, Конституция, Омбудсмен, права человека в Узбекистане, международные институты, право Миранды, Хабеас корпус, гуманизм, учреждения для отбывания наказания, предотвращение пыток, гражданское общество.*

***Key words:*** *human rights, Constitution, Ombudsman, human rights in Uzbekistan, international institutions, Miranda rights, Habeas corpus, humanitarianism, penitentiary institutions, prevention of torture, civil society.*

Yurtboshimizning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 33 yilligini yuksak saviyada nishonlash borasidagi farmoyishi Bosh qomusimizning O‘zbekistonda yashayotgan har bir insonning hayoti, faoliyati hamda huquq va erkinliklari ta’minlanishining debochasi ekanligidan dalolat bermoqda.

Yangi O‘zbekiston strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya xalqimizning, avvalambor, jamiyatimizning barcha sohalarida faoliyat yuritayotgan insonlarning hayotida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qonunimizda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik, tenglik, adolat va insonparvarlik kabi g‘oyalar, tom ma’noda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Konstitutsiyada inson huquqlariga oid normalar **3,5 barobarga** oshib, **50 dan ortiq** normada o‘z ifodasini topdi hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy qoidalarini o‘zida mujassam etdi.

Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari yaratildi. Xususan, qonunlardagi noaniqliklarning inson foydasiga hal etilishi, advokatlar maqomi tergovchi va prokuror maqomiga tenglashtirilishi yangi konstitutsiyaviy huquqiy makonning barpo etilishiga olib keldi.

Konstitutsiyada o‘lim jazosi qat’iy taqiqlanishi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga insonparvarlik g‘oyalariga sodiqligini namoyon qila oldi.

Konstitutsiyada xalqaro institutlar – “Miranda qoidasi” va “Xabeas korpus” tamoyillariga qat’iy rioya qilinganligini alohida ta’kidlash mumkin.

*“Miranda qoidasi”ga ko‘ra shaxsni ushlab turish chog‘ida uning huquqlari hamda ushlab turish asoslari unga tushunarli tilda bayon qilinishi, shuningdek, gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi Asosiy qonunimizning katta yutuqlaridan biridir.*

Konstitutsiyaga asosan mamlakatimizda inson huquqlari bilan shug‘ullanuvchi milliy institutlarning vakolat doiralari kengaytirildi. Shular qatorida **Oliy**

**Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) instituti** alohida o‘rin tutadi.

Xususan, Konstitutsiyaning 56-moddasida inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldirishi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashishi, davlat esa milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoit yaratishi belgilab qo‘yilgan.

Asosiy qonunning 55-moddasida har kim:

*o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqliligi;*

*o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi;*

*davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan.*

Fuqarolarning o‘z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ko‘zlab Ombudsmanga qilgan murojaatlari yildan-yilga ortib bormoqda.

Bugungi kunda Ombudsman aholi murojaatlarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, muammolarni joyiga chiqqan holda o‘rganmoqda. O‘rganish natijalariga ko‘ra davlat tashkilotlariga ta’sir choralari kiritilmoqda.

Ombudsman nomiga joriy yilning 9 oyida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va yuridik shaxslardan 15,4 mingga yaqin murojaat kelib tushdi.

O‘rganishlar natijasida fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash yuzasidan davlat tashkilotlari yoki mansabdor shaxslarga 133 ta da’vo ariza, taqdimnoma, talabnoma, ogohlantirish va xulosa shaklidagi ta’sir choralari kiritildi.

Fuqarolar manfaatlarida 9 mlrd. 327 mln. so‘mdan ortiq mablag‘ undirildi.

25 nafar fuqaroning ishga tiklash va ishga joylashtirish bo‘yicha murojaatlari ijobiy hal qilindi.

11 ta holatda ish beruvchining xodimga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlari bartaraf etildi.

Konstitutsiyaning yana bir muhim jihatlaridan biri shuki, unda ilk marotaba ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning huquqlari mustahkamlanib qo‘yildi. Xususan, uning 28-moddasiga muvofiq *“Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega”* ekanligi o‘z aksini topdi.

Yangilangan Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga katta e’tibor qaratilganligi, ayniqsa, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar huquqlarining mustahkamlanishi mamlakatimizda insonparvarlik va adolat tamoyillari ustuvorligi yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va parlament nazoratining o‘rnatilishi, Ombudsman faoliyatining kuchaytirilishi inson huquqlari himoyasiga bo‘lgan e’tiborning amaldagi ifodasi hisoblanadi.

Joriy yil davomida Ombudsman va uning huzuridagi jamoatchilik guruhlari tomonidan harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga 728 marotaba monitoring tashriflari amalga oshirildi.

Monitoring tashriflarida u yerda saqlanayotgan shaxslarga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi, inson sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi, qiynoq holatlariga yo‘l qo‘ymaslik masalalari o‘rganib borildi.

Jazoni ijro etish muassasalarida “Ombudsman quti”larining o‘rnatilishi mahkum va mahbuslarning Ombudsmanga murojaat qilish imkoniyatlarini yaratdi.

Ombudsman tomonidan monitoring tashriflarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan idora va vazirliklarga 15 ta taqdimnoma, 1 ta xulosa va 13 ta talabnoma shaklidagi ta’sir choralari kiritildi.

Natijada 5 nafar sog‘liqni saqlash va 12 nafar ichki ishlar xodimiga intizomiy jazolar qo‘llanildi.

Ombudsman tomonidan jazoni ijro etish muassasalarida monitoring tashriflari o‘tkazilishi, shuningdek, u yerlarda saqlanayotgan shaxslardan kelib tushgan shikoyatlar o‘rganilishi natijasida 37 ta holat bo‘yicha xodimlarning xatti-harakatlariga nisbatan xizmat tekshiruvlari tayinlandi, shuningdek, ichki ishlar idoralarining 5 nafar xodimi intizomiy ravishda jazolandi va 1 nafari egallab turgan lavozimidan ozod etildi.

Mahkum va mahbuslarning oila a’zolariga 34 mln. so‘mga yaqin moddiy yordam pullari ajratilishiga ko‘maklashildi.

Ombudsman tomonidan joriy yilning 9 oyi mo-

baynida fuqarolar murojaatlarini oʻrganishlar natijasida parlament va tegishli davlat tashkilotlariga 23 ta tahliliy ma’lumotlar kiritildi.

Yangilangan Konstitutsiyaning 98-moddasiga binoan Ombudsmanga qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish huquqining berilishi fuqarolarning huquq va erkinliklarining yanada ta’minlanishiga hamda himoyalanishiga zamin yaratdi.

Ombudsman joriy yilda ushbu vakolatdan foydalanib qonunchilik tashabbusi huquqi asosida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga qonunchilik takliflarini kiritdi. Bugungi kunda ushbu qonunchilik takliflari quyi palata tomonidan koʻrib chiqish jarayonida.

Aminmizki, Konstitutsiyada belgilangan barcha qoidalar kelgusida davlatimiz va jamiyatimizning barqaror rivojlanishini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ta’minlanishini kafolatlaydi hamda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning chinakam huquqiy poydevori ekanligini namoyon etadi.

#

**Akmal BURXANOV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori, yuridik fanlar doktori (DSc)**

# YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI – AKSILKORRUPSIYAVIY ISLOHOTLAR KAFOLATI

***ANNOTATSIYA.*** *Maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish masalalariga oid kiritilgan muhim o‘zgarishlar tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borayotgan siyosati, yangi Konstitutsiyada korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional jihatdan mustahkamlanganligi, jamoatchilik nazoratini ta’minlash bo‘yicha kafolatlar, shuningdek, axborot olish huquqi va davlat idoralarining ochiqligi masalalari haqida so‘z yuritiladi.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В статье анализируются важные изменения и гарантии, внесенные в новую редакцию Конституции Республики Узбекистан в части борьбы с коррупцией и предотвращения ее. Рассматривается политика Республики Узбекистан в области борьбы с коррупцией, укрепление институциональных механизмов борьбы с коррупцией в новой Конституции, гарантии обеспечения общественного контроля, а также вопросы права на получение информации и открытости государственных органов.*

***ABSTRACT.*** *The article analyzes the significant changes and guarantees introduced in the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan regarding anti-corruption measures and prevention. It discusses the anti-corruption policy of the Republic of Uzbekistan, the institutional strengthening of anti-corruption efforts in the new Constitution, guarantees for ensuring public oversight, as well as the right to access information and the transparency of government bodies.*

***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, ochiqlik va shaffoflik, normativ-huquqiy hujjatlar.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, противодействие коррупции, общественный контроль, гражданское общество, открытость и прозрачность, нормативно-правовые акты.*

***Key words:*** *Constitution, anti-corruption, public oversight, civil society, openness and transparency, normative legal documents.*

Korrupsiya muammosi butun dunyoda iqtisodiy o‘sish, jamoatchilik ishonchi va boshqaruvga putur yetkazuvchi muhim muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu illatning demokratik institutlar, etnik qadriyatlar va adolatga putur yetkazishi hamda barqaror rivojlanish va huquq-tartibotga zarar keltirishi, jamiyatning barqarorligi va xavfsizligi uchun muammo tug‘dirishi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi bilan tan olingan.

Mamlakatdagi korrupsiya darajasi – xalqaro maydonda uning ham siyosiy, ham iqtisodiy nufuziga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar, investitsiyalar hajmi, teng shartlarda ikki tomonlama shartnomalar imzolash kabi masalalarda ushbu mezon hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish mamlakatimizda ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buni so‘nggi yilllarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiya va byurokratiyaning oldini olishga qaratilgan ma’muriy islohotlar misolida ko‘rishmiz mumkin.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy normativ-huquqiy baza shakllantirildi, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, davlat idoralari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, davlat xaridlarida korrupsiyaning oldini olish, jamoatchilik nazorati va hisobdorlik mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan dasturiy hujjatlar qabul qilindi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, mazkur yo‘nalishda barcha islohotlarning huquqiy poydevori bo‘lib 2023-yil 30-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining  yangi tahrirda qabul qilingani bo‘ldi.

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir bir qator yangi normalarning kiritilishi mazkur masalaning nechog‘lik dolzarbligini ko‘rsatib berdi.

*Birinchidan*, yangi Konstitutsiyada korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslar mustahkamlandi.

Ma’lumki, davlat rahbarining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilinib, unga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiruvchi yangi tuzilma – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgan edi.

Agentlikka davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash vazifasi yuklatildi hamda sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli organ sifatida belgilandi.

O'tgan yillar davomida agentlikning vazifa va funksiyalari zamon talablariga mos ravishda doimiy takomillashtirilib borilmoqda.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi 6247-sonli farmoni bilan agentlikka davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash borasida ham bir qator qo'shimcha vazifalar yuklatildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organning maqomi alohida belgilanganligi, xususan, ushbu organ rahbarligiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilishi hamda Oliy Majlis Senati tomonidan saylanishi tartibi o'rnatilganligi korrupsiyaga qarshi kurashish borasida siyosiy irodaning mustahkamligini hamda mazkur yo'nalishdagi islohotlarning ortga qaytmas tus olganligini yana bir bor ko'rsatib berdi.

*Ikkinchidan*, Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi bilan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid kafolatlar yanada mustahkamlandi.

Barchamizga ma'lumki, jamoatchilik nazorati – korrupsiyaga qarshi kurashishning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatlarda korrupsiya darajasini baholash va tadqiq qilishga qaratilgan nufuzli xalqaro reyting va indekslar hisobotlarida yuqori pog'onani qayd etgan davlatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning barchasida fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, jamoatchilikning qarorlar qabul qilish jarayonlarida keng jalb qilinishi ta'minlanganligi hamda jamoatchilik nazorati mexanizmlarining samarali yo'lga qo'yilganligini kuzatishimiz mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yuqorida qayd etilgan masalalarda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, jamoatchilik nazoratini ta'minlashning samarali mexanizmlari joriy etilmoqda.

Xususan, 2018-yilda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, jamoatchilik nazorati subyektlari, tamoyillari hamda shakllari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3837-sonli qaroriga muvofiq esa har bir vazirlik va davlat idorasiga Jamoatchilik kengashini tashkil etish majburiyati yuklatildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning bir qator moddalari bilan fuqarolik jamiyati institutlari yanada faol bo'lishi uchun keng imkoniyat va kuchli himoya taqdim etildi.

Xususan, Konstitutsiyamizga **ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritilib (69-75-moddalar),** ularning faoliyati kafolatlari belgilandi.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash va ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratish majburiyatini oldi.

Qolaversa, kundan-kunga dolzarb tus olib borayotgan mavzulardan biri hisoblangan **fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash** va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish yuzasidan kafolatlar belgilandi (49-modda).

Shu kabi, Konstitutsiyaning 148-moddasi bilan fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi **Davlat budjetining shakllantirilishi** hamda **ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini** amalga oshirishi belgilab qo'yildi.

Mazkur fundamental normalarning Konstitutsiyaga kiritilishi davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash hamda kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

*Uchinchidan*, yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan fuqarolarning **axborot olish huquqi kafolatlanib**, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati **ochiqligi va hisobdorligini** ta'minlashga xizmat qiladigan normalar kiritildi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda davlat rahbarining tashabbusi bilan boshlangan islohotlar natijasida davlat idoralari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlovchi bir qator islohotlar amalga oshirilib, ushbu yo'nalishdagi normativ-huquqiy hujjatlar bazasi tubdan

takomillashtirildi.

Xususan, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarning qat’iy ro‘yxati tasdiqlanib (PF-6247-son, 16.06.2021-yil), axborotlar joylashtiriladigan resurs, yangilab borish muddati va mas’ul ijrochilar aniq belgilab berildi.

Shu kabi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 154-sonli farmoni bilan davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini baholashga qaratilgan **Ochiqlik indeksi** joriy etildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan mazkur yo‘nalishdagi huquqlar yanada mustahkamlandi.

Xususan, **33-modda** bilan **axborotni izlash, olish va tarqatish** huquqi kafolatlandi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, shuningdek, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi **81-modda bilan** mustahkamlandi.

**Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish** qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilandi.

Ushbu normalar **jurnalistlarning erkin, turli ma’muriy bosimlardan qo‘rqmasdan faoliyat yuritishini** ta’minlaydi hamda mamlakatimizda axborot erkinligining yanada yuksalishiga, jamiyatda ochiqlik va oshkoralik, qonuniylik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yana bir muhim normalardan biri – bu Vazirlar Mahkamasiga ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, ularning faoliyatida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo‘yicha choralar ko‘rish borasida yangi vazifalarning yuklatilgani hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugun O‘zbekiston Respublikasida boshlangan va izchil amalga oshirib kelinayotgan **ortga qaytmas aksilkorrupsiya islohotlari** Bosh qomusimizda yana bir bor qat’iy mustahkamlab qo‘yilib, bu borada kelgusidagi yo‘nalishlarni belgilab olish hamda yangi dasturiy hujjatlarni qabul qilish va amaliyotga tatbiq etib borish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

#

**Surayyo RAHMONOVA,**
**Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani), yuridik fanlar doktori, professor**

# BOLALAR MANFAATLARINI HIMOYA QILISH KONSTITUTSIYADA MUSTAHKAMLANGAN MUHIM IJTIMOIY KAFOLATDIR

***ANNOTATSIYA.*** *Maqolada Konstitutsiyaning yangi tahriri bolalar huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning konstitutsiyaviy majburiyatlarini kengaytirish, shuningdek, davlatning ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish bo'yicha kafolatlarini mustahkamlashga xizmat qilgani yoritiladi. Bolalar ombudsmanining institutsional maqomi, parlament nazorati va protsessual vakolatlarining bolalar huquqlarini samarali himoya qilishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

***АННОТАЦИЯ.*** *Статья раскрывает конституционное закрепление защиты прав и интересов ребёнка, усиление обязанностей родителей и лиц, их заменяющих, а также государственные гарантии образования, здоровья и социального развития детей. Анализируется правовой статус Детского омбудсмана, его парламентский контроль и процессуальные полномочия как механизм эффективной защиты интересов ребёнка.*

***ABSTRACT.*** *The article examines the constitutional implementation of child-rights guarantees, the expanded duties of parents and legal guardians, and the state obligations to ensure education, health and social development. It also evaluates the institutional role of the Children's Ombudsman, including parliamentary oversight and procedural powers, as an effective mechanism for protecting the best interests of the child.*

***Kalit so'zlar:*** *Konstitutsiya, bola huquqlari, ota-onalar majburiyati, ijtimoiy kafolatlar, ta'lim va sog'liqni saqlash, Bolalar ombudsmani, parlament nazorati.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, права ребёнка, обязанности родителей, социальные гарантии, образование и здоровье, Детский омбудсман, парламентский контроль.*

***Key words:*** *Constitution, child rights, parental duties, social guarantees, education and health, Children's ombudsman, parliamentary oversight.*

Bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish barcha rivojlangan mamlakatlarda davlat siyosatining birlamchi vazifalaridan sanaladi. Yurtimizda ham ertamiz egalari – farzandlarimizning jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib kamol topishi uchun barcha imkoniyat va salohiyat ishga solinmoqda.

Binobarin, "Inson qadri uchun" g'oyasi hamda "hech kimni orqada qoldirmaslik" tamoyiliga tayanib olib borilgan **konstitutsiyaviy islohotlar doirasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga bolaning huquq va manfaatlarini ta'minlash kafolatlarini** kuchaytirishga qaratilgan yangi ilg'or normalar kiritildi.

Asosiy qonunimizda bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha kafolatlar kuchaytirildi, bu borada davlatning ijtimoiy majburiyatlari ham kengaytirildi.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning **77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar"** degan norma belgilandi. Ushbu norma Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya talablariga to'la muvofiqdir.

Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar zimmasiga quyidagi konstitutsiyaviy majburiyatlar alohida belgilab berilmoqda.

**Birinchidan, ota-onalar o'rnini bosuvchi shaxslar** kiritilishi bilan voyaga yetmaganlarga mas'ul bo'lgan shaxslar doirasi kengaytirilmoqda. Voyaga yetgunga qadar yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish va unga g'amxo'rlik ko'rsatish maqsadida homiy yoki vasiy etib tayinlangan shaxslar ota-onalar o'rnini bosuvchi shaxslar hisoblanadi. Ularning zimmasiga bolalarga o'z farzandidek munosabatda bo'lib, ularni ko'z qorachig'idek asrash, hayotda o'z o'rnini topish uchun ta'lim-tarbiya berish majburiyati konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlandi.

**Ikkinchidan,** ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning farzandlari oldidagi vazifa-

lari kengaytirilmoqda. Amaldagi Konstitutsiyada ota-onalar farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar faqat boqish va tarbiyalashga majbur edi. Endilikda ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar farzandlarini boqish va tarbiyalash bilan birga, ularning **ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilish**ga majbur ekanliklari belgilandi.

Bundan maqsad – farzandlar ta’lim va tarbiyasida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning mas’uliyati va javobgarligini oshirishdir. Afsuski, hayotda bolalarga ta’lim-tarbiya berish, moddiy ta’minlash, himoya qilish, ularning sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilmaydiganlar ham uchraydi. Bunday shaxslar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ushbu qoidaning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi natijasida farzandlikka olingan shaxslarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishni kuchaytirishga, voyaga yetmaganlarning ta’lim olishi, sog‘lom va barkamol rivojlanishi bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlar yaratilishiga va eng muhimi, farzandlarni barkamol etib voyaga yetkazishda ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning javobgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bolalarni doimiy ravishda davlat himoyasi va g‘amxo‘rligi ostida bo‘lishini ta’minlash maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning **78-moddasida “Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir”** degan mazmundagi norma mustahkamlandi.

Aslida “bola” deganda kimni tushunish kerak? BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi va milliy qonunchiligimizga muvofiq, **18 yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan shaxs – bola hisoblanadi. Agar shunga asoslanadigan bo‘lsak, bugun yurtimiz aholisining qariyb 12,1 mln.** nafari bolalardan iborat bo‘lib, ular mamlakatimiz aholisining 35 foizini tashkil etmoqda. Konvensiyaning 3-moddasida “bolalarga nisbatan amalga oshiriladigan barcha harakatlarda, ular davlat yoki xususiy ijtimoiy himoya muassasalari, sudlar, ma’muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan amalga oshirilishidan qat’i nazar, bolaning eng yaxshi manfaatlari birinchi navbatda e’tiborga olinadi” deb belgilangan.

Bolalarning manfaatlarini ta’minlash borasidagi mazkur yangi konstitutsiyaviy normalar yuqoridagi konvensiya qoidalariga ham mosdir.

Mazkur konstitutsiyaviy normaga muvofiq endilikda davlat:

– **bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, himoya qilish uchun** qonunchilik va amaliyotni takomillashtiradi, shu orqali nafaqat bolalar bilan bog‘liq sud jarayonlari, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarda bolalarning eng yaxshi manfaatlari hisobga olinishini ta’minlaydi;

– **bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun** har bir shahar, tuman, mahalla va maktabda sport maydonchasi yoki sport zalini tashkil etish, turli sport to‘garaklarining samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi choralarni ko‘radi;

– **bolalarning aqliy rivojlanishi uchun** maktab va maktabgacha ta’lim sifatini yaxshilash, bolalarga mo‘ljallangan adabiyot, o‘quv va multimedia, internet dasturlarini tayyorlash, kutubxonalarining kitob fondini boyitish, ilmiy-texnik to‘garaklarni ko‘paytirish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish kabi tadbirlarni amalga oshiradi;

– **bolalarning madaniy rivojlanishi uchun** ularga mo‘ljallangan san’at to‘garaklarini faollashtirish, teatr va konsert repertuarlarini ko‘paytirish, muzey va madaniy ko‘rgazmalarga maktab o‘quvchilari uchun kirishni bepul qilish kabi sharoitlarni yaratadi.

Mazkur kafolatlarning Asosiy qonunda mustahkamlanganligi yurtimiz kelajagi bo‘lgan bolalarni sog‘lom, zukko, zehnli bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda yurtimizda bola huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Sohada yangi yondashuv va uslublar joriy etildi. Bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga oid maxsus qonunchilik bazasi yaratilib, uni ijro etish yuzasidan samarali huquqiy mexanizm yo‘lga qo‘yildi.

Davlatimiz rahbarining bola manfaatlarini ta’minlash borasidagi qat’iy siyosiy irodasi tufayli amalga oshirilgan tizimli choralar natijasida bugun, jumladan, neonatal o‘lim ko‘rsatkichlarining sezilarli pasayib borayotgani, maktabgacha ta’lim qamrovining 76 foizgacha keskin oshgani va albatta, bolalar mehnatiga respublikamizda batamom barham berilgani e’tiborga molik. Bu natijalar nafaqat

milliy darajada, balki jahon miqyosida ham e'tirof etilmoqda.

Shu o'rinda qayd etish joiz, milliy qonunchiligimizda bola huquqlari bilan bog'liq qonun hujjatlari soni 40 dan, qonunosti hujjatlari soni 500 dan ortiqni tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida, bola huquqlari sohasidagi qonunchilik bilan ixtisoslashgan holda ish olib borish hamda uning ijrosi bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yaratish zaruratini yuzaga keltirdi.

Shu bilan birga, bugungi kunda bola huquqlarini himoya qilishga oid davlat siyosati sohada yana ko'plab muhim va dolzarb masalalarni hal etishni taqozo etmoqda. Jumladan, aynan ana shu vazifalarni samarali amalga oshirish yo'lida yangi ixtisoslashtirilgan, inson huquqlarini himoya qilish milliy instituti — Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) ta'sis etildi. Bu institut Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan joriy etildi.

Bolalar ombudsmanining institutsional isloh etilishi, parlamentning mustaqil siyosiy instituti sifatida uning maqomi mustahkamlanishi prinsipial ahamiyatga ega. Qolaversa, uning parlament vakili sifatida birlamchi vazifasi bola manfaatlariga oid qonunchilik ijrosi ustidan samarali monitoring – parlament nazoratini olib borishdir. Bu jarayonda esa bir qator savollar yuzaga keladi.

Xo'sh, bugungi kunda yangi tahrirdagi Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan bola huquqlari qay darajada ta'minlanmoqda? Qonun normalarini qo'llashda va umuman olganda, turli ijtimoiy-huquqiy vaziyatlarda bolalarning eng ustun manfaatlariga rioya etish qay holatda?

Shak-shubhasiz, ana shu masalalar Bolalar ombudsmani faoliyatining asosiy funksional yo'nalishini belgilaydi. Mazkur institut bola manfaatlarini ilgari surish, ularni himoya qilish mandatiga ega bo'lgan, ayni vaqtda o'z faoliyatini faqat va faqat bolalar huquqlarini himoya qilishga yo'naltiradigan mustaqil organdir.

Shu nuqtayi nazardan aytganda, Prezidentimiz tomonidan shu yil 29-fevralda imzolangan va kuchga kirgan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi qonun ushbu institutning samarali ishlashi, bolalar huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilinishi uchun mustahkam huquqiy asos bo'ldi, desak aslo yanglishmaymiz.

Qonunda Bolalar ombudsmanining asosiy vazifalari belgilandi. Bola huquqlariga oid davlat siyosatini amalga oshirish hamda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini bajarishda ishtirok etish, bola huquqlari buzilishi to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqish orqali bolaning huquqlarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, bola huquqlariga oid qonunchilik talablarining ijrosini o'rganish, bola huquqlari ta'minlashini monitoring qilish kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, Bolalar ombudsmani imkoniyati cheklangan, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashadi, bolaning huquqlariga rioya qilish hamda ularni himoya qilish holatidan jamoatchilikni xabardor qiladi.

Qonun bilan Bolalar ombudsmani faoliyati doirasidagi asosiy vakolatlari ham o'rnatildi. Xususan, mansabdor shaxslarga qonunchilik buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ogohlantirish yuborish va taqdimnomalar kiritish, qonun hujjatlari loyihalari bo'yicha takliflar kiritish, ekspertizadan o'tkazish va palatalar majlislarida ishtirok etish, ma'rifiy va ta'lim dasturlarini, ilmiy-amaliy seminarlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, bolaga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashning oldini olish bo'yicha choralar nazarda tutildi.

Shu o'rinda Bolalar ombudsmani faoliyati samarali va ta'sirchan tashkil etilishiga xizmat qiladigan ayrim muhim normalarga alohida to'xtalish joiz. Jumladan, parlament majlislarida Bolalar ombudsmani ma'ruzasi har yili eshitilishi ko'zda tutildi. Bu vakolat orqali Bolalar ombudsmani bola huquqlarini himoya qilish sohasida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan dolzarb muammolarni parlament maydoniga olib chiqadi va ularning yechimi bo'yicha takliflar beradi.

Bolalar ombudsmaniga mansabdor shaxslarga qonunchilik buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ogohlantirish va taqdimnomalar kiritish huquqi berildi. Bunday huquq, shubhasiz, Bolalar ombudsmani faoliyati ta'sirchanligini oshiradi. Xususan, bola manfaatlarining buzilishiga yo'l qo'ygan har qanday mansabdor shaxsga manzilli ravishda tegishli chora ko'rilishini ta'minlash imkonini yaratadi.

Shuningdek, Bolalar ombudsmanining Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy

sud Plenumi majlislarida ishtirok etish yoki takliflar kiritish huquqi mustahkamlandi. Mazkur huquq orqali Bolalar ombudsmani parlamentda, ijro organlarida va sudlarda bola huquqlarini maxsus himoya qiladi va mazkur organlar e’tiborini aynan bola manfaati ustunligiga qaratadi. Oddiy qilib aytganda, davlat siyosatining bola huquqlarini ta’minlash sohasida bevosita va faol ishtirok etadi.

Bundan tashqari, qonun bilan surishtiruv, tergov organlari va sud voyaga yetmaganlarning hayoti, sog‘lig‘i yoki jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarga oid qabul qilgan qaror, hukm(ajrim)lari to‘g‘risida Bolalar ombudsmanini yozma ravishda xabardor qilishi shartligi, belgilandi. Bu ham nihoyatda muhim preventiv mexanizm bo‘lib, bunday xabardorlik natijasida bolalarga qarshi jinoyat faktlari yashirilishi, bunday ishlarning qonunga zid ravishda tugatilishi, tergov qilinmasligi yoki sudda ko‘rilmasligining oldi olinadi.

Qonun bilan Bolalar ombudsmaniga qator protsessual vakolatlar, jumladan, voyaga yetmagan shaxs ishtirok etgan jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishish va ulardan ko‘chirma nusxalar olish, bolaning buzilgan huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish hamda tiklash maqsadida sud jarayonlarida ishtirok etish, hukm bilan tanishib, bola manfaatidan kelib chiqib prokuraturaga hukm ustidan protest bildirish haqida murojaat qilish kabi huquqlar berilmoqda.

Bolaning manfaatlari buzilayotgan holatlarda Bolalar ombudsmani mazkur yangi vakolatlarini ishni qonuniy hal etilishi va aybdorlarga adolatli jazo belgilanishiga yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Umuman olganda, Bolalar ombudsmani faoliyatini qonuniy tartibga solish, uning siyosiy maqomini kuchaytirish va vakolatlari ta’sirchanligini oshirishdan maqsad — yurtimizning har bir kichik fuqarosi, har bir bolaning yangi tahrirdagi Konstitutsiyada kafolatlangan barcha huquq-imkoniyatlarini ta’minlashdir. Bu esa Bolalar ombudsmani zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

#

**Yevgeniy KOLENKO,**
**Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig‘ining**
**birinchi o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYAVIY QONUNIYLIKNI MUSTAHKAMLASH SOHASIDA PROKURATURA FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH

***ANNOTATSIYA.*** *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlashdagi roli va faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qiladi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan “inson qadri”, “ijtimoiy davlat” va “huquqiy davlat” tamoyillarining prokuratura faoliyatiga ta’siri o‘rganilgan. Maqolada prokuraturaning islohotlar natijasida inson manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan funksiyalari kengaytirilgani, uning tuzilmasida ijtimoiy-iqtisodiy, ekologiya va korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul yangi tarmoqlar tashkil etilgani yoritib berilgan. Shuningdek, “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasi doirasida prokuratura organlarining raqamli transformatsiyasi va “Raqamli prokuror” tizimining qonuniylik ustidan masofaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan.*

***АННОТАЦИЯ.*** *Данная статья анализирует роль органов прокуратуры Республики Узбекистан в обеспечении конституционной законности и правовые основы их деятельности. Изучено влияние принципов “достоинство человека”, “социальное государство” и “правовое государство”, закрепленных в Конституции Республики Узбекистан в новой редакции 2023 года, на деятельность прокуратуры. В статье освещено расширение функций прокуратуры в результате реформ, направленных на защиту интересов человека, а также создание новых структурных подразделений, ответственных за социально-экономическое развитие, экологию и борьбу с коррупцией. Вместе с тем, отмечается важность цифровой трансформации органов прокуратуры в рамках Стратегии “Цифровая прокуратура – 2030” и внедрения системы “Raqamli prokuror” для дистанционного надзора за законностью.*

***ABSTRACT.*** *This article analyzes the role of the Prosecutor’s Office of the Republic of Uzbekistan in ensuring constitutional legality and the legal framework of its activities. The impact of the principles of “human dignity”, “social state”, and “rule of law”, enshrined in the new edition of the Constitution adopted in 2023, on the activities of the prosecution is examined. The article highlights the expansion of the prosecutor’s functions, resulting from reforms aimed at protecting human interests, and the establishment of new structural units responsible for socio-economic issues, ecology, and anti-corruption. Emphasis is placed on the digital transformation of the prosecutor's offices within the framework of the “Digital Prosecutor – 2030” Strategy and the significance of the “Raqamli prokuror” system for remote monitoring of legality.*

***Kalit so‘zlar:*** *konstitutsiyaviy qonuniylik, prokuratura, huquqiy asoslar, “inson qadri”, “ijtimoiy davlat”, prokuratura nazorati, “Raqamli prokuratura – 2030”, korrupsiyaga qarshi kurash.*

***Ключевые слова:*** *конституционная законность, прокуратура, правовые основы, “достоинство человека”, “социальное государство”, прокурорский надзор, “Цифровая прокуратура – 2030”, борьба с коррупцией.*

***Key words:*** *constitutional legality, prosecutor’s office, legal framework, “human dignity”, “social state”, prosecutorial supervision, “Digital prosecutor – 2030” anti-corruption.*

Dunyo miqyosida prokuratura organlarining tutgan o‘rni va roli har bir mamlakatning o‘ziga xos huquqiy tizimi, davlatchilik an’analari va tarixiy taraqqiyotiga ko‘ra rang-barang modellarni namoyon etadi. Umumiy huquq tizimlarida prokuror asosan ayblov funksiyasini amalga oshirib, sud jarayonining bir tomoni sifatida maydonga chiqsa, kontinental huquq oilasiga mansub aksariyat davlatlarda prokuratura nafaqat jinoiy ta’qibni, balki qonunlarning ijro etilishi ustidan umumiy nazoratni ham amalga oshiruvchi markaziy, mustaqil organ hisoblanadi.

Shunday bo‘lsa-da, butun dunyo bo‘ylab prokuratura institutining asosiy maqsadi yagona – jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat manfaatlarini himoya qilish hamda jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish.

Xalqaro maydonda, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) tomonidan e’tirof etilgan “Prokurorlar roli bo‘yicha yo‘riqnomalar” (Guidelines on the Role of Prosecutors) prokurorlar faoliyatining universal tamoyillarini belgilab beradi. Ushbu xalqaro standartlar prokuratura organlarining odil sudlov tizimidagi adolatli, xolis va mustaqil o‘rnini

mustahkamlashga xizmat qiladi[1].

Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asosi sifatida 2023-yilda yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiyamiz mamlakatning butun hududida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan hamda yagona huquqiy makonning asosini tashkil etuvchi fundamental huquqiy hujjatdir. Bosh qomusimizni ishlab chiqishda inson qadri birinchi o'ringa qo'yilib, "ijtimoiy, huquqiy davlat" degan tamoyillar bosh mezon qilib olindi. O'zbekistonning huquqiy davlat sifatidagi maqomini mustahkamlash uchun Konstitutsiya va qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishini ta'minlash juda muhim. Bu borada mamlakatda huquqni muhofaza qiluvchi institut sifatida faoliyat yuritayotgan prokuratura organlari muhim o'rin tutadi.

Asosiy qonunimizning 15-moddasi ikkinchi qismida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi, to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi belgilangan. 2023-yilgacha Konstitutsiya normalari huquqni qo'llash aktlarida to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilmagan. Bu esa "Law in books", ya'ni qog'ozdagi qonun degan xalqaro atamaning mazmun-mohiyatiga mos keladi.  Ya'ni huquqni qo'llovchilar, jumladan sudya, prokuror va boshqalar o'zlari tomonidan qabul qilingan huquqni qo'llash aktlari Konstitutsiya normalari bilan asoslantirilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 67-sonli farmoni bilan yuqoridagi masalaga jiddiy e'tibor qaratildi va bugungi kunda boshqa davlat organlari xodimlari bilan bir qatorda prokuratura organlari xodimlari ham o'zlarining prokuror nazorati hujjatlarida Konstitutsiya normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llamoqdalar. Bu esa amaldagi Konstitutsiyamizni chinakam "Law in action", ya'ni harakatdagi qonunga aylantirdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 143-moddasida "O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi"[2] degan konstitutsiyaviy norma mustahkamlangan. Aynan mana shu fundamental qoida milliy huquq tizimimizda prokuraturaning o'rnini aniq belgilab beradi. Bu norma prokuraturaning nafaqat jinoiy ta'qib organi, balki butun davlat apparati va fuqarolar tomonidan qonun talablariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlovchi yagona, markazlashgan nazorat mexanizmi ekanligini anglatadi. Ushbu markazlashganlik prinsipi qonunchilikning respublikaning har bir nuqtasida bir xil qo'llanilishiga kafolat berib, huquqiy  plyuralizm va tartibsizlikning oldini oladi. Demak, prokuraturaning konstitutsiyaviy maqomi uning nazorat funksiyalarini boshqa davlat organlaridan mustaqil ravishda, faqat qonun asosida amalga oshirishini talab etadi va bu uning faoliyati samaradorligining asosiy garovidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlarning konseptual negizini "inson davlat uchun emas, davlat inson uchun xizmat qiladi" degan oliy gumanistik tamoyil tashkil etadi. Ushbu konstitutsiyaviy doktrina huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, prokuratura tizimining institutsional asoslari va funksional vazifalarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Natijada prokuratura organlarining bugungi kundagi qiyofasi va vazifalari inson huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, "inson va uning qonuniy manfaatlari uchun" degan qoida faoliyat mezoniga aylandi.

Ilgari prokuror nazorati asosan qonun buzilishi holatlarini tezkorlik bilan aniqlash va aybdorlarga nisbatan repressiv (jazolashga asosiy o'rin berilgan) choralar ko'rishga qaratilgan bo'lsa, endilikda asosiy e'tibor huquqbuzarliklarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish va fuqarolarning buzilgan huquqlarini samarali tiklashga qaratilmoqda. Bu yondashuv prokuratura faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilganligini oshiradi.

Mamlakatimizda hokimiyatlar bo'linishi prinsipida prokuratura organlarining ham o'rnini alohida qayd etish lozim. Zero, demokratik huquqiy davlatchilikning asosiy shartlaridan biri bo'lgan konstitutsiyaviy huquqdagi "o'zaro tiyib turish va muvozanat" tamoyili prokuratura tizimida ham o'z aksini

1 https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/guidelines-role-prosecutors#:~:text=11.,needs%20of%20justice%20require%20otherwise

2 https://lex.uz/docs/6445145

topgan. Shu oʻrinda alohida ta'kidlash zarur, qonunchiligimizga koʻra Bosh prokurorning buyruqlari va boshqa idoraviy hujjatlari Konstitutsiya va qonunlarga zid boʻlgan taqdirda, ular Konstitutsiyaviy sudning tegishli qarori asosida bekor qilinadi va bu orqali hokimiyat tarmoqlari oʻrtasidagi qonuniylik va muvozanat ta'minlanadi. Bu esa prokuratura faoliyatining oʻzi ham konstitutsiyaviy nazorat mexanizmi bilan qamrab olinganini koʻrsatadi.

Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan barcha davlat organlari singari prokuratura organlarining ham oldiga bir qator funksional vazifalar qoʻyildi. Xususan, Konstitutsiyadagi "huquqiy davlat" prinsipini izchil amalga oshirish boʻyicha Ekspertlik kengashi tuzildi va unga Bosh prokuror rahbarlikni amalga oshirdi. Bu prokuraturaning nafaqat nazoratchi, balki huquq ijodkorligi va ilmiy-ekspertlik yoʻnalishlarida ham muhim ishtirokchi ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Konstitutsiya va prokuratura organlarining oʻzaro izchil bogʻliqligini quyidagi islohotlar ham yaqqol koʻrsatib beradi.

Yangi Konstitutsiyada belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda prokuraturaning tuzilmasi qayta koʻrib chiqilib, bir qator yangi tarmoqlar tashkil qilindi. Masalan, ijtimoiy davlat sifatida xalqimizning ogʻirini yengil qilish, yangi ish oʻrinlari yaratish, kambagʻallikka qarshi kurashishga qaratilgan dasturlarimiz ijrosini izchil tashkil etish uchun Bosh prokuror oʻrinbosari lavozimi va maxsus boshqarma tashkil etilgan. Bu Konstitutsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar boʻyicha normalarining amaliy ijrosini ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy asosdir.

Shu bilan birga, bugungi kunda nafaqat poytaxt aholisini, balki butun mamlakat fuqarolarini xavotirga solayotgan ekologik muammolar, shuningdek atrof-muhit, tabiiy boyliklar va madaniy merosimizni asrash, uy-joy, ijtimoiy himoya, tibbiyot, ta'lim kabi sohalardagi islohotlarimizni davom ettirish va bu borada qonun buzilishiga murosasiz boʻlish – prokuratura xodimlarining konstitutsiyaviy burchi va eng asosiy vazifasidir. Ana shu huquqlarni amalga oshirilish kafolati sifatida prokuratura organlarining ham tarkibiy tuzilishi takomillashtirildi.

Bundan tashqari, korrupsiya holatlariga qarshi kurashishning ayrim masalalariga oid normalarning Konstitutsiyamizda aks etganligini alohida ta'kidlash zarur. Jinoyatchilik, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha yangicha va samarali mexanizmlar joriy etilmoqda. Prokuratura tizimida Korrupsiyaviy omillarni tahlil qilish boʻlimi faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

Prokuratura organlarini va ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish xususida soʻz borar ekan, shu oʻrinda A.A.Shamsiyevning fikrlarini keltirish oʻrinli. U inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni prokuratura organlariga asosiy vazifalar qatoriga yuklash hozirgi sharoitda prokuraturaning inson huquqlari sohasidagi rolining kuchayishini tasdiqlaydi, deb hisoblaydi[3].

Jamiyat hayotining barcha jabhalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilish, fuqarolarga qoʻshimcha qulayliklar yaratish hamda davlat boshqaruvi organlari faoliyatida tezkorlik va shaffoflikni kafolatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mazkur konsepsiya doirasida prokuratura organlari faoliyati samaradorligini oshirish va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida, tizimni 2030-yilga qadar raqamli transformatsiya qilishni nazarda tutuvchi "Raqamli prokuratura – 2030" strategiyasi ishlab chiqildi[4]. Ushbu strategiya mazkur sohadagi faoliyatni modernizatsiyalashning zamonaviy asosi boʻlib xizmat qiladi.

Endilikda Bosh prokuraturada "Raqamli prokuror" axborot tizimlari kompleksi joriy etilib, davlat organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular qabul qilayotgan hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligini masofaviy nazorat qilish imkoniyati yaratildi.

Oʻzbekistonda konstitutsiyaviy qonuniylikni mustahkamlash jarayonida prokuratura organlari muhim oʻrin egallab, yangi tahrirdagi Konstitutsiya ularning vakolat va vazifalarini zamonaviy talablar asosida kengaytirdi. Prokuratura faoliyati endilikda faqat jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan cheklanmay, inson huquqlarini himoya qilish, davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash,

---

3 Шамсиев А.А. *Особенности прокурорского надзора за соблюдением прав и свобод человека при производстве предварителного расследования* // Журнал правових исследований, - 2018 г., №10, - С. 6.

4 https://lex.uz/docs/7813706?ONDATE=05.11.2025

ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sohalarda huquqiy nazoratni kuchaytirishga qaratilmoqda.

Yangi tuzilmalarning tashkil etilishi, korrupsiya xavflarini oldindan aniqlash mexanizmlarining joriy qilinishi va raqamli nazorat tizimlarining ishga tushirilishi prokuraturaning zamonaviy, ochiq va profilaktikaga asoslangan institut sifatida shakllanishiga xizmat qildi.

Xalqaro standartlarga uyg‘un holda prokuratura tizimini takomillashtirish qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda huquqiy davlat barpo etishga xizmat qilmoqda. Shu bois prokuratura organlari davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda strategik ahamiyatga ega institut sifatida o‘z rolini yanada mustahkamlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, prokuratura organlarining konstitutsiyaviy qonuniylikni amalga oshirishdagi ishtiroki – faqat nazorat va tekshiruvlardan iborat emas. U avvalo qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish va davlat organlari faoliyatida qonuniylik prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Prokuratura organlarining institutsional salohiyatini kuchaytirish, konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash – Yangi O‘zbekistonda huquqiy davlatchilikni mustahkamlashning muhim shartidir.

#

**Mirzayusup RUSTAMBAYEV,**
**Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor,**
**O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist**

# PREZIDENT TASHABBUSI, XALQ IRODASI – YANGILANGAN KONSTITUTSIYA ASOSI

***ANNOTATSIYA.*** *Ushbu maqola Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashubbusi va xalq irodasi bilan yangilangan Konstitutsiyaning qabul qilinishi va o‘tgan qisqa vaqt mobaynida amaliy ijrosiga bag‘ishlangan. Maqolada Konstitutsiya normalarining bajarilishi yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning samarasi, davlat organlarining Konstitutsiya asosida inson qadrini ulug‘lash yuzasidan olib borayotgan chora-tadbirlari to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar o‘z aksini topgan.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В данной статье рассматриваются принятие обновлённой Конституции по инициативе Президента Шавката Мирзиёева и по воле народа, а также её практическая реализация за прошедший краткий период. В статье отражены аналитические сведения о проводимых реформах, направленных на выполнение конституционных норм, их эффективности, а также о мерах государственных органов, осуществляемых на основе Конституции в целях возвышения ценности человека.*

***ABSTRACT.*** *This article discusses the adoption of the renewed Constitution based on the initiative of President Shavkat Mirziyoyev and the will of the people, as well as its practical implementation during the short period that has passed. The article presents analytical information on the reforms carried out to implement constitutional provisions, their effectiveness, and the measures taken by state bodies aimed at upholding human dignity in accordance with the Constitution.*

***Kalit so‘zlar:*** *yangi tahrirdagi Konstitutsiya, inson qadri, Uchinchi Renessans, ijtimoiy himoya, ijtimoiy davlat, inson huquqlari, inklyuziv ta’lim, institutsional muassasalar, gender tengligi.*

***Ключевые слова:*** *Конституция в новой редакции, ценность человека, Третий Ренессанс, социальная защита, социальное государство, права человека, инклюзивное образование, институциональные учреждения, гендерное равенство.*

***Key words:*** *new edition of the Constitution, human dignity, Third Renaissance, social protection, social state, human rights, inclusive education, institutional structures, gender equality.*

Yangilangan Konstitutsiya – Yangi O‘zbekiston siyosiy va huquqiy irodasini ifoda etayotgan, inson qadri va huquqlarini oliy qadriyat sifatida himoya qilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilinayotgan, tom ma’noda xalq xohishining qonun shaklidagi ifodasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, Bosh qomusimiz millatning orzu-umidlari aks etgan, adolatni ta’minlovchi asosiy hujjat bo‘lib, adolat esa jamiyatning mustahkam ustunidir.

Ulug‘ mutafakkirlardan Alisher Navoiyning “Podshohning suvrati qonun, qonunning ruhi adolatdir. Adolat – mamlakat ravnaqining bosh mezonidir”, Farobiyning “Qonun adolatga xizmat qilsa, jamiyatni saodatga etaklaydi”, Ibn Sinoning “Adolat – har qanday oliy hujjatning ruhidir” degan hayotiy so‘zlari davlatchilik taraqqiyotida qonun ustuvorligi, oliy qomusning nechog‘lik ulkan ahamiyat kasb etganligining in’ikosidir.

Xalqimizning xohish-irodasi, siyosiy madaniyati va tashabbuskorligi mahsuli bo‘lgan yangilangan Konstitutsiya qabul qilinganiga ikki yildan oshdi. Ahamiyatli jihati, unga kiritilgan har bir o‘zgartish va qo‘shimchalar o‘tgan vaqt davomida amaliy ifodasini ko‘rsatib, hayotiy ehtiyoj va muammolarga mustahkam huquqiy yechim bo‘lmoqda, bugungi tezkor o‘zgarishlar, global tendensiyalar va xalqimizning orzu-istaklarini o‘zida mujassam etib, mamlakatimizning taraqqiyot sur’atiga munosib huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi renessansni barpo etish yo‘lida mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi” degan fikrlari ham Bosh qomusimiz hozirgi va kelajak avlod oldidagi nechog‘lik zaruriy va hayotiy hujjat ekanligi belgisidir[1].

Shu jihatdan Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan g‘oyalar va yangilanish ruhining amalda namoyon bo‘layotgani mamlakat taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi.

1 *Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi renessansni barpo etish yo‘lida mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.* O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari a’zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi // https://president.uz/uz/lists/view/6277

Shu jarayonda yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlatning asosiy qomusi sifatida zamon talablariga mos holda jamiyat rivojining tabiiy va hayotiy zaruratiga aylandi.

Bugun Konstitutsiya ijro bosqichida, har bir modda, norma yoki qoida to‘laqonli mexanizm sifatida ishlamoqda. Konstitutsiya muqaddimasida uni davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib qabul qilganimiz yozib qo‘yilgan.

Joriy yilda Samarqand shahrida o‘tkazilgan YUNESKOning 43-sessiyasi doirasidagi xalqaro anjumanda Samarqand tarixi qayta baholangani, ilmiy dalillar va arxeologik topilmalarga asoslangan xulosaga ko‘ra, shaharning tarixi ilgari aytilgandek 2750 yil emas, balki uch ming yildan ham qadimroq ekani tasdiqlangani hamda dunyo madaniyati markazi sifatida yana bir bor tan olinishi yuqoridagi fikrlarning amaliy ifodasidir.

Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, 1985-yildan buyon ilk marta Parijdan tashqarida o‘tkazilgan YUNESKOning Samarqand sammiti O‘zbekiston davlatchilik tarixidagi muhim siyosiy va madaniy voqelik bo‘lib, ushbu yirik tadbirda dunyoning 194 ta mamlakatidan prezidentlar, hukumat rahbarlari, ilm-fan, ta’lim va madaniyat sohalari ekspertlari ishtirok etgani, 20 dan ortiq xalqaro tashkilot vakillari jam bo‘lgani dunyo jamoatchiligining O‘zbekistonga bildirgan ishonchi va hurmatining yorqin dalili bo‘ldi[2].

Joriy yilning 21-noyabrida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘ttiz uch yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, fuqarolarni unda belgilangan ezgu qadriyatlar atrofida birlashtirish, **“Konstitutsiya — inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!”** degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan ma’naviy-ma’rifiy hamda boshqa tadbirlarni samarali tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi qabul qilinib, bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish dasturi tasdiqlandi. Unda madaniy-ma’rifiy hamda huquqiy targ‘ibot tadbirlarini, aholining barcha qatlamlari o‘rtasida Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini targ‘ib etish ma’rifat oyligini o‘tkazish hamda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan[3].

Yangilangan Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalar 3 barobarga ko‘paytirilgan bo‘lib, ijtimoiy davlat modelini amalga oshirish mexanizmlari izchil tatbiq etib kelinmoqda. Bu borada “Inson qadri uchun” degan tamoyil ustuvor bo‘lgan, ijtimoiy adolat ta’minlangan, aholining ehtiyojmand qatlamlari samarali himoya qilingan, kambag‘allik darajasini minimum darajaga tushurishga erishilayotgan ijtimoiy davlat barpo etish yo‘lida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra dunyoda 2015-yildan buyon global iqtisodiy o‘sish sur’ati o‘rtacha 3 foizni tashkil etib, oldingi o‘n yillikka nisbatan sekinlashish kuzatilmoqda. Agar besh yil oldin dunyoda 650 million aholi kambag‘allikda yashagan bo‘lsa, bugun ularning soni 800 milliondan oshdi. Shu boisdan ham 2030-yilgacha global miqyosda kambag‘allikka barham berish BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining birinchisi sifatida belgilab olingani ham bejiz emas[4].

Jahonda shunday tendensiya kuzatilayotgan bir sharoitda kambag‘allikni kamaytirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, bu boradagi islohotlar o‘z samarasini bera boshladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash eng muhim vazifa sifatida belgilanib, bu borada barcha shart-sharoitlarni yaratishga, ayniqsa muhtoj qatlamga maqsadli ko‘mak berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, buyuk alloma Bahovuddin Naqshbandning *“Peshvo bo‘lsang, xalqning og‘irini ko‘tar. Shu bilan davlatning ruhi tirik bo‘ladi”* degan so‘zlari hayotiy haqiqatdir.

Birgina misol, oxirgi yillarda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishilgani, ya’ni 7,5 million aholi kambag‘allikdan chiqarilgani hamda bu boradagi islohotlarning izchil davom ettirilayotgani ijtimoiy davlat tamoyilining amaliy natijasi bo‘lmoqda. Shu bilan birga, oxirgi 7-8 yil ichida iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sgani, joriy yil yakuni bilan aholi jon boshiga daromad

2 Dunyo nigohi yana Samarqandda: YUNESKOning tarixiy konferensiyasi va O‘zbekistonning undagi roli // https://daryo.uz/uz/2025/10/28/unesco-samarkand/

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-noyabrdagi F-60-son farmoyishi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida // https://www.lex.uz/uz/docs/7851449

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon sammitidagi nutqi // https://president.uz/uz/lists/view/8623

3,5 ming dollarga yetishi bu borada muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda[5].

Bugungi kunda mamlakatimizda 667 308 ta kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam uchun 3 mlrd., 245 243 ta oilaga elektr energiyasi va tabiiy gazni bazaviy me’yordan ortiq qilgan iste’moli va kompensatsiyalar uchun 40 mlrd., 9 411 ta oilaga homiladorlik va tug‘ish nafaqasi uchun 24 mlrd. so‘mdan ziyod mablag‘lar ajratilgani ijtimoiy himoyaning amaliy natijalari hisoblanadi[6].

Shu bilan birga, nogironligi bo‘lgan 1 061 300 nafar shaxslarga hamda 37 424 nafar o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yakka-yolg‘iz hamda yolg‘iz yashaydigan keksalarga tizimli ravishda ko‘mak berib kelinmoqda. Shuningdek, 2024-yilning dekabr oyidan boshlab yangi tayinlangan 9 turdagi ijtimoiy to‘lovlar oluvchi shaxslarga ijtimoiy karta taqdim etilmoqda. Bu o‘z navbatida ortiqcha vaqt va ovoragarchiliklarning oldini olishga hamda tezkorlik va shaffoflikka xizmat qiladi.

Yuqoridagi islohotlarni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadida imkoniyati cheklangan aholining kambag‘allikka tushib qolish ehtimoli yuqori ekanligidan kelib chiqqan holda ularni qo‘llab-quvvatlash, inklyuzivlik asosida jamiyatga integratsiya qilish bo‘yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqildi.

Ularga munosib mehnat sharoitini yaratish bo‘yicha tizimli ishlar natijasida joriy yilda nogironligi bo’lgan 150 ming nafar shaxs ishga joylashdi. Shuningdek, ularga hayotiy zarur tibbiy jihozlar, kolyaska va protezlar bepul yetkazib berilmoqda.

Bugungi kunda mahallalarni obod qilish, odamlar hayotini yaxshilash va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga har yili 2,5-3 milliard dollar yo‘naltirilmoqda. Bu o‘z navbatida, aholi farovonligini mustahkamlash, turmush sifatini yanada oshirishga olib kelmoqda.

Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda global ishsizlik darajasi 5 foizni tashkil etib, yuqori texnologiyalar, sun’iy intellektning jadal kirib kelayotgani natijasida dunyoda millionlab ish o‘rinlarining yo‘qotilishi kuzatiladi. Shu boisdan ham mavjud tahlillarga asoslangan holda kelgusida faol iqtisodiy va investitsiya siyosatini amalga oshirish maqbul yo‘l hisoblanadi.

O‘zbekistonda bu boradagi tizimli ishlar tufayli joriy yilning o‘zida 35 milliard dollar sarmoya evaziga 9 mingdan ortiq yangi korxona, 300 mingga yaqin yuqori daromadli ish o‘rni tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, qulay ishbilarmonlik muhiti hisobiga o‘tgan sakkiz yilda 700 ming tadbirkor o‘zining barqaror biznesiga ega bo‘ldi. Eng muhimi davlat tomonidan biznesga sharoit yaratib berilyapti, tadbirkorlar esa o‘ziga ijtimoiy mas’uliyat olib, ehtiyojmand aholini ishli va daromadli qilishda ko‘makchi bo‘lmoqda. Mana shunday samarali hamkorlik tufayli shu yilning o‘zida 270 mingdan ziyod kambag‘al oila a’zosi doimiy ishli bo‘lganligi fikrimizning tasdig‘idir.

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda yurtimizda IT, sun’iy intellekt, fintex kabi odamlarga yuqori daromad keltiradigan sohalarda startaplar ekotizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Joriy yil boshidan buyon startaplarga 270 million dollar yoki o‘tgan yilga nisbatan 4 barobar ko‘p xorijiy investitsiya kiritildi. Bu yo‘nalishdagi ishlar yanada kuchaytirilib, birgina Jahon banki bilan hamkorlikda qiymati 100 million dollar bo‘lgan yangi loyihalar paketi o‘z ishini boshlamoqda[7].

Bir so‘z bilan aytganda, Asosiy qonunimizning o‘zgarmas birinchi moddasida belgilab qo‘yilgan ijtimoiy davlatning barcha shakl va tamoyillarini sifatli amalga oshirish birinchi darajali ustuvor vazifa sanaladi. Ayniqsa, ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi sifatida barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash Konstitutsiya asosida mustahkamlangan ekan, bu boradagi barcha imkoniyatlar ishga solinadi va har bir islohot sifatli va samarali amalga oshiriladi.

Yangilangan Konstitutsiyada ta’lim to‘g‘risidagi normalarning kengayishi va mukammallashtirilishi ta’lim imkoniyatlari, ijtimoiy adolat hamda kelajakka investitsiyaning konstitutsiyaviy kafolati bo‘lib, har bir fuqaroga, jumladan, kam ta’minlangan yoshlarga ta’lim olish imkoniyatlarini oshirgani, ta’lim sifatini va ilmiy salohiyatni rivojlantirishga zamin yaratgani bilan ham ahamiyatlidir. Zero, dunyoda ta’lim olishga, ilm-fan infratuzilmasini yaxshi-

5 Kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab olindi // https://president.uz/uz/lists/view/8691

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma’lumotlari // https://ihma.uz/agency/social-protection

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kambag‘allikdan farovonlik sari” mavzusidagi III xalqaro forumning ochilish marosimida so‘zlagan nutqi // https://president.uz/uz/lists/view/8500

lashga bo'lgan ehtiyoj har qachongidanda yuqori bo'lib, kelajak avlodni intellektual jihatdan barqaror bo'lishi eng dolzarb hayotiy zarurat hisoblanadi. Xalqaro ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, dunyoda savodsizlikning yillik iqtisodiy zarari 1,4 trillion AQSH dollarini tashkil etadi. Bu esa kelajakda dunyo mamlakatlari taraqqiyotiga o'nglanmas salbiy ta'sir ko'rsatishi kunday ravshan.

Shundan kelib chiqqan holda davlatimiz rahbari tomonidan barcha uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish ijtimoiy muammolarni hal qilishning eng samarali yo'li sifatida belgilanib, uzluksiz ta'lim tizimiga e'tibor tubdan o'zgarib, bu borada yangi davr boshlandi. O'tgan sakkiz yil ichida qariyb 500 ta yangi umumta'lim maktabi barpo etilgani, oliy o'quv yurtlarining soni 77 tadan 202 taga, talabalar soni esa 250 mingdan 1,5 millionga yetgani, Prezident maktablari, buyuk olim va mutafakkirlar nomlari bilan ataladigan ijod maktablari faoliyat ko'rsatayotgani bu boradagi muhim natijalar hisoblanadi.

Bunga keyingi sakkiz yilda yurtimizda ta'lim va ilm-fan uchun xarajatlar 6 karra oshirilib, 378 trillion so'mni tashkil etgani, yuzlab yangi bog'chalar, maktab, texnikum va oliygohlar qurilgani, ta'lim va ilm dargohlarini zamon talablari asosida jihozlash, ustoz va murabbiylarning mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan dasturlarimiz, bir so'z bilan aytganda, mas'uliyatli va mashaqqatli mehnat asosida erishilgani kunday ravshan. Agar aniq raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda qisqa muddatda maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini 5200 dan 38 mingtaga, qamrov darajasining 27 foizdan 78 foizga yetganini, tarbiyachilar maoshi maktab o'qituvchilari oyligiga tenglashtirilgani, ushbu muassasalardagi rahbar va pedagoglar maoshi qariyb 2 barobar oshirilganini ta'kidlash lozim.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilib, miqdor va sifat jihatdan ilgari kuzatilmagan ijobiy ko'rsatkichlar qayd etilmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-2025 o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasining 18-23 yoshdagi aholisini oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 47,7 foizni tashkil qilgan. Mazkur raqamlar o'n yil oldin, ya'ni 2014-yil bilan solishtirilganda 40,9 foizga oshgan. Aniqrog'i ushbu ko'rsatkich 2014-yilda 6,8 foizni, 2015-yilda esa 7 foizni tashkil etgan xolos.

Yuqorida qayd etilganidek, mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari soni bugungi kunda 200 dan ortiq bo'lib, taqqoslash uchun 2024-yil holatiga ko'ra qo'shnilarimiz Qozog'istonda 113 ta, Qirg'izistonda 61 ta, Tojikistonda 27 ta, Turkmanistonda 23 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan. Bu davrda xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni qariyb 4,5 barobarga oshgani hamda nodavlat o'quv yurtlari tashkil qilishga keng imkoniyatlar yaratilgani ham islohotlarning uzviy davomidir.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyati bosqichma-bosqich ravishda xalqaro e'tiroflarga sazovor bo'lib, xalqaro akkreditatsiyaga ega ta'lim dasturlari ham joriy etilmoqda. 2025-yilda O'zbekistondagi 23 ta oliy ta'lim muassasasi QS (Quacquarelli Symonds) xalqaro reytingining Markaziy Osiyodagi top universitetlar ro'yxatidan o'rin olgan bo'lsa, "Times Higher Education Impact Rankings" natijalariga ko'ra 2024-yilda O'zbekistondagi 53 ta oliy ta'lim muassasasi ushbu global reytingga kiritildi va ulardan 7 tasi "Top-1000" ta oliy ta'lim muassasasi reytingidan joy oldi.

Ahamiyatli jihati shundaki, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida o'qishga xorijiy mamlakatlar talabalarida ham ehtiyoj yuqori bo'lib, 2024-yilda O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni 12,5 ming kishini tashkil qildi va 2017/2018 (1,3 ming nafar) o'quv yilidagiga nisbatan 9,6 barobar oshdi.

Bu borada talabalar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar ham tobora sifat bosqichiga kirib bormoqda. Xususan, birgina 2024-yilning o'zida 27,3 ming o'rinli talabalar turar joyi barpo etilgani hamda turar joyga joylashish tizimi to'liq raqamlashtirilgani ham amaliy natijadir.

Albatta, yuqoridagi raqamlar Konstitutsiyamizda oliy ta'lim uchun kafolatlangan huquqlar va ularning rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, dual ta'limning keng joriy etilishi, masofaviy ta'limning yo'lga qo'yilishi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilayotgani ta'lim sifatining yaxshilanishiga samarali ta'sir o'tkazmoqda.

Konstitutsiyaning 50-moddasining "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" degan bandidan kelib chiqqan holda imkoniyati cheklangan bolalarni maktab va kasbiy ta'lim bilan qamrab olish uchun alohida dasturlar amalga oshirilyapti. Xususan, Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Xalqaro inklyuziv hab tomonidan birinchi inklyuziv kasbiy ta'lim dasturlari yo'lga qo'yildi.

Bepul dasturlar jismoniy, hissiy yoki kognitiv xususiyatlaridan qat'i nazar, har bir talabaning o'ziga xosligi va ehtiyojlarini hisobga oladigan universal o'qitish metodi asosida qurilgan[8].

Ma'lumot o'rnida, birgina 2025-yilning o'zida nogironligi bo'lgan bolalarni ta'limga jalb etish, ijtimoiy xizmat ko'rsatish orqali ularning ulushini 78 foizdan 82 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Joriy yilda 14 505 nafar bola inklyuziv ta'lim bilan qamrab olindi.

Konstitutsiyaning 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi qayd etilgan. Mazkur normalarning hayotda o'z ro'yobini topishida ham so'nggi yillarda maqsadli ishlar olib borilmoqda.

YUNESKO statistika instituti ma'lumotlariga ko'ra, jahonda ilmiy va madaniy muassasalar rahbarlarining 25 foizi, ta'lim sohasi boshqaruvchilarining 30 foizi, tadqiqotchilarning 33 foizi xotin-qizlardir. Bu esa ayollar huquqlarini ta'minlashda, afsuski, tengsizlik hamon saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi.

Shu jihatdan xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to'liq ta'minlash, ularning qadr-qimmatini ulug'lash Yangi O'zbekistonning davlat siyosatida yetakchi o'ringa qo'yilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda xotin-qizlarning turli soha va tarmoqlarda vatanimizning jadal taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shayotganlari alohida e'tirofga sazovordir. Masalan, 2017-yilda boshqaruv sohasida xotin-qizlar o'rtacha 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozirda bu raqam 35 foizga yetdi. Hozirgi vaqtda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizini, Senat a'zolarining 27 foizini ayollar tashkil etmoqda[9].

Ayniqsa, xotin-qizlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish yo'lida amalga oshirilgan sa'y-harakatlar natijasida yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining 52 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. 2024-yilning o'zida magistraturada o'qiyotgan 15 mingga yaqin xotin-qizlarga 100 milliard so'mga yaqin kontrakt puli to'lab berildi.

Hozirgi vaqtda 6 200 nafardan ortiq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgani, ilmiy ishlanmalarning 25 foizini olima ayollarimiz yaratayotgani ham jamiyatda ularning o'rni mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Ularning orasida xalqaro darajada e'tirof etilayotgan ilm-fan vakillarining borligi barchamizga cheksiz faxr-iftixor bag'ishlaydi, yoshlarimizni yangi-yangi yutuqlarga undaydi.

Joriy yilning o'zida 1 million 700 ming ayol ish bilan ta'minlangani quvonarli natijadir. Kelgusida bu kabi ishlar qat'iy ravishda davom ettirilib, "Raqamli avlod qizlari" dasturi doirasida 50 ming nafar qizlarni IT, fintex va sun'iy intellektga o'qitish ko'zda tutilgan.

Umuman olganda, gender tenglikni ta'minlash maqsadida 2021-yilda "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" qabul qilinib, jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo'llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish ko'zda tutildi.

Ahamiyatli jihati, Konstitutsiya normalaridan kelib chiqqan holda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularni tazyiq va zo'ravonlikdan muhofaza qilish tizimi takomillashtirildi. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan yoki jabrlanish xavfi ostida bo'lgan xotin-qizlarga himoya orderi talab etmagan holda ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmat ko'rsatish tartibi joriy etildi.

Yangilangan Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari, huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq bir qator normalar hayotda o'zining amaliy ifodasini topib kelmoqda. Bu borada Konstitutsiya yangi normalarining ijro ma'lumotlari sifatida quyidagilarni alohida qayd etish maqsadga muvofiq.

***Birinchidan***, Konstitutsiyaning 15-moddasidagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi" degan normadan kelib chiqqan holda davlat organlari, ayniqsa, sudlar tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyani bevosita qo'llagan holda qarorlar qabul qilish amaliyoti joriy etildi. Xususan, sud amaliyoti tahlili Konstitutsiya va uning moddalariga jinoyat ishlari bo'yi-

8 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/6445145

9 Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyati sarhisob qilindi // https://uza.uz/uz/posts/oila-va-xotin-qizlar-qomitasi-faoliyati-sarhisob-qilindi_738808

cha sudlarning 73 242 (2023-yilga nisbatan 4,8 baravar ko'p), fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning 25 083 (2023-yilga nisbatan 5,6 baravar ko'p), iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlarning 30 301 (2023-yilga nisbatan 13,6 baravar ko'p) hamda ma'muriy ishlar bo'yicha sudlarning 8 837 (2023-yilga nisbatan 13 baravar ko'p) hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri havola qilganliklarini ko'rsatmoqda[10].

***Ikkinchidan***, Konstitutsiyaning 20-moddasida inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilangan bo'lib, mazkur norma ham inson huquqlari himoya qilinishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bu borada davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va bu borada samarali nazorat tizimini o'rnatishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni va uning ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi.

***Uchinchidan***, 2024-yilda Konstitutsiyaning 20, 26–28-moddalarida insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligi, shaxsning sudlanganligi uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligiga oid kafolatlar kuchaytirildi. Xususan, qarindoshining sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish va uni o'tash chog'ida fuqarolar huquqlarini cheklash uchun asos bo'lmasligi belgilandi.

***To'rtinchidan***, bolalar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan oilaviy zo'ravonlik sodir etganlik uchun javobgarlikning kuchaytirilishi, shuningdek, "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi ham Konstitutsiyaning 78-moddasida belgilangan bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlatning zimmasidagi majburiyatini ta'minlaydi.

***Beshinchidan***, Konstitutsiyaning 28-moddasiga muvofiq ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar huquqlarini kafolatlash maqsadida ularning Oliy Majlisning Inson huquqlari va Bola huquqlari bo'yicha vakillariga, inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilish, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning saylov va referendumda ishtirok etish huquqlari mustahkamlandi. Mahkumlarning ozodlikdan mahrum qilingan davrda amalga oshirgan faoliyati davrini pensiya olish huquqini beradigan faoliyat turi sifatida hisobga olish tartibi joriy etildi.

***Oltinchidan***, o'tgan davrda Konstitutsiyaning 43-moddasida mustahkamlangan davlatning kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rish bo'yicha majburiyati doirasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, har bir fuqaroni o'zi va farzandlari kelajagi uchun mas'uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi "Kambag'al oilalar uchun ettita imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili asosida amalga oshirilmoqda. Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oila a'zosi uchun ijtimoiy soliq 3 yil 1 foiz stavkada to'lanishi belgilandi.

***Yettinchidan***, Konstitutsiyaning 48-moddasiga muvofiq har kimning sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi kafolatlangan, davlat sog'liqni saqlash tizimini, tibbiy sug'urtani rivojlantirish choralarini ko'rishi mustahkamlangan.

Buning isboti sifatida qayd etish lozimki, so'nggi yillarda tibbiyot sohasining o'ziga 230 trillion so'm yo'naltirilib, joylarda 187 ta yangi poliklinika va shifoxona ishga tushdi, 1 ming 244 tasi rekonstruksiya qilinib, jihozlandi. Natijada birlamchi tibbiyot muassasalari quvvati 60 foizga oshib, tibbiy xizmat aholiga ancha yaqinlashdi. Ilgari asosan poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik va diagnostika-davolash usullarining 400 dan ortig'i hududlarda amalga oshirilmoqda. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami bo'yicha xalqaro tajribaga asoslangan yangi model joriy etilmoqda. Qisqa muddatda hududlarimizda 490 ta muassasa qayta tashkil etilib, yuridik maqomga ega bo'lgan 350 ta mustaqil oilaviy poliklinika faoliyati yo'lga qo'yildi.

Pirovardida mamlakatimiz aholisining turmush sharoitlari yaxshilanib, yurtimizda o'rtacha umr davomiyligi erkaklar o'rtasida 71 dan 73 yoshga, xotin-qizlar orasida esa 76 dan 77,5 yoshga uzayganini ulkan natija sifatida e'tirof etish lozim.

10 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2024-yilda mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risidagi axboroti // http://www.konstsud.uz/uz

Muqaddima qismida Konstitutsiyani O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilgan holda qabul qilganimiz qayd etilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishi belgilab qo'yilgan.

Shu jihatdan keyingi yillarda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyusiyasi qabul qilindi. O'zbekiston EKOSOS, Inson huquqlari bo'yicha qo'mita, Statistika komissiyasi kabi nufuzli tuzilmalarga a'zo etib saylandi.

Joriy yilning o'zida O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risida tarixiy bitim imzolandi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi mintaqa mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tardi. 2024-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 10,7 milliard AQSH dollariga yetdi. Mintaqamizga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 17 foizga ko'paydi. Shu bilan birga, "Markaziy Osiyo plyus" formatidagi munosabatlar kuchaydi. Mintaqamiz nufuzli xalqaro maydonlarda yagona pozitsiyani namoyon etmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash o'rinliki, Konstitutsiya Yangi O'zbekistonning huquqiy asosini mustahkamlaydi va mamlakatning demokratik rivojlanishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda asosiy hujjat sifatida xizmat qiladi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning davlat hayotida ishtirokini kuchaytirish, inson huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy adolatni himoya qilishda asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Bu esa barqaror taraqqiyot va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#

**Rustam XATAMOV,**
**Ichki ishlar vazirligi akademiyasi boshlig'i,**
**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**

# YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA TARAQQIYOTIMIZNING MUSTAHKAM ASOSI

***ANNOTATSIYA.*** *Ushbu maqolada mamlakatimizda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi avvalo shaxs huquqlari ustuvorligini ta'minlashga, inson huquqlariga oid ilmiy-nazariy qarashlar, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini yanada rivojlantirishga xizmat qilayotgani haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В данной статье представлена подробная информация о том, что принятие Конституции в новой редакции в нашей стране служит, прежде всего, обеспечению приоритета прав личности, а также дальнейшему развитию научно-теоретических взглядов на права человека, правотворчества и правоприменительной практики.*

***ABSTRACT.*** *This article provides detailed information on how the adoption of the new Constitution in our country, first of all, serves to ensure the primacy of individual rights, further develop scientific and theoretical views on human rights, legal creativity, and the practice of law enforcement.*

***Kalit so'zlar:*** *inson qadri, inson huquq va erkinliklari, davlat organlari va mansabdor shaxslar, huquqni qo'llash, huquqiy ta'sir choralari.*

***Ключевые слова:*** *человеческое достоинство, права и свободы человека, государственные органы и должностные лица, правоприменение, правовые меры.*

***Key words:*** *human dignity, human rights and freedoms, government agencies and officials, law enforcement, legal measures.*

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish va huquqiy jihatdan rivojlantirishda mustahkam asos yaratdi. Avvalgisidan farqli o'laroq, uning g'oyasi inson sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lash, jamiyatda shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to'laqonli ta'minlashga qaratildi.

Davlatimiz rahbari aytganidek, inson qadri deganda, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berish tushuniladi[1].

Shu nuqtayi nazardan Bosh qomusimizda inson huquq va erkinliklari kafolatlariga oid mutlaqo yangi mexanizmlarning belgilangani qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotiga yangicha yondashuvlar joriy qilishni taqozo etadi. Uning 15-moddasidagi Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilish qoidasi huquqni qo'llash amaliyotida shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlash samaradorligini yanada oshirishga zamin yaratadi[2].

Asosiy qonunning 20-moddasida belgilangan inson huquqlari ustuvorligiga oid qoidalar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, ushbu moddaning uchinchi qismida "Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi" deb belgilab qo'yildi.

Mohiyatan ushbu norma inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlat organlari va mansabdor shaxslarning asosiy majburiyati ekanligini ham anglatadi. Bu esa davlat organlari xodimlarida inson huquqlari madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Shu vaqtga qadar asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlarida inson huquqlari madaniyatini shakllantirishga urg'u berilgan bo'lsa, endilikda esa barcha davlat xizmatchilarida inson huquqlariga rioya etish madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Bu ham "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan konsepsiyaning hayotga to'la tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Shu vaqtga qadar normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, qonunlarning asosiy funksiyasi ijti-

1 Shavkat Mirziyoyev: Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz // https://president.uz/uz/lists/view/4942

2 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri, O'zR 30.04.2023-y. referendumda qabul qilingan, O'zR 01.05.2023-y. O'RQ-837-son Konstitutsiyaviy qonuniga muvofiq tasdiqlangan). https://lex.uz/docs/6445145

moiy munosabatlarni tartibga solish bo‘lgan bo‘lsa, endilikda esa inson huquq va erkinliklarini ifodalash ham ularning ajralmas funksiyalaridan biriga aylandi.

Bundan tashqari, 20-moddadagi davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerakligi haqida shaxsga qo‘llaniladigan barcha huquqiy ta’sir choralarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 22-moddasiga ko‘ra, ma’muriy jazoning maqsadi ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, ana shu huquqbuzarning o‘zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish hisoblanadi[3]. Demak, ma’muriy jazo profilaktika uchun qo‘llaniladi.

Konstitutsiyamizning mazkur moddasida inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilab qo‘yilgan. Tabiiyki, bu qoida ham inson huquq va erkinliklarini ta’minlash sohasida yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Negaki, bunga qadar huquqni qo‘llovchilarda qonundagi bo‘shliqlar yoki ziddiyatlar mavjud bo‘lganda huquqni qo‘llash bo‘yicha aniq kompetensiyalar shakllanmagan. Qonun bilan tartibga solinmagan holda qanday harakat qilish kerak yoki qonunlardagi ziddiyatlarda qanday yo‘l tutish lozim degan masalada huquqshunoslik fanida ham turli yondashuvlar ko‘zga tashlanayotgan edi. Natijada o‘zaro teng yuridik kuchga ega normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovutlar bo‘lgan taqdirda ularning qaysi biri inson foydasiga xizmat qilsa unga amal qilinishi to‘g‘risidagi qoidani rivojlantirish uchun yetarlicha asos yaratildi.

Konstitutsiyaning 21-moddasida belgilangan insonning huquq va erkinliklarini cheklash chegaralari bu boradagi muhim qarorlardan sanaladi. Xususan, insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin. Demak, inson huquqlarini cheklash bilan bog‘liq qonunlar yuqoridagi asoslarga tayanmog‘i lozim. Shu bilan birga, huquqni qo‘llash amaliyotida ham inson huquqlarini cheklashda Konstitutsiya doirasida harakatlanish lozim bo‘ladi.

Inson huquqlarini cheklash masalasi faqat qonunlarda belgilangan bo‘lishi vazirlik, idora va tashkilotlarning hujjatlari inson huquqlarini cheklash uchun asos hisoblanmaydi. Ya’ni inson huquqlarini cheklash belgilangan qonunlar ijrosi yuzasidan qabul qilinayotgan qonunosti hujjatlari tegishli qonunlarda nazarda tutilganidan tashqari boshqa asoslarga tayanmasligi kerak.

Eng e’tiborlisi, jinoyat-protsessual munosabatlarda shaxs huquqlarini himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslari yanada kengaydi va mustahkamlandi. Xususan, insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi, zo‘ravonlik va qiynoq holatlarining oldini olish, “Miranda qoidasi”, “Xabeas korpus” instituti, aybsizlik prezumpsiyasi, davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga oid masalalar Konstitutsiya darajasida belgilab qo‘yilishi surishtiruv, tergov, sud hamda jazoni ijro etish jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Shaxsiy hayotning daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqining konstitutsiyaviy asoslari yanada kengaytirildi. Xususan, har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega ekanligi ilk bor va Konstitutsiya darajasida belgilab qo‘yilishi fuqarolik, ma’muriy va jinoyat protsessida vakolatli organlarga yangi majburiyatlarni yuklaydi.

Yangilangan Konstitutsiyada axborotga ega bo‘lish erkinligi kengaytirildi. 33-moddada davlat internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilangan. Xalqaro huquq prinsiplariga ko‘ra, internetga kirish huquqi insonning ajralmas huquqlaridan biri sifatida tan olinadi. Shuningdek, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashning

3 O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (O‘zR 22.09.1994-y. 2015-XII-son qonun bilan tasdiqlangan). https://lex.uz/docs/97664.

aniq asoslari belgilab qo‘yilishi ham aslida axborot erkinligi uchun xizmat qiladi. Nega deganda, ma’muriy organ istalgan vajni keltirgan holda axborot olishni cheklashi mumkin. Endilikda axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek, davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi. Mazkur qoida davlat organlari faoliyatida ochiqlikni ta’minlash hamda fuqarolarga ular tomonidan so‘ralgan axborotni taqdim etishda idoraviy manfaatlarni ro‘kach qilishning oldini olishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning amal qilishida uni qanday tushunish va talqin qilish ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyaning inson huquqlariga oid normalarini lingvistik jihatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunish uning qo‘llanish sohasini toraytirib qo‘yadi. Masalan, 30-moddadagi “hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas” degan normadagi “jinoyat” tushunchasini faqat Jinoyat kodeksi nuqtayi nazaridan tushunadigan bo‘lsak, unda ma’muriy, intizomiy, soliq va bojxona qonunchiligida ikki marta javobgarlikka tortishga izn berilganday bo‘lib qoladi. Shu sababli Konstitutsiya normalarini tushunish va qo‘llashda inson huquqlari va manfaatlari nuqtayi nazaridan egiluvchan talqin qilish tavsiya etiladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilayotgan inson huquq va erkinliklariga oid yangi normalar sudlar zimmasiga nihoyatda katta mas’uliyat yuklaydi. Bu o‘rinda birinchi galda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yangicha tashkil etish talab etiladi. Masalan, inson huquq va erkinliklari qonunlarning mazmun va mohiyatini belgilashi to‘g‘risida hamda inson huquqlari konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkinligi to‘g‘risidagi qoida Konstitutsiyaviy sud faoliyati uchun chinakam yangi amaliyot va yondashuvlarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, Oliy sud hamda fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma’muriy sudlar faoliyatida ham yangicha yondashuvlarni joriy etish zarurati yuzaga chiqmoqda. Masalan, 20-moddadagi inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishiga oid masalalar bo‘yicha sud qarorlari faqat individual tarzda bo‘lishi kerak emas. Bunday qarorlar ana shunday barcha holatlar uchun yechim bo‘lishi zarur. Bu esa sud amaliyoti hujjatlarida pretsedentlik elementlarini aks ettirishni talab qiladi.

Shunday qilib yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi avvalo shaxs huquqlari ustuvorligini ta’minlashga, inson huquqlariga oid ilmiy-nazariy qarashlar, huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

#

**Baxshillo XODJAYEV,**
**Toshkent davlat yuridik universiteti rektori,**
**yuridik fanlar doktori, professor**

# O‘ZBEKISTONDA KONSTITUTSIYAVIY TAFAKKUR EVOLYUTSIYASI: DISKURSIV KONSTITUTSIONALIZM VA XXI ASR SINOVLARI

***ANNOTATSIYA.*** *Ushbu maqolada konstitutsiyaviy islohotlarning evolyutsiyasi “diskursiv konstitutsionalizm” nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Muallif tomonidan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasida xalq ishtirokining yuqori darajasi, fuqarolarning konstitutsiyaviy subyekt sifatida namoyon bo‘lishi va buning huquqiy madaniyatga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, maqolada yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada ta’lim va ilmiy faoliyatga oid normalarning huquqiy ahamiyati hamda sun’iy intellekt davrida konstitutsiyaviy kafolatlar muammolariga alohida ahamiyat qaratilgan. XXI asrning raqamlashtirilgan jamiyatida inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlar himoyasini ta’minlashning dolzarbligi alohida ta’kidlangan.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В данной статье анализируется эволюция конституционных реформ с точки зрения теории «дискурсивного конституционализма». Автор рассматривает высокий уровень участия граждан в новой редакции Конституции Узбекистана и проявление народа как конституционного субъекта и его влияние на правовую культуру. Особое внимание уделяется нормам Конституции в сфере образования и научной деятельности, а также новым вызовам для конституционных гарантий в эпоху искусственного интеллекта. Подчеркивается актуальность обеспечения прав человека и защиты персональных данных в условиях цифровизации общества XXI века.*

***ABSTRACT.*** *This article analyzes the evolution of constitutional reforms through the lens of the theory of “discursive constitutionalism.” The author highlights the high level of public participation in shaping the new version of Uzbekistan’s Constitution, demonstrating the emergence of citizens as constitutional subjects. The article also examines the legal significance of the constitutional provisions related to education and academic freedom, as well as the legal challenges posed by artificial intelligence in the digital era. The study emphasizes the importance of safeguarding human rights and the protection of personal data in the context of the rapidly developing digital society of the 21st century.*

***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, diskursiv konstitutsionalizm, konstitutsiyaviy madaniyat, ta’lim, sun’iy intellekt, inson qadri, huquqiy kafolatlar.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, дискурсивный конституционализм, конституционная культура, образование, искусственный интеллект, достоинство человека, правовые гарантии.*

***Key words:*** *Constitution, discursive constitutionalism, constitutional culture, education, artificial intelligence, human dignity, legal guarantees.*

Konstitutsiya – shunchaki huquqiy hujjat emas. U xalqning davlatga yo‘llagan eng yuksak so‘zi, jamiyatimizning umumiy orzu-intilishlari, qadriyatlari va erkinlik haqidagi tasavvurlarining huquqiy ifodasidir. Shu bois Konstitutsiyani ko‘pincha davlatning “yuragi” deb atashadi, uning har bir urishi yurtimizdagi demokratik taraqqiyot sur’atini belgilaydi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda konstitutsiyaviy tafakkur taraqqiy etib, o‘ziga xos konstitutsiyaviy madaniyat shakllandi. Eng muhimi, xalqimizning siyosiy ongi va huquqiy dunyoqarashida ulkan uyg‘onish yuz berdi. Bu yil biz ana shu konstitutsiyaviy rivojlanish yo‘lining 33 yillik bosqichi keng nishonladik.

Konstitutsiyaviy taraqqiyot doimiy muloqot jarayonidir. Konstitutsiya matn bilangina emas, balki insonlar o‘rtasidagi uzluksiz suhbat bilan yashaydi va yangilanadi. Bu fikr zamirida “diskursiv konstitutsionalizm” deb nom olgan zamonaviy nazariy konsepsiya mujassam bo‘lib, unga ko‘ra Konstitutsiya – matndan ko‘ra ko‘proq jamiyat ichidagi doimiy dialog mahsulidir[1]. Xalq o‘zining fikr, taklif va bahslari orqali Konstitutsiyaning mazmunini boyitib boradi.

### AQSH modeli: sud faolligi va “tirik Konstitutsiya”

Amerika Qo‘shma Shtatlarida Konstitutsiya avvalo sudlar faoliyati orqali “yashaydi”. AQSH Oliy sudi 250 yillik tarixi davomida Konstitutsiya normalarini har bir davr ruhiga moslab keng talqin qilib kelgan. Bu jarayonda sud hokimiyati Konstitutsiya matnini doimiy ravishda yangi murakkab vaziyatlar uchun qo‘llab borish orqali uni “tirik Konstitutsiya”ga aylantirib borgan[2]. Sudyalar konstitut-

1 Bui, Ngoc Son (2023) "Discursive Constitutionalism," Chicago Journal of International Law: Vol. 23: No. 2, Article 2. Available at: https://chicagounbound.uchicago.edu/cjil/vol23/iss2/2

2 The Court and Constitutional Interpretation // URL: https://www.supremecourt.gov/about/constitutional.aspx#:~:text=The%20complex%20role%20of%20the,applied%20to%20complicated%20new%20situations

siyaviy normalarni zamonga mos kreativ yondashuvlar bilan izohlash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilib, jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan.

Sud hokimiyatining bunday faolligi (judicial activism) afzalligi fuqarolar manfaatlarini himoya qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, Oliy sud qarorlari orqali irqiy kamsitishning bekor qilinishi yoki fuqarolik huquqlarining kengaytirilishi jamiyatda adolat tamoyillarini mustahkamladi. Biroq sud faolligining zaif jihati ham yo‘q emas – ba’zan sud falsafasi va qarorlari jamiyatdagi umumiy kayfiyatdan ancha yiroqlashib ketishi mumkin. Bunday tafovut AQSH konstitutsiyaviy nazariyasida “tirik Konstitutsiya” tarafdorlari va “asl ma’no” (originalizm) tarafdorlari o‘rtasida bahslarni keltirib chiqaradi[3]. Tanqidiy nuqtayi nazarga ko‘ra sudlarning haddan tashqari faolligi ularning “aksil-ko‘pchilik” (counter-majoritarian) xususiyatini kuchaytirib, jamiyat ehtiyojlaridan yiroqlashishiga olib kelishi mumkin.

**O‘zbekiston yo‘li: diskursiv konstitutsionalizm**

O‘zbekiston konstitutsionalizmi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning anchagina uzoq tarixga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz. XX asr boshlarida bu borada bir necha urinishlar bo‘lgan. Xususan, 1920-yilda Xiva xonligi qulatilgach yangi hukumat tomonidan qonuniy asos tayyorlangan va xalqqa taqdim qilingan[4]. Shuningdek, 1917-yilda tashkil etilgan Turkiston muxtoriyati ilk demokratik davlatlardan bo‘lgan, ularning konstitutsiyasi ham juda yaxshi ishlab chiqilgan, xalqchil bo‘lgan, na irqchilik, na diniy bosimlar bo‘lmagan[5].

Konstitutsiyaviy rivojlanishning muqobil modeli sifatida so‘nggi yillarda “diskursiv konstitutsionalizm” konsepsiyasi ilgari surilmoqda[6]. Ushbu nazariyaga muvofiq Konstitutsiya statik matn emas, balki jamiyat ichidagi uzluksiz muloqot va bahs-munozaralar mahsulidir. Konstitutsiyaviy qadriyatlar xalq bilan davlat o‘rtasida kechayotgan doimiy dialog jarayonida shakllanadi.

Diskursiv konstitutsionalizm tamoyillarini quyidagicha izohlash mumkin.

**Konstitutsiya jamiyatning faol fikr almashish maydoniga aylanishi kerak.** Unda har bir fuqaro va ijtimoiy guruh o‘z mulohazasini bildirib, huquqiy tizim rivojiga hissa qo‘sha oladi.

**Konstitutsiyaviy norma xalq umumiy mulohazasining “huquqiy kristalli”dir.** Ya’ni qonun me’yorlari keng jamoatchilik muhokamasi va aqliy tahlil natijasida vujudga kelgan mushtarak irodani, xalq tafakkurining eng mukammal xulosasini aks ettiradi.

Yangi O‘zbekiston aynan shu yo‘lni tanladi. 2022-2023-yillarda yangi Konstitutsiya loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilib, misli ko‘rilmagan darajada keng xalq ishtirokiga erishildi[7]. Maxsus Konstitutsiyaviy komissiya va parlament quyi palatasi bir yil davomida aholidan kelib tushgan takliflarni to‘plab, tahlil qildi. Natijada umumxalq muhokamasi davomida 220 mingdan ortiq taklif kelib tushdi va ularning ko‘plari Konstitutsiya loyihasida aks ettirildi. Ushbu jarayonga bevosita va bilvosita jami 5 milliondan ziyod fuqaro jalb etilgani qayd qilinadi. Yakuniy loyihani 2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendumda ovoz bergan saylovchilarning 90 foizdan ortig‘i qo‘llab-quvvatladi.

Ushbu ko‘lami ulkan jarayon oddiy huquqiy islohot emas, balki xalqimiz siyosiy-huquqiy ongi va faolligining yuksak namoyishi bo‘ldi. Xalq Konstitutsiyani “o‘z hujjati” deb bildi va uni yaratishda konstitutsiyaviy subyekt sifatida maydonga chiqdi. Zero, jamiyat fikri ishtirok etmagan Konstitutsiya – jonsiz me’yorlar to‘plamidir. Xalq haqiqiy konstitutsiyaviy subyektga aylangan kundagina Konstitutsiya chin ma’noda yashaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yaratishdagi keng jamoatchilik ishtiroki uni chinakamiga “xalq Konstitutsiyasi” darajasiga ko‘tardi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

---

3 Brian Anderson On the Court's Role in Igniting the Civil War, and the Activict Legacy of Brown v. Board // URL: https://manhattan.institute/article/how-the-supreme-court-used-three-cases-to-inspire-a-living-constitution#:~:text=intentioned%2C%20this%20argument%20advanced%20no,reason%20to%20reach%20its%20holding

4 Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад *Хоразм жадид намояндалари: ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси; Хоразм:* “Milleniumus print” нашриёти, 2024 йил, 99-бет

5 «Жадидлар орзуси ўтмишда қолган эди, энди келажак масаласига айланди» – эксперт // URL: https://kun.uz/kr/25127680

6 Bui, Ngoc Son (2023) "Discursive Constitutionalism," Chicago Journal of International Law: Vol. 23: No. 2, Article 2. Available at: https://chicagounbound.uchicago.edu/cjil/vol23/iss2/2

7 Saidov A.Kh. New Uzbekistan: from constitutional reforms to constitutional stability // URL: https://eurasiamagazine.com/new-uzbekistan-from-constitutional-reforms-to-constitutional-stability#:~:text=The%20first%20distinctive%20feature%20of,civic%20engagement%20and%20substantive%20debate

**Konstitutsiya va ta'lim: yangi davrda ilm-fanning konstitutsiyaviy o'rni**

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ta'lim va ilm-fan sohasiga alohida e'tibor qaratilib, tarixda ilk bor o'qituvchi kasbining huquqiy maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Konstitutsiyada o'qituvchilarning mehnati jamiyat va davlat rivojlanishining asosi ekani qayd etilib, davlatga o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligini ta'minlash vazifasi yuklandi[8]. Ta'limga oid normalar sezilarli ravishda kengaytirilib, zamonaviy talablar inobatga olindi.

Jumladan, Konstitutsiyada davlat bepul umumiy o'rta hamda boshlang'ich professional ta'limni kafolatlashi, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim majburiy ekanligi mustahkamlab qo'yildi. Fuqarolarning davlat oliy ta'lim muassasalarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olish huquqi konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilib, oliy ta'lim tashkilotlariga o'zini o'zi boshqarish, akademik erkinlik hamda ilmiy tadqiqot va o'qitish erkinligi huquqi berildi. Bu o'zgarishlar ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarib, inson kapitaliga investitsiya kiritishni konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi.

Bunday yondashuv ortida chuqur falsafa yotadi: "Ilm ovoz chiqarganda, boshqaruvda adolat kuchayadi". Haqiqatan ham, jamiyatda ilm-fan erkin rivojlanib, olimlar va pedagoglar bemalol fikr almashsa davlat boshqaruvida adolat va islohotlar samaradorligi oshadi. Shu ma'noda yangi tahrirdagi Konstitutsiya ilm-fan va ta'limga doir yuksak normalarni belgilab, huquqiy boshqaruvni bilim va ilmiy mantiq asosida takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Yangi konstitutsiyaviy normalarning hayotga joriy etilishi jarayoni universitet faoliyatiga doir muhim hujjat qabul qilinishida ham o'z ifodasini topdi. 2025-yil 26-noyabr kuni Prezident farmoni (232-sonli) bilan yuridik ta'lim va ilm-fanni zamonaviy talablar asosida kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari belgilandi. Mazkur farmon bilan professor-o'qituvchilarga ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda keng imkoniyat va erkinliklar berildi. Toshkent davlat yuridik universiteti misolida oliy yuridik ta'limda "ta'lim – tadqiqot – amaliyot" integratsiyasi tamoyili asosida fakultetlar tuzilmasini yangilash, kafedralarni bo'limlarga aylantirish hamda Universitet professorlari kengashini tuzish taklif etildi. Bu o'zgarishlar professor-o'qituvchilarning universitet boshqaruvidagi rolini oshirib, qarorlar qabul qilishda jamoaviylikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Chunki bugungi professor fikri – ertangi huquqiy islohotning eng ishonchli poydevoridir.

Ta'lim sohasidagi ushbu konstitutsiyaviy va tashkiliy islohotlar natijasida oliy o'quv yurtlarida amaliy va tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish tizimi takomillashadi. Oliy ta'lim mazmuni global akademik talablar va me'yorlarga mos ravishda boyib, yangi bilim hamda innovatsiyalarni shakllantirishga qulay muhit yaratiladi. Eng asosiysi, ta'lim muassasalari huquqiy tafakkur va ilmiy bahslar maskaniga aylanadi – axir huquqiy fikr almashilgan joyda taraqqiyot boshlanadi.

**Sun'iy intellekt: XXI asrning konstitutsiyaviy sinovi**

Jahon hamjamiyati XXI asrda kutilmagan yangi konstitutsiyaviy muammoga duch kelmoqda – bu sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishidir. Hozirgi kunda SI davlat boshqaruvi va huquqiy jarayonlarga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Jumladan:

- davlat organlarining katta hajmdagi ma'lumotlarini tahlil qilish va qarorlar qabul qilishda yordam berish;
- jamoatchilik fikrini shakllantirish va siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish;
- qonun loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish (matnlarni tahlil qilish va takliflarni generatsiya qilish) kabi yo'nalishlarda SI qo'llanilmoqda.

Biroq sun'iy intellekt imkoniyatlarining ortishi bilan birga u yangi xavf va xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ilmiy izlanishlar sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqarilgan dezinformatsiya saylovchilarning irodasini buzib, demokratik jarayonlarning legitimligiga putur yetkazishi mumkinligini ko'rsatmoqda[9]. Misol uchun, sun'iy intellekt (SI) orqali yaratilgan yuqori aniqlikdagi soxta videolar yoki audioxabarlarda siyosatchilar nomidan yolg'on bayonotlar tarqatilib, fuqarolarni chalg'itish hollari kuzatilmoqda. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, saylovchilar SI yordamida tarqatilgan yolg'on ax-

8 https://meningkonstitutsiyam.uz/oz/site/intro-view?id=13

9 Michelle Xin *Synthetic Media: The New Frontier of Political Manipulation* // https://law.temple.edu/ilit/synthetic-media-the-new-frontier-of-political-manipulation/#:~:text=informed%20choices%20among%20candidates%20is,the%20legitimacy%20of%20its%20outcomes

borotga juda oson aldanib qolishi va natijada noto'g'ri qaror qabul qilishi ehtimoli yuqori. Bu esa konstitutsiyaviy tuzum barqarorligiga jiddiy tahdid tug'dirishi mumkin.

Sun'iy intellekt asrida quyidagi fundamental savollar kun tartibiga chiqmoqda.

**Shaxsiy hayot daxlsizligi qanday himoya qilinadi?** Fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari va hayoti maxfiyligini ta'minlash tobora murakkablashmoqda.

**Ma'lumotlar kimning qo'lida to'planadi?** Katta hajmdagi ma'lumot bazalarini boshqarayotgan korporatsiyalar va davlatlar o'rtasida yangi kuchlar muvozanati shakllanmoqda.

**Inson qadr-qimmati algoritmlar davrida qanday ta'minlanadi?** SI qarorlariga ortiqcha tayanish inson sha'ni va o'zini o'zi anglash masalalarini kun tartibiga chiqarmoqda.

**Davlat hokimiyati vakolatlarining SI bilan kesishuvi qayerda to'xtashi kerak?** SI vositasida davlat boshqaruvini kuchaytirish imkoniyati demokratik erkinliklarga qanchalik tahdid solishi mumkin?

Ayni paytda bu savollarga dunyo miqyosida aniq javoblar ishlab chiqilgani yo'q. Ko'plab davlatlar konstitutsiyalariga **shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, raqamli huquqlar va kiberxavfsizlik**ka oid normalarni kiritishga intilmoqda[10]. Zero, zamonaviy konstitutsiyalar insonni nafaqat davlatning o'zidan, balki yangi texnologiyalarning nazoratsiz ta'siridan ham himoya qilishi zarurligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining bosh g'oyasi ham inson manfaatlarini oliy o'ringa qo'yishdan iborat. Endilikda fuqaroni sun'iy intellektning salbiy ta'siridan himoya qilish vazifasini ham bajarishi lozim bo'ladi. Bu borada xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda yangi huquqiy yechimlarni izlash – XXI asr konstitutsiyaviy taraqqiyotining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda kechayotgan konstitutsiyaviy yangilanish jarayoni diskursiv konstitutsionalizm g'oyasining hayotiy ekanini yaqqol namoyon etdi. Inson qadrini ustuvor qilgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz xalq irodasi va tafakkurining yuksak mahsuli sifatida yuzaga keldi. Konstitutsiya kuni aynan shu yutuqlar ruhida, yangi davrga xos ilmiy va ma'naviy ko'tarinkilik bilan nishonlandi.

Yangi konstitutsiyaviy tuzilma ta'lim va ilm-fanga keng yo'l ochib, huquqiy tafakkur ravnaq topishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Shu bilan birga, XXI asrning sun'iy intellekt kabi kutilmagan sinovlariga huquqiy jihatdan tayyor turish lozimligini ham uqtirmoqda. Konstitutsiya – avvalo jamiyatni himoya qiluvchi hujjat. Uni zamon talablari asosida takomillashtirib borish, raqamli davrda inson erkinligini ta'minlash kafolatlarini yaratish barchamizning dolzarb vazifamizga aylangan.

Eng asosiysi, konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida xalqimizning huquqiy ongi yuksaldi, fuqarolar konstitutsiyaviy jarayonning to'laqonli subyektiga aylandi. **"Xalq konstitutsiyaviy subyektga aylangan kunda Konstitutsiya haqiqatan ham yashaydi"** degan tamoyil Yangi O'zbekiston misolida o'z tasdig'ini topdi. Natijada mamlakatimizda huquqiy madaniyat va fuqarolik jamiyati yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Konstitutsiyaviy rivojlanish va huquqiy tafakkur almashinuvi borasidagi xalqaro ilmiy hamkorlik ushbu jarayonlarni yanada jadallashtiradi. Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 33 yillik bayrami doirasida o'tkazilgan konferensiya va anjumanlar aynan shunday yangi g'oyalar, ilmiy hamkorlik va bo'lajak huquqshunoslar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

**Konstitutsiya – davlatimizning yuragi, jamiyatimizning tayanch qonuni.** Uning har bir o'zgarishi ortida xalqimizning ertangi farovon hayotga bo'lgan ishonchi mujassam. Shu bois Konstitutsiyani hurmat qilish, uning normalarini hayotga tatbiq etish va uni zamon bilan hamnafas holda takomillashtirib borish barchamizning sharafli burchimizdir.

#

10 Saidov A.Kh. *New Uzbekistan: from constitutional reforms to constitutional stability* // URL: https://eurasiamagazine.com/new-uzbekistan-from-constitutional-reforms-to-constitutional-stability#:~:text=The%20first%20distinctive%20feature%20of,civic%20engagement%20and%20substantive%20debate

**Sherzod ABDUQODIROV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi rektori,**
**yuridik fanlar doktori**

# QONUNIYLIK VA IJTIMOIY ADOLATNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

***ANNOTATSIYA.*** *Ushbu maqolada yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining eng muhim tamoyillaridan biri – davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy adolat ustuvor ahamiyat kasb etishi bilan bog‘liq konstitutsiyaviy qoidalarning ahamiyati yoritilgan.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В данной статье освещается значение конституционных положений, связанных с одним из важнейших принципов Конституции Республики Узбекистан, принятой в новой редакции, - приоритетом социальной справедливости в жизни государства и общества.*

***ABSTRACT.*** *This article elucidates the significance of constitutional provisions related to one of the fundamental principles in the newly adopted Constitution of the Republic of Uzbekistan - the primacy of social justice in the life of the state and society.*

***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, ijtimoiy adolat, tenglik, erkinlik.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, социальная справедливость, равенство, свобода.*

***Key words:*** *Constitution, social justice, equality, freedom.*

Jamiyat taraqqiyotining huquqiy konsepsiyasini belgilab beradigan eng muhim siyosiy-huquqiy hujjat, ya’ni  Konstitutsiya qonun orqali boshqariladigan davlatning asosiy belgisi hisoblanadi.

Huquqshunos olim X.Odilqoriyevning fikricha, “Umumbashariy nuqtayi nazardan Konstitutsiyaning ahamiyatiga baho beriladigan bo‘lsa, u nafaqat alohida davlat uchun beqiyos qadrli hujjat, balki dunyoviy miqyosda, butun insoniyat taraqqiyoti uchun jiddiy e’tiborga molik qadriyatdir. Konstitutsiya – insoniyat tamaddunining benazir mahsuli, kishilik jamiyati o‘z turmushi va ijtimoiy hayotini barqaror izga solish maqsadida kashf etgan buyuk tarixiy yutuqlaridan biri”[1].

Qadimdan juda katta va mustahkam davlatchilik asoslarini yaratgan xalqimiz tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatni boshqarishda to‘ra va tuzuklarga bugungi kundagi qonunlarga jiddiy e’tibor qaratishgani manbalardan ma’lum.

Qariyb uch ming yildan ko‘proq ulkan davrni qamrab olgan qadimiy Turon davlati adolatli boshqaruvi bilan ham shon-shuhrati butun dunyoga taralgan. Ikki azim daryo oralig‘ida joylashgan Movarounnahr zaminidagi davlatchilik asoslari jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qadimiy davlatda boshqaruv adolatli qonun va qoidalar orqali amalga oshirilganligini mutaxassis olimlar e’tirof etishadi.

Mana shunday yuksak taraqqiyot tariximizdagi buyuk davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur bobomiz saltanati va u kishining davlatni adolat bilan boshqarish haqidagi qarashlariga alohida to‘xtalish maqsadga muvofiq.

Sohibqiron bobomiz davlat boshqaruvi masalasida o‘zining “Temur tuzuklari” asaridagi “Mamlakat ishlari tuzuklari” bo‘limida quyidagicha yozadi: “Dinu shariat ishlari tuzukini tartibga keltirganimdan keyin saltanatim korxonasi tuzukini tuzishga kirishdim. Saltanat ishlarini qonun va qoidalar, to‘ra va tuzukka solib, saltanatim martabayu e’tiborini saqladim. Saltanatim martabasini to‘ra va tuzuklar asosida shunday saqladimki, uning ishlariga aralashishga hech kimsaning qurbi yetmasdi”[2].

Shu o‘rinda mashhur huquqshunos olim Halimboy Boboyevning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish lozim: “Milliy davlatchiligimiz to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, O‘zbekistonni o‘rta asrlarda mo‘g‘ullar istilosidan ozod etgan, dunyoda eng kuchli rivojlangan, markazlashgan davlat qurgan, “Tuzuklar” tuzgan Amir Temur va uning davlati haqidagi tarixiy haqiqatni tiklash kerak edi”[3].

Saltanat boshqaruvida hal qiluvchi ahamiyat

1 X.T.Odilqoriyev *Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik* – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-yil, 3-bet

2 “Temur tuzuklari”. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyot matbaa uyi, 2011-yil, 88-bet.

3 Halimboy Boboyev “O‘zbek davlatchiligi tarixi”., Toshkent., O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2004-yil, 147-bet

kasb etgan o‘sha davrdagi tuzuklarni bugungi huquqiy tushuncha bilan Konstitutsiya deb yuritamiz. Darhaqiqat, “Konstitutsiya” deganda biz ongu tafakkurimizning muayyan mustahkam prinsiplaridan kelib chiqadigan va ijtimoiy farovonlik maqsadlariga yo‘naltirilgan, jamiyat rioya qiladigan aniq va yagona tizimga solingan qonunlarning, qoida va odatlarning mujassamligini tushunamiz”[4].

O‘zbekiston taraqqiyotining sifat jihatidan mutlaqo yangi bir bosqichiga o‘tilgach, mamlakatimiz huquqiy hayotida tarixiy voqelik – konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirildi. Ya’ni 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan umumxalq referendumi orqali Yangi O‘zbekiston huquqiy siyosatining konstitutsiyaviy qoidalarini belgilab bergan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonuni qabul qilindi.

Akademik A.Saidov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarda ta’kidlanganidek, erkinlik – shaxsning o‘z huquqlarini amalga oshirishida davlat aralashuvining yo‘qligini anglatadi. Shu ma’noda, konstitutsiyaviy islohotlarda huquqiy, ijtimoiy davlat imperativini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Birdamlik, adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitalini rivojlantirish tamoyillari ustuvorligiga tayanildi”[5].

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning eng muhim tamoyillaridan biri – davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy adolat ustuvor ahamiyat kasb etishi bilan bog‘liq konstitutsiyaviy qoida uning 14-moddasida quyidagicha belgilandi: “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”.

Mazkur insonparvar konstitutsiyaviy tamoyillarning ijtimoiy hayotdagi amaliy ifodasida sud organlari hal qiluvchi o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida ta’kidlab o‘tganlaridek, “Hech shubhasiz, tom ma’noda xalqchil qomus bo‘lgan **Asosiy qonunimiz** Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli **islohotlarimiz ortga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati** bo‘lib xizmat qiladi”[6].

Sud tizimi faoliyatining samaradorligi avvalo sudyalar korpusining yuksak salohiyati, xususan, bilim va tafakkuri kengligi, ma’naviy-axloqiy fazilatlari talab darajasiga egaligi bilan uzviy bog‘liq.

Odil sudlovni amalga oshirishning eng muhim omili sifatida sohada kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimi samaradorligini alohida keltirib o‘tish lozim.

Yuqori bilim va amaliy ko‘nikmaga ega, halol va pok, fuqarolik burchini teran his qiladigan, mas’uliyatli sudya kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish masalasi sud islohotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 21-avgust kuni imzolangan “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 141-sonli farmonining qabul qilinishi va O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining tashkil etilishi sud tizimini zamonaviy va salohiyatli kadrlar bilan ta’minlashda yangi bir davrni boshlab berdi.

Ushbu farmonda asosiy maqsad sifatida belgilangan vazifalar:

– sud tizimi uchun har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va zarur kasbiy ko‘nikmalarga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;

– sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudya va sud apparati xodimlarining malakasini oshirish, rahbarlik lavozimlarini egallash uchun zaxirada bo‘lgan sudyalarni qayta tayyorlash, ta’lim oluvchilarda sudyalik kasbiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;

– bo‘lajak sudyalarda mustaqil, xolis, beg‘araz, faqat qonunga tayangan holda va adolat bilan ish yuritishning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol o‘qitish uslublarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish[7] sud tizimida zamonaviy fikrlaydigan, halol va yuksak salohiyatli yangi avlod sudyalari korpusini shakllantirish orqali pirovard natijada jamiyatda qonun ustuvorligi va adolatni o‘rnatishga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

“Farmonda sudya kadrlarni tayyorlash tizimi ne-

4 B.G‘iyosov *Konstitutsiyaning amaliy ahamiyati* // https://constitution.uz/uz/pages/amaliy_ahamiyat

5 A.Saidov *Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — inson sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati* // https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya_mustahkam_kafolat

6 Prezident Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni munosabati bilan bayram tabrigi // https://president.uz/uz/lists/view/6917

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // https://lex.uz/uz/docs/7696594

gizida tom ma'noda odil sudlovning asosiy maqsadlari bo'lgan ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va inson huquqlarini kafolatlashni yanada yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar belgilangan. Zero, sudyalarning chuqur bilim va ko'nikmalar hamda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasiga ega bo'lishi bevosita ularning kasbiy salohiyatini oshiradi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, yuqori kasbiy malakaga ega bo'lgan sudya – odil sudlovni amalga oshirishda adolat, qonun ustuvorligi va inson huquqlarining ustuvorligi prinsiplarini ta'minlashda muhim omil bo'ladi"[8].

Ushbu tarixiy farmon bilan sudya kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, odil sudlovning asosiy maqsadlari bo'lgan ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va inson huquqlari kafolatini yanada yuqori darajaga ko'tarish maqsadida **O'zbekiston sud tizimi tarixida ilk bor Odil sudlov akademiyasi** tashkil etildi.

Mamlakatimiz sud tizimidagi yagona ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadigan akademiya bugungi kunda eng zamonaviy o'qitish usul va mexanizmlarini qo'llagan holda o'quv jarayoni sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Ayni paytda akademiyaning olti oylik sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursida tahsil olayotgan 160 nafar tinglovchisi (bo'lajak sudyalar), kasbiy qayta tayyorlash kurslarida, xususan, to'rtta sud yo'nalishi: jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy sudlarning o'n yillik muddatga tayinlangan 58 nafar sudyasi, reyting ballari past bo'lgan 11 nafar sudyaga qonunchilikni qo'llash ko'nikmasining amaliyot bilan uzviy bog'liqligini ta'minlagan holda "nazariya – amaliyot — imitatsiya" tamoyili asosida dual ta'lim shaklida dars jarayonlari olib borilmoqda.

Yangi tashkil etilgan Odil sudlov akademiyasi faoliyatida ustuvor ahamiyat qaratilgan jihatlardan yana biri sifatida ta'lim jarayonining deontologik usulda amalga oshirilishi bo'lib hisoblanadi.

Eng rivojlangan demokratik mamlakatlarning bu boradagi tajribasida o'zini oqlagan deontologik ta'lim jarayonida sudyalikka nomzodlar sudyalik vazifasida ishlashda duch keladigan, sudya tomonidan huquqiy baho berilishi lozim bo'ladigan jarayonlarni bevosita borib ko'radi, ishtirok etadi yoki kuzatadi.

O'rni kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, Odil sudlov akademiyasida 2026/2027 o'quv yilidan boshlab "Sud faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha amaliy magistratura dasturi asosida o'qitish tashkil etilishi nazarda tutilgan. Bu bosqichda o'quv jarayoni ta'limning kunduzgi va kechki shakllarida amalga oshiriladi. Akademiyaga qabul qilishda nomzodlarning muayyan toifalariga boshqa oliy ta'lim tashkilotlariga kirish uchun qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barcha yo'nalishlardagi o'quv jarayonlarini bugungi islohotlar talablari darajasida tashkil etib, milliy sud tizimini xalqaro standartlarga to'la javob beradigan malakali va ma'naviy yetuk sudyalar korpusini tayyorlash yangi tashkil etilgan Odil sudlov akademiyasi faoliyatining mohiyatini tashkil etadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil 21-noyabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'ttiz uch yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, fuqarolarni unda belgilangan ezgu qadriyatlar atrofida birlashtirishga qaratilgan 60-sonli farmoyishida belgilangan "Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!" degan bosh g'oyaning hayotiy ifodasini ta'minlashga ko'maklashish bizning eng asosiy maqsadimizdir.

#

8 M.U.Abdusalomov *Sudya kadrlar tayyorlashni tubdan takomillashtirish – davr talabi* // "Odillik mezoni" jurnali, 2025-yil, №9, 11-bet

**Muzaffarjon MAMASIDDIQOV,**
**Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi boshlig‘i,**
**yuridik fanlar doktori, professor**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA KAFOLATLANGAN TA’LIM OLISH HUQUQINI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI TIZIMLARIDA YURIDIK TA’LIMNI TASHKIL ETISHGA TATBIQ QILISH MASALALARI

*“Biz huquqiy demokratik davlat qurayotgan ekanmiz, har tomonlama bilimli, yuqori malakali, xalqaro standartlarga javob beradigan, o‘z kasbining haqiqiy fidoyisi bo‘lgan huquqshunos kadrlar tayyorlash ishlarini takomillashtirishimiz kerak”[1].*

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni

***ANNOTATSIYA.*** *Mazkur maqolada qabul qilinganiga o‘ttiz uch yil to‘lgan mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasida ta’lim olish huquqining kafolatlanganligi, o‘zining qariyb o‘ttiz yillik tarixi davomida mamlakatda tinchlik-osoyishtalikni ta’minlash, muhim infratuzilmalarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish orqali respublikaning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa yo‘nalishlarda taraqqiy etishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyati, vazirlik uchun yuridik kadrlarni tayyorlash hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida “Yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklarini ochishning zarurati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В данной статье рассматривается тридцатитрехлетняя Конституция независимого Узбекистана, гарантирующая право на образование, деятельность Министерства по чрезвычайным ситуациям Республики Узбекистан, которое на протяжении всей своей почти тридцатилетней истории вносит достойный вклад в экономическое, социальное и иное развитие республики, обеспечивая мир и спокойствие в стране, защищая важные объекты инфраструктуры от чрезвычайных ситуаций, подготовка юридических кадров для министерства, необходимость открытия направления и специальности «Юриспруденция» в Академии МЧС.*

***ABSTRACT.*** *This article examines the thirty-three-year-old Constitution of independent Uzbekistan, which guarantees the right to education, the activities of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan, which throughout it’s almost thirty-year history has made a worthy contribution to the economic, social and other development of the republic, ensuring peace and tranquility in the country, protecting important infrastructure facilities from emergencies, training legal personnel. for the Ministry, the need to open a direction and specialty "Jurisprudence" at the Academy of the Ministry of Emergency Situations.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim olish huquqi, konstitutsiyaviy kafolatlar, yurisprudensiya, bakalavriat, magistratura, ta’lim yo‘nalishi, mutaxassislik, akademik infratuzilmalar, ta’lim muassasalari, favqulodda vaziyat, davlat nazorati, huquqni qo‘llash faoliyati, ma’muriy huquqbuzarliklar.*

***Ключевые слова:*** *право на образование, конституционные гарантии, юриспруденция, бакалавриат, магистратура, направление образования, специальность, академическая инфраструктура, учебные заведения, чрезвычайные ситуации, государственный контроль, правоприменительная деятельность, административные правонарушения.*

***Key words:*** *right to education, constitutional guarantees, jurisprudence, baccalaureate, master’s degree, direction of education, specialty, academic infrastructures, educational institutions, emergency, state control, law enforcement activities, administrative offenses.*

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T. 2017-yil 22-dekabr.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim olish huquqi davlat tomonidan kafolatlangan asosiy huquqlardan biri hisoblanadi. Ta’lim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari Konstitutsiyamizning "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar" deb nomlangan to‘qqizinchi bobida belgilangan bo‘lib, bu bobda ta’lim olish har bir insonning asosiy huquqi sifatida e’tirof etiladi. Ushbu huquqning amalga oshirilishi O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaning 50-moddasida ta’lim olish huquqi har bir inson uchun teng imkoniyatlar asosida ta’minlanishi, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash, mamlakatning ijtimoiy tizimini rivojlantirish va fuqarolarning shaxsiy salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadida davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan. Ushbu konstitutsiyaviy kafolat ma’rifatli jamiyat qurish yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyamizda umumiy ta’limning bepul va majburiy ekanligi belgilangan bo‘lib, bu o‘z navbatida, barcha fuqarolar uchun ta’lim olishning boshlang‘ich bosqichlari, ya’ni boshlang‘ich va o‘rta ta’lim to‘liq bepul bo‘lishini kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’limning majburiyligi esa jamiyatda ilmiy salohiyatning teng taqsimlanishini, ijtimoiy barqarorlikni va fuqarolar huquqlarining amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Ta’lim olish huquqi nafaqat umumiy o‘rta ta’lim, balki oliy ta’lim va ilmiy faoliyatni ham o‘z ichiga oladi. Konstitutsiyamizda oliy ta’lim tizimining rivojlanishi hamda ilmiy va texnologik izlanishlar olib borish uchun qulay sharoitlar yaratish, ilm-fan sohasida mutaxassislar tayyorlashni ta’minlash ham davlatning vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga imkon yaratadi. Shu tariqa ta’lim olish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan, davlatning ijtimoiy adolat, tenglik va barqaror rivojlanish siyosatining muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlaridan biri sifatida vazirliklarni va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzish hamda tugatish, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritish vakolati belgilangan bo‘lib, ushbu konstitutsiyaviy normadan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 269-sonli farmoni imzolangan. Mazkur farmonda belgilanishicha, ijro etuvchi hokimiyat hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tizimini davlat boshqaruvi organlari hisoblangan vazirliklar va alohida maqomga ega boshqa tashkilotlar tashkil etadi.

Aholini va xalq xo‘jaligi obyektlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, respublikada tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-martdagi "O‘zbekiston Respublikasida Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida"gi farmoniga[2] asosan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi "Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 310-sonli qarori bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining maqomini, tizimini, asosiy vazifalarini, funksiyalarini, huquq va majburiyatlarini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilab beruvchi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra, vazirlikning asosiy vazifalari sifatida aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligi, shuningdek, o‘z vakolatlari doirasida seysmik xavfsizlikni ta’minlash, suv obyektlarida fuqarolarning cho‘kib ketishi bilan bog‘liq hodisalarning

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-martdagi "O‘zbekiston Respublikasida Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida"gi 1378-sonli farmoni // Lex.uz

oldini olish, ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar organlari faoliyati yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish va boshqalar belgilangan[3].

O'zining qariyb o'ttiz yillik tarixi davomida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi mamlakatda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, xalq xo'jaligi obyektlari va boshqa infratuzilmalarni turli tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi faoliyatini amalga oshirish orqali respublikaning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa yo'nalishlarda taraqqiy etishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Donishmand xalqimizda "O't balosi, suv balosidan asrasin" degan hikmatli so'z bor. Favqulodda vaziyatlar vazirligining qutqaruvchilik kasbini vatanning yuragida o'ti bor, olovqalb farzandlari tanlashlari ham bejiz emas, albatta.

Vazirlik o'z zimmasiga yuklatilgan yuqori malakali kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yaratish, vazirlik xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish bo'yicha vazifa va funksiyalari doirasida tizimdagi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari – Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, uning huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti hamda Malaka oshirish markazi, Ilmiy-innovatsion va sinov tadqiqot instituti, Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi hamda hududiy boshqarmalar tasarrufidagi "Hayot faoliyati xavfsizligi" o'quv markazlari faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalarda chuqur islohotlar va yangilanishlar amalga oshirilayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Barcha sohalarda shiddat bilan rivojlanish jarayonlari kechmoqda. Yangi soha va kasblar, shu bilan birga yangi yo'nalishdagi munosabatlar, ayniqsa, huquqiy munosabatlar jamiyat hayotiga tobora chuqur kirib kelmoqda. Qolaversa, ochiqlik va shaffoflik, so'z erkinligini ta'minlash Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lida olib borilayotgan davlatimiz siyosatida muhim o'rin egallamoqda. Fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni oshirish – qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "Ayni paytda yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalariga yuridik mutaxassislik bo'yicha bir yilda 600 ga yaqin talaba qabul qilinadi. Bu jami oliy o'quv yurtlariga qabul qilinadigan talabalarning atigi bir foizini tashkil etadi. O'zingiz ayting, bu bilan davlatimiz va jamiyatimizning huquqshunos mutaxassislarga bo'lgan, tobora ortib borayotgan ehtiyojini qondirish mumkinmi? Albatta yo'q. Bu borada Toshkent davlat yuridik universitetining o'quv-metodik bazasini kengaytirish bilan birga, mamlakatimizda mazkur yo'nalishdagi yirik va nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish biz uchun muhim vazifa hisoblanadi"[4].

Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda yuridik kadrlar tayyorlash tizimi isloh qilinib, bir qator davlat oliy ta'lim muassasalarida yuridik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ochildi, mavjudlari esa kengaytirildi. Natijada bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasining jami 20 ta davlat oliy ta'lim muassasasida – Toshkent davlat yuridik universiteti, O'zbekiston milliy universiteti, Buxoro, Namangan, Farg'ona, Urganch, Termiz, Samarqand, Qoraqalpoq davlat universitetlari, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, Jamoat xavfsizligi universiteti, Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti va Huquqni muhofaza qilish akademiyasida "Yurisprudensiya" bakalavri-

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi "Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 310-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risidagi nizom" // Lex.uz

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T. 2017-yil 22-dekabr.

at ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda[5].

O'zbekiston milliy universiteti, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universitetida esa magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuridik soha (huquqshunoslik sohasi) mutaxassislari tayyorlanmoqda. Shuningdek, Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti, Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti, Huquqni muhofaza qilish akademiyasida faqatgina tegishli soha mutaxassislari orasidan nomzodlar qabul qilinadigan (yopiq tanlov o'tkaziladigan) yuridik sohaga (huquqshunoslik sohasiga) oid magistratura mutaxassisliklari ham mavjud.

**Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimlarida yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishning zarurati.**

Mamlakatimizda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish, aholining hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, yong'in xavfsizligi, seysmik kuzatuv, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish kabi ko'plab yo'nalishlarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi muhim davlat funksiyalarini amalga oshirmoqda. Ushbu faoliyat turlari o'z mohiyatiga ko'ra yuqori darajada normativ-huquqiy tartibga solinishni talab qiladi.

Shu bilan birga, mamlakat oliy ta'lim muassasalarida mavjud yurisprudensiya ta'lim yo'nalishlari Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimining maxsus ehtiyojlarini qamrab olmasligi kuzatilmoqda. Respublikadagi bir qator oliy ta'lim muassasalarida yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanayotgan bo'lsa-da, bu ta'lim dasturlari umumiy yondashuvga ega bo'lib, favqulodda vaziyatlarga oid davlat xizmati uchun zarur bo'lgan maxsus huquqiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish imkonini bermaydi. Ayni vaqtda Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatida fuqarolik, ma'muriy, jinoiy, jinoiy-protsessual, mehnat va boshqa tarmoqlardagi qonunchilikni amaliy qo'llash masalalari muhim o'rin tutadi.

Yana bir muhim omil shuki, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tuzilmasida ilmiy-tadqiqot institutlari, o'quv markazlari va boshqa akademik infratuzilmalar mavjud bo'lib, ular yurisprudensiya yo'nalishidagi kadrlar tayyorlash uchun zarur tashkiliy va pedagogik salohiyatga ega. Akademiyada yuridik yo'nalishda maxsus bakalavriat va magistratura dasturlarining yo'lga qo'yilishi tizim ehtiyojlarini to'liq qoplash, xizmat faoliyatini huquqiy asosda takomillashtirish hamda xodimlarning malakasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida yurisprudensiya bo'yicha ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish nafaqat dolzarb, balki tizimli ravishda asoslangan zaruratdir. Bu esa o'z navbatida favqulodda vaziyatlarda davlat boshqaruvining huquqiy asoslarini mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash va xizmat faoliyatida huquqiy xatoliklar xavfini minimallashtirishga xizmat qiladi.

**Xorijiy tajriba**

Xalqaro tajriba ham ushbu yo'nalishdagi ehtiyojni tasdiqlaydi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tarkibidagi Davlat yong'inga qarshi xizmati Sankt-Peterburg universiteti, Ivanovo yong'in-qutqaruv akademiyasi va boshqa oliy ta'lim muassasalarida "Yurisprudensiya" mutaxassisligi alohida yo'nalish sifatida tashkil etilgan. Ushbu ta'lim dasturlarida favqulodda vaziyatlarda huquqni qo'llash, yong'inlar bo'yicha surishtiruv, davlat yong'in nazorati organlarining sud faoliyatida ishtiroki kabi muhim huquqiy masalalarga e'tibor qaratilgan.

Favqulodda vaziyatlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida yurisprudensiyani o'qitish xalqaro miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Favqulodda vaziyatlar boshqaruvi dasturlariga huquqiy fanlarni integratsiya qilish mutaxassislarga favqulodda vaziyatlar yuz bergan sharoitlarda murakkab huquqiy muhitda harakat qilish uchun zarur bilimlarni beradi. Xalqaro tajriba shunday dasturlarning samaradorligini ko'rsatadi. Masalan, AQSHning Kolumbiya janubiy universiteti favqulodda xizmatlarni boshqarish bo'yicha magistrlik dasturida favqulodda vaziyatlar boshqaruvidagi huquqiy jihatlar kabi mavzular

5 https://abt.uz/ sayti ma'lumotlari.

qamrab olingan. Shuningdek, Jorjtaun universitetining favqulodda va ofatlarni boshqarish bo‘yicha magistrlik dasturi talabalarga favqulodda vaziyatlarda strategik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu kabi dasturlar favqulodda vaziyatlarni samarali boshqarishda huquqiy asoslarning ahamiyatini hamda yurisprudensiyani favqulodda vaziyatlar boshqaruvi ta’limiga integratsiya qilishning muhimligini ko‘rsatadi[6].

Yana bir misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga ko‘ra, oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash uch bosqichda – bakalavriat, mutaxassislik (специалитет) va magistratura bosqichlarida amalga oshiriladi. Oliy ta’limning bakalavriat bosqichi kunduzgi ta’lim shaklida to‘rt yilni, sirtqi ta’lim shaklida besh yilni, mutaxassislik bosqichi kunduzgi ta’lim shaklida besh yilni (ayrim mutaxassisliklarda besh yarim yilni), sirtqi ta’lim shaklida esa olti yilni, magistratura bosqichi kunduzgi ta’lim shaklida ikki yilni, sirtqi ta’lim shaklida esa ikki yarim yilni tashkil etadi.

Birgina Rossiya Federatsiyasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Davlat yong‘inga qarshi xizmati Sankt-Peterburg universitetini oladigan bo‘lsak, universitetda texnik yo‘nalishlar bilan birga quyidagi yurisprudensiya (huquqshunoslik) sohasiga oid yo‘nalishlarda ham ta’lim beriladi:

bakalavriat: 40.03.01 – “Yurisprudensiya (fuqaroviy-huquqiy)”;

mutaxassislik (специалитет): 40.05.01 – “Milliy xavfsizlikni huquqiy ta’minlash (davlat-huquqiy, jinoiy-huquqiy, fuqaroviy–huquqiy mutaxassisliklarda)”;

magistratura: 40.04.01 – “Yurisprudensiya: Rossiya FVV va muhofaza obyektlari xo‘jalik faoliyatining huquqiy ta’minoti”; “Yurisprudensiya: yong‘inlar bo‘yicha surishtiruv”; “Yurisprudensiya: davlat yong‘in nazorati organlarining ma’muriy faoliyati va sudlarda ishtiroki”; “Yurisprudensiya: hayot faoliyati xavfsizligini huquqiy ta’minlash”.

Davlat yong‘inga qarshi xizmati Ivanovo yong‘in-qutqaruv akademiyasida ham ta’limning mutaxassislik bosqichida 40.05.01 – “Milliy xavfsizlikni huquqiy ta’minlash (yurisprudensiya)”, Fuqaro muhofazasi akademiyasida ham bakalavriat bosqichida 40.03.01 – “Yurisprudensiya” yo‘nalishida kadrlar tayyorlash amalga oshirilmoqda.

Natijalar shuni ko‘rsatmoqdagi, mazkur ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan yuridik kadrlar favqulodda vaziyatlar sohasida yuzaga kelayotgan muammo va bahsli jarayonlar to‘liq mantiqiy izchillik asosida hal etilishida hal qiluvchi subyektga aylanib bormoqda.

Xitoy Xalq Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (Ministry of Emergency Management) tasarrufidagi Favqulodda vaziyatlar akademiyasi (China Academy of Emergency Management) mazkur davlatda favqulodda vaziyatlar va xavfsizlik sohasida mutaxassislar tayyorlash uchun ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi. Akademiyada mamlakatda tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, favqulodda vaziyatlarni boshqarish va oldini olish bo‘yicha ta’lim va ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Akademiyada o‘ndan ortiq ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lib, ulardan biri – “Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv huquqi” (“Legal management of emergency situations”) yo‘nalishida tayyorlanadigan yuridik kadrlarga favqulodda vaziyatlar va xavfsizlikni boshqarishning huquqiy asoslari, favqulodda vaziyatlarga oid qonunlar, bunday vaziyatlarda xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy masalalari bo‘yicha zarur bilimlar beriladi.

Indoneziyaning Favqulodda vaziyatlar va xavfsizlik boshqarmasi (Badan Nasional Penanggulangan Bencana, BNPB) tasarrufidagi Favqulodda vaziyatlar akademiyasi (Indonesia Emergency Management Academy) mazkur davlatning favqulodda vaziyatlar va xavfsizlik tizimi doirasida ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lib, Indoneziya hukumati tomonidan favqulodda vaziyatlarni boshqarish va xavfsizlikni ta’minlash sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun tashkil etilgan. Akademiyada o‘nga yaqin ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lib, ulardan biri – “Fuqaro mudofaasi” (“Civil Defence”) ta’lim yo‘nalishida fuqaro mudofaasi tizimlari va xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy va amaliy jihatlari bo‘yicha yuridik kadrlar tayyorlanadi.

Turkiya Favqulodda vaziyatlar va xavfsizlik boshqarmasi – AFAD (Afet ve Acil Durum Yönetimi Başkanlığı) tasarrufidagi Favqulodda vazi-

6 https://www.columbiasouthern.edu

yatlar va xavfsizlik akademiyasi favqulodda vaziyatlarda boshqaruv va xavfsizlikni ta'minlash sohalari uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy o'quv yurti bo'lib, akademiyaning ta'lim yo'nalishlari ko'plab sohalarni qamrab olgan. Ulardan biri – "Legal and Regulatory Management" ta'lim yo'nalishida favqulodda vaziyatlarda boshqaruv va xavfsizlik sohasi uchun oliy ma'lumotli yuridik kadrlar tayyorlanadi.

**Favqulodda vaziyatlar sohasida yurisprudensiya ta'limining amaliy va strategik ahamiyati**

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning "Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval **"Huquqni anglash mas'uliyat hissini rivojlantiradi"** deb aytgan hikmatli so'zlari hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi"[7] deya ta'kidlaganliklari har qanday sohaning yanada rivojlanishi bevosita yuridik kadrlar salmog'i va ularning salohiyatiga bog'liqligini belgilaydi.

Zero, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish sohasida huquqni qo'llash va norma ijodkorligi faoliyatini yanada takomillashtirish bevosita, shuningdek, idoralararo hamkorlikdagi faoliyatga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaldagilarini yanada takomillashtirish bo'yicha vazifalarning to'laqonli bajarilishida muhim o'rin egallaydi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi zimmasidagi vazifalarning murakkabligi, ko'p tarmoqliligi va yuksak javobgarlikni talab qilishi ushbu tizimda xizmat qilayotgan mutaxassislarning nafaqat texnik-muhandislik, balki chuqur huquqiy bilimga ega bo'lishini taqozo etadi. Chunki favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq holatlar ko'pincha fuqarolarning Konstitutsiyamizda belgilangan huquq va erkinliklariga, davlat mulkiga, ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar bilan uzviy bog'liqdir.

Huquqiy bilimga ega kadrlar qonunchilik asosida tezkor qarorlar qabul qilishi, aholi manfaatlarini himoya qilishi, xalqaro normalarni hisobga olib harakat qilishi mumkin. Bu esa davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, fuqarolarning ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining $39^1$-moddasida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar ro'yxati keltirilgan bo'lib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi davlat yong'indan nazorat qilish organlari yong'inlarga doir va yong'inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvlarni amalga oshiradilar. Shuningdek, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hududiy boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalari Qurolli Kuchlar tuzilmalari hisoblanadi hamda kodeksning ushbu moddasi talablariga ko'ra, harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yoxud o'quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvlarni amalga oshirishlari lozim yoki kodeksning $39^2$-moddasi talablariga ko'ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning boshlig'i sifatida harakat qila turib, tergovga qadar tekshiruvni boshlashga yoki o'ziga bo'ysunuvchi boshqa mansabdor shaxsga uni yuritishni topshirishga haqli.

Ma'lumki, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar zimmasiga zarur choralar ko'rish vazifasi, shu jumladan, jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, ushbu kodeksning qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so'ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda zarur choralar ko'rish vazifasi yuklatiladi.

Shunday ekan Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy xizmatchilari vazirlik zimmasiga yuklatilgan vazifalar va berilgan vakolatlar doirasida tergovga qadar tekshiruvni o'tkazuvchi mansabdor shaxs sifatida o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga qat'iy amal qilishlari, bu borada yetarli yuridik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 249-moddasida belgilanishicha, davlat yong'indan nazorat qilish organ-

7 Mirziyoyev Sh.M. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". 4-tom. T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2020-yil, 99-bet

lariga ushbu Kodeksning 84 *(O'rmonlarda yong'in xavfsizligi talablarini buzish),* 124 *(Transportda yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish),* 211-moddalarida *(Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish)* nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Ushbu Kodeksning 249[1]-moddasida belgilanishicha, ushbu Kodeksning 204[1]-moddasida (Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik) nazarda tutilgan huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlarining mansabdor shaxslari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzadi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ko'rib chiqish uchun ushbu Kodeksning 282-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi.

Yurtboshimiz rahbarligida so'nggi yillarda mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar, inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning huquqiy ongini va huquqiy savodxonligini yanada oshirish borasida amalga oshirilayotgan tizimli va keng ko'lamli ishlar natijasida fuqarolarning huquqiy dunyoqarashlari kengayib, fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatda tutgan o'rni mustahkamlanib bormoqda. Bu esa davlat mansabdor shaxslari va davlat nazorati funksiyasini amalga oshiruvchi vakolatli davlat xizmatchilaridan yanada kuchliroq bilim va mas'uliyatni talab etishi tabiiy holdir.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi 185-sonli farmoniga asosan respublikamiz aholisi va hududlarini favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilishda ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda ilmiy-texnik yondashuvlar asosida samarali profilaktika va davlat nazoratining yangi mexanizmlarini yo'lga qo'yish hamda sohaga zamonaviy raqamli yechimlarni joriy etish bo'yicha milliy tajribani yaratish maqsadida ayni kunlarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida konseptual islohotlar amalga oshirilmoqda. Muhim o'zgarishlardan biri sifatida favqulodda vaziyatlar sohasida barcha nazorat funksiyalarini yagona tartib asosida amalga oshiruvchi favqulodda vaziyatlar organlari davlat nazorati (bosh, katta, kichik, yetakchi) inspektori, ya'ni umumiy nom bilan davlat inspektori lavozimi joriy etilganligini alohida ta'kidlash lozim. Bu ham o'z-o'zidan vazirlik tizimlarida oliy yuridik ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirishi tabiiy hol.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrdagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunida Favqulodda vaziyatlar vazirligi terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi 27-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga asosan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi jamoat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy subyektlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-dekabrdagi "Favqulodda holat to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunida ushbu qonun ijrosini ta'minlash vazifasi eng avvalo Favqulodda vaziyatlar vazirligi, so'ngra esa Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar zimmasiga yuklatilgan. Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunida Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi etib belgilangan. Vazirlik o'z zimmasidagi ushbu vazifalarni bajarishi bevosita huquqni qo'llash va norma ijodkorligi faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlari zimmasiga ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar yuritilishi yuklatilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Bu esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, tizimda xizmat qilayotgan xodimlar maxsus yuridik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini taqozo etadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligining amaldagi shtatlar tuzilishiga ko'ra, yuridik ta'minlash xizmatlari, Akademiya, uning huzuridagi Malaka oshirish markazi hamda Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyining huquqshunoslik fanlari professor-o'qituvchilari (pedagoglari) lavozimlarini qat'iy ravishda yuridik ma'lumotga ega mutaxassislar bilan jamlash talab etiladi.

Vazirlik favqulodda vaziyatlar profilaktikasi or-

ganlari, strategik rejalashtirish, tahlil va inspektorlik, ijro intizomi, ichki nazorat, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, rejim, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar, kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish tuzilmalaridagi lavozimlarni esa ustun ravishda yuridik ma'lumotga ega mutaxassislar bilan jamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda g'oyat muhim o'rinda turadi. Eng asosiysi, yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugungi hayotdan rozi bo'lib yashashi davlatning bosh maqsadiga aylanib bormoqda" deya ta'kidlanganligi[8] har bir davlat xizmatchisining zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

**Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishning dolzarbligi va zarurati**

Birinchi navbatda, favqulodda vaziyatlarda, ayniqsa, tabiiy ofatlar, texnologik halokatlar yoki insoniyatga tahdid soluvchi holatlarda huquqiy jihatlar katta ahamiyatga ega. Bunday vaziyatlarda vazirlik tizimida xizmat qilayotgan mutaxassislarning milliy qonunchilik va huquq tizimini bilishi jamiyatning xavfsizligini ta'minlash va muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Shuningdek, vazirlik tizimidagi lavozimlarda yuridik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarning xizmat qilishi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, shu jumladan, reabilitatsiya jarayonlarida fuqarolarga, favqulodda vaziyatlardan jabrlangan aholiga huquqiy maslahatlar taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

XXI asr – globallashuv va integratsiyalashuv asrida barcha sohalarda xorijiy aloqalar rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda insonlar hayotini turli tabiiy ofatlardan, texnogen favqulodda vaziyatlardan qutqarish, asrash borasida jahon andozalariga mos tarzda normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda, albatta, yuridik kadrlarga sezilarli darajada ehtiyojlar mavjud.

Umuman olganda, sohada malakali mutaxassislar tayyorlash nafaqat huquqni bilish, balki fuqarolarni himoya qilish, qonuniy asoslarni rivojlantirish va jamiyatni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashni ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Zero, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida insonlarning hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq masalalar, huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlarni qonuniy hal etish, albatta, sohaga oid yuksak huquqiy bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida yuridik kadrlar tayyorlashni amalga oshirish uchun tegishli bakalavr yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini tashkil etish bugungi kunning muhim vazifasi hisoblanadi.

#

8 Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-yil, 69-bet

**Yesemurat KANYAZOV,**
**Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori, yuridik fanlar nomzodi**

# KONSTITUTSIYADA MUSTAHKAMLANGAN TA’LIM VA HUQUQIY YORDAM KAFOLATLARI: YURIDIK KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH MISOLIDA

***ANNOTATSIYA.*** *Maqolada O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, yuridik ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining yangi konstitutsiyaviy tamoyillar asosida takomillashtirilishi tahlil qilingan. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ta’lim olish huquqi, malakali yuridik yordam kafolatlari, advokatura institutining mustaqil maqomi kabi huquqiy normalarning mustahkamlanishi yuridik ta’lim tizimini rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilayotgani ko‘rsatilgan.*

*Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyati, uning vazifalari va yuridik kadrlar salohiyatini oshirishdagi o‘rni atroflicha yoritilgan. Advokatlar, yuridik xizmat xodimlari, notariuslar, sud ekspertlari, ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining zamonaviy talablar asosida malakasini oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlari, masofaviy ta’lim, “Raqamli institut” platformasi, case-study va simulyatsiya kabi innovatsion pedagogik usullardan foydalanish tendensiyalari ochib berilgan.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В статье анализируются масштабные реформы, проводимые в последние годы в судебно-правовой сфере Узбекистана, в частности совершенствование системы юридического образования и подготовки кадров на основе новых конституционных принципов. Отмечено, что закреплённые в новой редакции Конституции, принятой в 2023 году, нормы о праве на образование, гарантиях получения квалифицированной юридической помощи и самостоятельном статусе института адвокатуры служат важной правовой основой для развития системы юридического образования.*

*В статье всесторонне раскрывается деятельность Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции Республики Узбекистан, его задачи и роль в повышении профессионального потенциала юридических специалистов. Освещены современные образовательные программы, направленные на повышение квалификации адвокатов, сотрудников юридических служб, нотариусов, судебных экспертов и преподавателей учебных заведений; тенденции применения дистанционного обучения, платформы «Цифровой институт», а также инновационных педагогических методов — таких как case-study и симуляционные тренинги.*

***ABSTRACT.*** *The article analyzes the large-scale reforms carried out in recent years in the judicial and legal sphere of Uzbekistan, particularly the improvement of the system of legal education and personnel training based on the new constitutional principles. It is noted that the provisions enshrined in the new edition of the Constitution, adopted in 2023 – such as the right to education, guarantees of receiving qualified legal assistance, and the independent status of the bar – serve as an important legal foundation for the development of the legal education system.*

*The article provides a comprehensive overview of the activities of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, its tasks, and its role in enhancing the professional potential of legal specialists. It highlights modern educational programs aimed at improving the qualifications of advocates, legal service staff, notaries, forensic experts, and educators; the use of distance learning, the “Digital Institute” platform, and innovative pedagogical methods such as case studies and simulation-based training.*

***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, yuridik ta’lim, kadrlarni tayyorlash, yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, advokatura, masofaviy ta’lim.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, юридическое образование, подготовка кадров, переподготовка и повышение квалификации юридических кадров, адвокатура, дистанционное обучение.*

***Key words:*** *Constitution, legal education, personnel training, retraining and advanced training of legal personnel, bar (advocacy), distance learning.*

O‘zbekiston so‘nggi yillarda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida keng ko‘lamli islohotlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Xususan, sud-huquq tizimi, jumladan, yuridik fan va ta’lim sohasini zamon talablariga asosan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu islohotlar zamirida huquqiy davlat qurish, qonun ustuvorligini ta’minlash va bu jarayonlarda huquqshunos kadrlar salohiyatini oshirish kabi muhim maqsadlar yotadi. 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakatimizda inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan bir qator normalar mustahkamlandi[1].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya milliy huquqiy tizimni demokratlashtirish, inson qadrini ulug‘lash va huquqiy davlat barpo etish g‘oyalarini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tardi. Ta’lim olish huquqining

1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

konstitutsiyaviy kafolatlari kuchaytirildi, fuqarolarning malakali yuridik yordam olish huquqi alohida norma sifatida kiritildi, advokatura institutining mustaqil maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Konstitutsiyada belgilangan ta’lim olish huquqi va uning kafolatlari yuridik ta’lim tizimi uchun mustahkam huquqiy asos yaratib berdi. Mamlakatimizda aynan shu konstitutsiyaviy tamoyillardan kelib chiqib keng qamrovli yuridik ta’lim tizimi rivojlantirilmoqda. Misol uchun, yurtimizda yurisprudensiya yo‘nalishida bir necha ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlari va ta’lim tashkilotlari faoliyat ko‘rsatib, har yili minglab mutaxassislar huquqshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha kadrlarni tayyorlamoqda va malakasini oshirmoqda.

Yuridik ta’lim tizimi Konstitutsiyada belgilangan ta’lim huquqi prinsiplaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritar ekan, u nafaqat malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlash, balki jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish vositasi hamdir. Yuqorida ta’kidlanganidek, Konstitutsiyaga advokatura va malakali huquqiy yordamga oid normalar kiritilishi bilan bir qatorda, amaliyotda bu kafolatlarni ro‘yobga chiqarish uchun zarur institutlar va mexanizmlar yaratilmoqda.

Jumladan, 2024-yil 24-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 80-sonli farmoni[2] bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida yangi muassasa – Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutini tashkil etish vazifasi belgilandi. Mazkur farmon ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-sonli qarori qabul qilinib, unda Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi[3].

Yuridik kadrlarning bilim va malakasini yanada oshirish orqali jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi va shaffoflik tamoyillarini yanada chuqurroq singdirishga mazkur institutning tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Institutning asosiy vazifalaridan biri – adliya organlari, yuridik xizmatlar, advokatura, notariat, sud ekspertizasi, intellektual mulk, mediatsiya, arxiv ishi kabi sohalar xodimlarini zamonaviy talablar darajasida uzluksiz o‘qitish va malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yishdan iborat ekanligini ham alohida ta’kidlash zarur.

Ko‘rinib turibdiki, institut qamrab oladigan tinglovchilar doirasi juda keng, u nafaqat adliya organlari xodimlari, balki korxona-tashkilotlarning yuriskonsultlari, advokatlar, notariuslar, hatto maktab va kollejlarda huquq fanlaridan dars beruvchi o‘qituvchilargacha barcha uchun qayta tayyorlanish va malaka oshirish imkoniyatini yaratadi. Bunday vazifalarning aniq belgilanishi esa, yuridik kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun yaxlit tizim yaratilganligidan dalolat beradi.

Mazkur jarayonlarda advokatlar malakasini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikka ko‘ra, advokat o‘z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, belgilangan tartibda uch yilda kamida bir marta kasbiy malakasini oshirishi shart[4].

Hozirgi kunda institut tomonidan advokatlar malakasini oshirishda zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash orqali o‘quv dasturlari doimiy ravishda yangilanib, ularga kazusli tahlil (case-study) va simulyatsiya kabi amaliy usullar kiritilmoqda. Bunday o‘quv mashg‘ulotlari yordamida advokatlar muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, bahs-munozara yuritish, ishonch bildiruvchi shaxslar bilan muloqot qilish kabi muhim ko‘nikmalarini amaliyotga yaqin sharoitda shakllantirmoqda. Natijada ularning kasbiy mahorati va huquqni qo‘llash ko‘nikmalari yanada rivojlanmoqda.

Shuningdek, institut faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Xususan, maxsus elektron ta’lim platformalari va masofaviy o‘quv kurslari joriy etilgan. Xususan, “Raqamli institut” platformasi ishga tushirilib, u orqali tinglovchilar o‘z bilim darajasini mustaqil ravishda onlayn testlar bilan baholashi, shaxsiy elektron portfolio yuritishi va hatta o‘zi uchun individual shaklda tanlov asosida o‘quv modullarini o‘zlashtirishi mumkin.

Institutda advokatlar uchun maxsus malaka

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi 80-sonli farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.11.2025-y., 06/25/232/1102-son.

3 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.03.2025-y., 09/25/171/0258-son.

4 O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi 349-I-sonli qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son.

oshirish kurslari faoliyati ham yo'lga qo'yilganligini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, jinoyat, iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy sud ishlarida advokatning o'rni, advokatning fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha mediatorlik ko'nikmalari, xalqaro arbitrajda vakillik va yana bir qator dolzarb mavzularda qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etilmoqda. Birgina 2025-yilning o'tgan 11 oyi davomida institut tomonidan 939 nafar advokatning malakasi oshirildi.

Shu bilan birga, institut faoliyatida xalqaro miqyosda raqobatbardosh yuridik kadrlarni tayyorlash ham muhim o'rin tutadi[5]. Institutda xalqaro miqyosda O'zbekiston manfaatlarini munosib himoya qila oladigan, xorijiy investorlar bilan muzokara olib borishga, yirik loyihalarda huquqiy ekspertiza yuritishga, xalqaro nizolarni hal etishga qodir yangi avlod yuridik kadrlarini tayyorlash bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olgan Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha qisqa muddatli professional o'qitish kurslari yo'lga qo'yilgan.

Ushbu kurslarning eng muhim jihatlaridan biri – mashg'ulotlar xalqaro yuridik amaliyotda ulkan tajribaga ega bo'lgan nufuzli xorijiy yuridik firmalar ekspertlari tomonidan o'tkazilayotganidir. Xususan, o'quv jarayoniga "White & Case", "Baker Botts", "CMS", "Curtis", "Mayer Brown", "Foley Hoag", "Squire Patton Boggs" kabi dunyoning yetakchi yuridik kompaniyalaridan yuqori malakali ekspertlar jalb qilinadi. Ularning bevosita ishtiroki kurslarda o'rganilayotgan mavzularning real xalqaro amaliyotga mos, dolzarb va zamonaviy bo'lishini ta'minlamoqda.

Kurslarda tinglovchilarga xalqaro investitsiya nizolari, arbitraj jarayonlari, EPC (loyiha, xarid va qurilish) shartnomalari, energetika loyihalarini moliyalashtirish, xalqaro kapital bozorlari, JST huquqi, shartnomaviy munosabatlarni yuritish, muzokara olib borish texnikalari, yirik PPP (davlat-xususiy sheriklik) loyihalarining huquqiy mexanizmlari kabi murakkab yo'nalishlarda global darajadagi ekspertlar tomonidan chuqur tahliliy ma'ruzalar, interaktiv seminarlar va amaliy case-studylar taqdim etildi.

Masofaviy ta'lim, aralash ta'lim shakllari, xalqaro amaliyotdan olingan real case-studylar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar Konstitutsiyada belgilangan "Innovatsion va zamonaviy ta'lim muhiti" tamoyilining amaliyotga tatbiq etilayotganini hamda mamlakatimizda xalqaro maydonda raqobatbardosh, kompleks yuridik kompetensiyalarga ega, strategik darajada fikrlay oladigan kadrlar tayyorlashga bo'lgan siyosiy irodani, shuningdek, yuridik ta'limning butunlay yangi bosqichga ko'tarilayotganining yaqqol dalilidir. Bu esa Konstitutsiyada belgilangan "ilm-fan yutuqlariga asoslangan, zamonaviy va sifatli ta'lim tizimini yaratish" talabining bevosita amaliy ifodasini o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi 232-sonli farmonida[6] yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutiga yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kursini bitirgan va belgilangan namunadagi diplomni olgan shaxslarga yuridik maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi tijorat tashkilotlarida yuridik maslahat xizmati bilan shug'ullanish huquqini berish bo'yicha hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish vazifasi topshirildi. Bu esa yuridik sohani malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasidagi muhim qadamlardan biri hisoblanishini ham alohida qayd etish joiz.

Shuningdek, institut tomonidan "Yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha respublika doirasida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish belgilangan bo'lib, yuridik ta'limning ilmiy-uslubiy darajasini muntazam oshirish, xorijiy tajribani tatbiq qilish hamda ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash bo'yicha kompleks mexanizmlar joriy etildi.

Yangi Konstitutsiya esa ushbu jarayonlarga institutsional darajada konstitutsiyaviy asos yaratdi. Unda ta'limning uzluksizligi va sifatini kafolatlash, ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikka ochiqlik, mutaxassislarning malakasini oshirishni rag'batlantirish kabi tamoyillar aniq belgilab berilgan.

Shuningdek, institutda tegishli ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar qabul qilinib, ular dolzarb mavzular kesimida ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Institut pro-

5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2025-y., 09/25/171/0258-son.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 232-sonli farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.11.2025-y., 06/25/232/1102-son.

fessor-o‘qituvchilari tomonidan adliya organlari va muassasalarining hozirgi faoliyati, kelajakdagi istiqbollari, huquqiy xizmatlar ko‘rsatish, sud ekspertizasi, arxiv ishi va ish yuritish sohalariga doir ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida belgilab qo‘yilgan har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi kafolatlanishining natijasi o‘laroq deyishimiz mumkin[7].

Fikrimizcha, yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan belgilangan ochiqlik, qonun ustuvorligi va professional davlat boshqaruvi tamoyillari O‘zbekistonni xalqaro maydonda munosib tarzda himoya qiladigan, global iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etadigan yuridik kadrlar tayyorlashga keng yo‘l ochdi. Bugungi professional o‘quv dasturlari esa mamlakatning strategik maqsadlari – investitsiyalarni jalb qilish, shaffof iqtisodiyotni qurish, xalqaro arbitraj va sud nizolarida samarali ishtirok etish, xalqaro maydonda davlat manfaatlarini himoya qilish kabi ustuvor yo‘nalishlar bilan to‘liq uyg‘unlashgan holda jadal rivojlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari, yuridik fan va ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlar uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. Bunday talablar va sud-huquq islohotlari yurist kadrlardan nafaqat qonuniylikni ta’minlash, balki innovatsion fikrlash, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay bilish, xalqaro-huquqiy me’yorlarni anglash kabi sifatlarni ham talab etadi.

#

7 O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-сон

**Sherzod ZULFIQOROV,**
**Jamoat xavfsizligi universiteti boshligʻi oʻrinbosari, yuridik fanlar doktori, professor**

# YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA MUSTAHKAMLANGAN QONUNCHILIK PALATASI DEPUTATLARINING PARLAMENT NAZORATI SHAKLLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHINING ILMIY-AMALIY JIHATLARI

***ANNOTATSIYA.*** *Mazkur maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan bogʻliq parlament faoliyatiga doir tushunchalar; parlament tekshiruvi, parlament soʻrovi, deputat soʻrovi kabi institutlar mazmun-mohiyati, xorijiy davlatlar tajribalari, amaliy tahlillar, parlament faoliyatiga doir normalarni amalga oshirish mexanizmi kabi masalalar atroflicha tartibga solingan.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В настоящей стате комплексно регламентируются такие вопросы, как понятия, относящиеся к парламентской деятелности в связи с новой редаксией Конституции; содержание и сущност таких институтов, как парламентский контрол, парламентское расследование и депутатское расследование; опыт зарубежных стран, практический анализ, а также механизм реализатсии норм, связанных с парламентской деятелностю.*

***ABSTRACT.*** *This article comprehensively regulates such issues as concepts related to parliamentary activity in connection with the new version of the Constitution; the content and essence of such institutions as parliamentary control, parliamentary investigation and parliamentary investigation; the experience of foreign countries, practical analysis, as well as the mechanism for implementing the norms related to parliamentary activity.*

***Kalit soʻzlar:*** *parlament tekshiruvi, parlament soʻrovi, deputat soʻrovi, hukumat hisobdorligi, hukumat soati, deputat murojaati, deputat savoli, javobgarlik.*

***Ключевые слова:*** *парламентское расследование, парламентское расследование, подотчётност правителства, правителственный надзор, парламентская петиция, парламентский вопрос, подотчётност.*

***Key words:*** *parliamentary inquiry, parliamentary investigation, government accountability, government oversight, parliamentary petition, parliamentary question, accountability.*

Parlament nazorati sohasida nafaqat xorijiy mamlakatlar parlamentlarida, balki oʻzbek milliy parlamentarizmi tarixida ham oʻziga xos tajriba toʻplangan. Mazkur institut mamlakatimiz parlamenti ikki palatali shaklda faoliyat yurita boshlaganidan soʻng yanada takomillashtirildi. Parlament nazorati mansabdor shaxslarning masʼuliyatini oshirish va fuqarolar ongida qonunga hurmat ruhini shakllantirishda ham muhim vosita boʻlib hisoblanadi. Shubhasiz, parlament nazorati qonun chiqaruvchi organning hozirgi kundagi eng samarali koʻrinishi hisoblanadi. Parlament nazorati qonun hujjatlari taʼsirchanligini oshirishning va ayni chogʻda jamiyatning huquqiy ehtiyojlarini tezkor aniqlashning samarali vositasi hisoblanadi.

**Parlament nazorati** – bu mustaqil va qonuniy, tizimli vakillik organi faoliyati boʻlib, uning palatalari, qoʻmita va komissiyalari, palata aʼzolarining ijro hokimiyati va boshqa davlat organlarining inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini, qolaversa, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga rioya qilinishini taʼminlash hamda konstitutsiyaviy va joriy qonunlarning ijrosini nazorat qilish faoliyati hisoblanadi.

Alohida taʼkidlash lozimki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 18-noyabrdagi yangi shakllangan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi nutqida Qonunchilik palatasining, deputatlarning oʻrni va jamiyatdagi roli, uning maqomi va amalga oshirishlari lozim boʻlgan muhim vazifalarga alohida toʻxtalib oʻtgan edilar.

Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, yangi davrda parlament chinakam xalq uyi, uning quyi palatasi esa gʻoyalar generatoriga, sogʻlom raqobat, bahs va munozaralar maydoniga aylanishi kerak. Shuni ham alohida taʼkidlash lozimki, parlament nazorati avvalo siyosiy nazoratdir, uning oqibati ham siyosiy masʼuliyat bilan bogʻliqdir.

Darhaqiqat, **deputat – bu xalq xizmatchisi, barchaga oʻrnak boʻladigan, siyosiy bilimi va ongi yuksak, oʻz Vatanini chin dildan sevadigan inson-**

**dir. Deputatning ovozi – bu xalq ovozidir[1].**

Xabaringiz bor, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda parlament nazoratining ko'plab yangi shakllaridan samarali foydalanish masalalari Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yildi. Xususan, parlament tekshiruvi, parlament so'rovi, deputat so'rovi, hukumat a'zolarining hisobotini eshitish kabi bir qancha nazorat shakllarini sanab o'tish mumkin. Qolaversa, 2016-yil 11-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonunida parlament nazoratining o'n sakkiz xil shakli keltirib o'tilgan. Albatta, mazkur qonunchiligimizda keltirib o'tilgan parlament nazorati shakllaridan parlament a'zolari samarali foydalanishlari lozim bo'ladi.

Parlament nazoratining muhim ko'rinishi sifatida parlament va deputat so'rovi parlament a'zolarining davlat boshqaruvi organlari va mansabdor shaxslari bilan munosabatlarida muhim ahamiyatga ega. 2015-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq[2], "parlament so'rovi", "Qonunchilik palatasi deputati so'rovi" tushunchalariga alohida-alohida izoh berib o'tildi. Ya'ni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi – davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlarning, turli sohalardagi davlat dasturlarining ijrosi masalalari hamda ularning vakolatlariga kiradigan boshqa muhim masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini bayon etish talabi bilan **parlament so'rovi** yuborishga haqli. **Qonunchilik palatasi deputati** – davlat organlarining mansabdor shaxslariga, qoida tariqasida, tegishli saylov okrugi saylovchilarining qonuniy manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini bayon etish talabi bilan so'rov yuborishga haqli.

Amaldagi qonunchiligimizga kiritilgan yangi tartib bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi vakolatli vakili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolariga, davlat organlarining mansabdor shaxslariga yuborilgan parlament so'roviga o'z vaqtida javob yuborilishini ta'minlashga ko'maklashadi[3]. Bu yangi tartib parlament so'rovining natijadorligiga bevosita o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

So'rov yuborish tartibini tahlil qiladigan bo'lsak shuni alohida ta'kidlash lozimki, deputatlik so'rovini yuborish tartibi ixchamlashtirilgan, aniq belgilangan qoida asosida alohida deputat tomonidan yuboriladi. Parlament so'rovini yuborish mexanizmi esa murakkab bo'lib, ko'pchilik ovoz bilan tasdiqlangan parlament qarori asosida parlament nomidan yuboriladigan so'rovdir. Shu bilan birga, parlament so'rovi va deputat so'rovi o'z mexanizmi hamda muhokama qilish jarayoni bilan bir-biridan farqlanadi. Xususan, deputat so'rovi qoida tariqasida, tegishli masala yuzasidan mansabdor shaxsga yuborilgan so'rovga yozma tarzda javob qaytariladi, ushbu masala parlament palatasi muhokamasiga qo'yilmaydi. Parlament so'roviga esa tegishli mansabdor shaxslar yozma hamda og'zaki javob qaytarishi mumkin hamda parlament so'rovi yuzasidan palata majlisida muhokama qilinadi va tegishli qaror qabul qilinadi.

Deputat so'rovi yuborilgan mansabdor shaxs bir necha marta o'z vaqtida so'rovni ko'rib chiqmaganligi, to'liq va aniqlangan ma'lumotlarni bermaganligi, o'z vazifasiga mas'uliyatsizlik qilganligi uchun unga nisbatan tegishli ta'sir chorasi qo'llanilishi mumkin. Parlament so'rovi yuzasidan so'rov natijalari bo'yicha parlament o'zining pozitsiyasini bildirishi, ushbu holat yuzasidan tegishli qaror qabul qilishi, zarurat bo'lganda esa mansabdor shaxsni lavozimidan ozod qilish masalasini ko'rib chiqishi hamda bu bo'yicha tegishli ma'lumot kiritishi mumkin. Deputat so'rovi deputat tomonidan uni qiziqtiruvchi shaxsiy masala bo'yicha taqdim etilmaydi. Alohida shuni ta'kidlash lozimki, ko'rib chiqilayotgan nazorat shaklining samaradorligi faqatgina berilgan so'rovlar soniga emas, balki ular yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlarning sifatliligiga, shuningdek, javoblarning o'z vaqtida va to'liq berilishiga bog'liq bo'ladi.

Deputat so'rovi davlat organlarining bitta mansabdor shaxsi nomiga ham, bir necha mansabdor shaxsi nomiga ham yuborilishi mumkin. Deputat

1 https://president.uz/uz/lists/view/7711.

2 O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 -yil, 52-son, 645-modda

3 O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019-y., 03/19/536/3114-son

so'rovi qisqa, lo'nda va tushunarli tarzda yozilgan bo'lib, rasmiy blankada rasmiylashtiriladi va deputat tomonidan imzolanadi. Deputat so'rovi qaysi mansabdor shaxs nomiga yuborilgan bo'lsa, javob xati o'sha mansabdor shaxs yoki uning vazifasini bajaruvchi tomonidan imzolanadi va so'rov olingan kundan boshlab, boshqa muddat belgilangan bo'lmasa o'n kundan kechiktirmay, so'ralgan barcha hujjatlarni ilova qilgan holda deputatga yuboriladi.

2020 – 2024-yillar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga qonunlarning, turli sohalardagi davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan **72 ta parlament so'rovi** kiritilgan. Ta'kidlash lozimki, 2025-yilning birinchi yarim yilligida **5 marta** parlament so'rovi yuborilgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan yuborilgan so'rovlar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020 – 2024-yillar mobaynida deputatlarning joylarda o'tkazgan o'rganishlari, saylov okruglarida saylovchilar bilan uchrashuvlari jarayonida va fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilayotgan dolzarb muammolarni hal etish uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga jami ***1378 ta deputat so'rovi*** yuborilgan. Natijada aholini qiynab kelayotgan ko'plab masalalar turli darajada o'z yechimini topdi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, 2025-yilning birinchi yarim yilligining o'zida ***103 ta deputat so'rovi*** yuborilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonunining 21-moddasi parlament nazorati natijalariga qaratilgan bo'lib, mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish, ularni lavozimidan ozod etish to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar va tavsiyalar kiritishi parlament nazorati subyektlari vakolatlariga kiritilgan. Demak, mazkur vakolatdan Qonunchilik palatasi deputatlari samarali foydalanishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 193-moddasiga muvofiq, deputatlik va senatorlik faoliyatining kafolatlarini buzish holatlari tartibga solib qo'yilgan. Xususan, mansabdor shaxslar tomonidan parlament so'rovini, deputat, senator so'rovini ko'rib chiqmasdan qoldirish yoki ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish yoxud ular yuzasidan bila turib noto'g'ri ma'lumotlarni qasddan taqdim etish, – mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan etti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi[4].

Misol tariqasida, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksiga ko'ra, parlament a'zolari murojaat qilganlarida asossiz ravishda tegishli ma'lumotlarni o'z vaqtida bermaslik, shuningdek, yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish davlat organlari mansabdor shaxslariga nisbatan tegishli javobgarlikni keltirib chiqaradi[5]. Umuman, javobgarlikning shu tarzda qattiq belgilanishi, albatta, har bir mansabdor shaxsning o'z vazifasiga mas'uliyat bilan qarashiga turtki bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlarda deputatlar savoli tushunchasi va ahamiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, deputatlarning og'zaki savollariga aniq soat va kunlar ajratilgan. Majlis savollarga javoblar bilan boshlanadi. Savollarga javob beruvchi vazirlar keragida almashtirib turiladi. Haftasiga ikki marta (seshanba va payshanba) savollarga 15 daqiqa davomida Bosh vazir, boshqa kunlarda qolgan vazirlar javob beradilar. Vazir ba'zi bir savollarga javob bermasligi mumkin, ammo bu uning nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin[6]. Vazirlarga savol berilishi – faol foydalaniladigan parlament nazoratining shaklidir. Masalan, Germaniyada har bir deputat bir oy davomida Bundestag raisi orqali hukumatga to'rttadan ortiq bo'lmagan savol berish huquqiga ega.

Buyuk Britaniyada parlament hukumat faoliyati ustidan nazoratni ba'zi bir shakllarda amalga oshiradi, ya'ni Vakillik palatasi deputatlari hukumat a'zolariga savol yo'llaydi, ular esa palata majlislarida mazkur savollarga javob qaytaradi. Shuningdek, ular yozma javob tayyorlaydi, bu javoblar parlament hisobotlarida nashr etilib, jamoatchilikka e'lon qilinadi. Bizning parlament amaliyotimizda deputatlar tomonidan yo'llangan savollarga javoblar axborot shaklida jamoatchilikka tizimli tarzda yetkazilib turilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2016-yil 11-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi

4 O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz, 10.01.2019-y., 03/19/514/2450-son

5 Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. – М.: Интел Синтез, 1997 г. – С. 409.

6 Parlamentarizm: xorijiy davlatlar tajribasi.– Toshkent: Sharq, 2004-yil, 76-77-betlar

qonuni 101-moddasida Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish tartibi belgilab qo'yildi. Shuning natijasida o'tgan davrda parlament nazoratining yangi shakl va mexanizmlari hayotimizga kirib keldi. Jumladan, Qonunchilik palatasida hukumat a'zolarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish tartibi – "Hukumat soati" instituti joriy etildi. 2020 – 2024-yillarda **38 marta "Hukumat soati"** o'tkazilgan. Ta'kidlash lozimki, 2025-yilning birinchi yarim yilligida **4 marta** "Hukumat soati" o'tkazilgan.

So'nggi yillarda **"Elektron parlament"** tizimi doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha baholash va reyting tizimini joriy etish, ya'ni deputatlarning qonun ijodkorligi va parlament nazorati sohasidagi faoliyatini baholashning elektron tizimini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Bu esa deputatlarning o'z ustida ko'proq ishlashini talab etadi, xalq va parlament oldidagi mas'uliyati va javobgarligini oshiradi.

Yana bir muhim masala sifatida deputatning murojaati tushunchasini ham yoddan chiqarmasligimiz kerak. Ya'ni **deputatlik murojaati** – deputatning og'zaki va yozma tarzda vakolatli organga murojaat qilishi, uning oldiga deputatlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni olish bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatidir. Tegishli davlat organi va tashkilotlar deputat tomonidan qo'yilgan savolni o'z vaqtida ko'rib chiqishi va savoldan kelib chiqib javoblar qaytarishi, shuningdek, deputat tomonidan so'ralgan axborot va ma'lumotlarni berishlari lozim.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, deputatlik murojaati bilan deputatlik so'rovini aralashtirib yubormaslik lozim deb hisoblaymiz. Deputatlik murojaatida deputat tegishli organlar yoki mansabdor shaxslarga murojaat qiladi. Deputat so'rovida esa asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini bayon etish talabini qo'yadi. Deputatlik murojaati ko'p holatlarda og'zaki tarzda ifodalansa, deputatlik so'rovi esa yozma tarzda yuboriladi. Ko'p holatlarda murojaat orqali natijaga erishilmasa, murojaat keyinchalik rasmiy so'rovga aylanishi mumkin.

Darhaqiqat, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati murojaatini O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonuni 5-moddasiga parlament nazorati shakllari turi sifatida kiritib, mazkur yangi shakl huquqiy jihatdan tartibga solib qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ya'ni deputat fuqarolarning huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzish hollari yoki qonun hujjatlarini buzishning boshqa hollari ma'lum bo'lib qolgan taqdirda ularga darhol chek qo'yish choralarini ko'rish talabi bilan tegishli organlar hamda mansabdor shaxslarga og'zaki, yozma va elektron tarzda murojaat etishga haqli. Deputatlik vakolatlari doirasida savollar berishi hamda o'zini qiziqtirgan ma'lumot va axborotlarni olish huquqi ega. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda hozirgi kunda fuqarolarimizning ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanayotganligini nazarda tutgan holda parlament so'rovi bo'yicha olingan javoblarning maxsus internet tarmoqlariga joylashtirilishi jamoatchilik nazoratining yo'lga qo'yilishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

Xulosa o'rnida quyidagi taklif va mulohazalarga to'xtalib o'tmoqchimiz:

*birinchidan*, mansabdor shaxslar tomonidan qonunlar ijrosining ta'minlanishini nazorat qilishda parlament va deputat so'rovi, parlament eshituvi, "Hukumat soati" kabi institutlardan yanada kengroq foydalanish lozim;

*ikkinchidan*, parlament va deputat so'rovidan foydalanish tartibini Qonunchilik palatasi Reglamentida mufassal tarzda mexanizmini yoritib berish, qolaversa, qonunchilikda parlament va deputat so'rovi natijasi yuzasidan javobgarlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratish lozim;

*uchinchidan*, parlament va deputat so'rovini tayyorlash, yuborish, nazoratini amalga oshirish jarayonida aniqlangan kamchilik, nuqsonlarni bartaraf etish bilan bog'liq masalalar ijrosi yuzasidan doimiy monitoringni olib borishni kuchaytirish;

*to'rtinchidan*, parlament nazoratini amalga oshirish yuzasidan yuzaga keladigan bo'shliqlarni to'ldiradigan masalalar yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini ko'paytirish;

*beshinchidan*, parlament nazorati samaradorligidan kelib chiqib, har bir nazorat shakli bo'yicha **natija indikatorlari** (KPI) hamda **nazorat faoliyati bo'yicha yillik indeks joriy qilish.** Ya'ni deputatlar kesimida: so'rovlar soni, samaradorligi, natijasi; vazirliklar kesimida: ijro intizomi, javob sifatini baholash va hokazo.

#

**Xojimurod ODILQORIYEV,**
**Kriminologiya tadqiqot institutining yetakchi ilmiy xodimi,**
**yuridik fanlar doktori, professor**

# O‘ZBEKISTONNING YANGILANGAN KONSTITUTSIYASI – ZAMONAVIY KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH ASOSI

***ANNOTATSIYA.*** *Maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy mazmun-mohiyati, muhim xususiyatlari va kiritilgan yangi konstitutsiyaviy qoidalar ilmiy talqin etilgan. Uning bir qator moddalarida huquqiy madaniyatni yanada mukammallashtirishga oid taklif hamda mulohazalar ilgari surilgan.*

*Asosiy qonun zamiriga qo‘yilgan quyidagi g‘oyalar, ya’ni inson qadrini ulug‘lash, ahamiyati dunyo miqyosida e’tirof etilayotgan xalqparvar adolatli ijtimoiy davlatni barpo etish, fuqarolarning daxlsizligi huquqi va qonuniy manfaatlarni ta’minlashning konstitutsiyaviy kafolatlarini kuchaytirish, huquqiy madaniyat yuksalishida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining tashabbuskorligini rag‘batlantirish kabi normalar sharhlab berildi. Ular faoliyatini yanada takomillashtirishga oid masalalar ilmiy tahlil etildi.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В статье научному осмыслению подвергаются основное содержание и сущность, важные особенности, а также предлогеамые новые конституционные положения проекта новой редакции Конституции Республики Узбекистан. Выдвигаются предложения и замечания, направленные на дальнейшее совершенствование правовой культуры.*

*Приведены дополнительные аргументы, обосновывающие необходимост проводимых конституционных реформ, а также прокоментированы следующие основные идеи, положениные в основу обновления Основного закона, а именно возвышение человеческого достоинства, создание гуманного справедливого социального государства значение которого признается на мировом масштабе, усиление конституционных гарантий, обеспечения права гражданина на неприкосновенность и их законных интересов, поощрение инициативы государственных органов и институтов гражданского общества в развитии правовой культуры. Также были научно проанализированы вопросы относително, связанные с далнейшим совершенствованием их деятелности.*

***ABSTRACT.*** *In the article, the main content and essence, important features, as well as proposed new constitutional provisions of the draft new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan are subjected to scientific understanding. Suggestions and comments are put forward aimed at further improving the legal culture.*

*Additional arguments are given to substantiate the need for ongoing constitutional reforms, and the following basic ideas underlying the renewal of the Basic Law are commented on, namely the elevation of human dignity, the creation of a humane, fair social state, the importance of which is recognized on a global scale, the strengthening of constitutional guarantees, ensuring the citizen’s right to immunity and their legitimate interests, encouraging the initiative of state bodies and civil society institutions in the development of legal culture. Issues related to further improvement of their activities were also scientifically analyzed.*

***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, konstitutsiyaviy madaniyat, inson qadrini ulug‘lash, ijtimoiy davlat, fuqarolar huquqlarining kafolatlari, konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar, demokratik qadriyatlar.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, конституционная культура, возвышение человеческого достоинства, социалное государство, гарантии прав граждан, конституционно-правовые механизмы, демократические ценности.*

***Key words:*** *Constitution, constitutional culture, elevation of human dignity, social state, guarantees of citizens’ rights, constitutional and legal mechanisms, democratic values.*

## Kirish

Konstitutsiyaning yangilanishi mamlakatni modernizatsiya qilishning uzviy qismi ekanligini ta’kidlash lozim. Konstitutsiyani modernizatsiya qilish – bu Asosiy qonunning nafaqat sifat jihatidan o‘zgarishi, balki Konstitutsiyaning uzviyligi va barqarorligini ta’minlash asosida uning tartibga solish salohiyatini yanada oshirishdan iboratdir.

Jamiyatimiz hayot tarzini va davlatchilik tizimimizni tubdan yangilash, mamlakatni jadal innovatsion rivojlanish izlariga o‘tkazish zarurati bunga tegishli huquqiy zamin yaratilishini taqozo etayotganligi tabiiy holdir. Bunday yangilanishlar va barcha sohada transformatsiyalashni ta’minlash avvalo Konstitutsiyani ushbu zamonaviy talablarga mos tarzda isloh qilishning, shuningdek, amaldagi qonunchilik tizimini ham muayyan modernizatsiya qilishni kun tartibiga qo‘ydi.

## Izlanish materiallari va metodlari

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishining obyektini O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazishning nazariy-metodologik jihatlari va Asosiy qonunni yangilashning, davr talablariga mos tarzda takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari tashkil etadi. Tadqiqotning maqsadi – Konstitutsiyani mukam-

mallashtirish va uning asosida butun qonunchilik tizimini modernizatsiya qilish tendensiyalarini hamda yo'nalishlarini tahlil etishdan iborat. Tadqiqotning belgilangan maqsadlariga erishish uchun ilmiy izlanishning quyidagi metodlariga tayanildi: mamlakatimiz Konstitutsiyasi amal qilishi va takomillashuvining dialektikasini anglash uchun ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy o'rganish, deduktiv analiz va sintez, ijtimoiy so'rov va hokazo.

Konstitutsiyani yangilash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan quyidagi g'oyalar hamda asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi:

birinchidan, inson qadrini ulug'lash va uni izchil yuksaltirish Bosh qomusimizning mag'ziga singdirilishi ustuvor vazifa sanaladi. Unda shaxsiy hayot daxlsizligini va uning kafolatlari oliy darajada mustahkamlanishi ko'zda tutiladi;

ikkinchidan, Asosiy qonunimizda adolatli va insonparvar davlat barpo etish maqsadida "ijtimoiy davlat" tamoyilini mustahkamlash;

uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari bo'lmish siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tuzilmalari (mahallalar), uyushmalar, jamg'armalar va boshqa jamoat birlashmalarining o'rni, maqomini yanada mustahkamlash;

to'rtinchidan, fuqarolarning daxlsizligini kafolatlash, uy-joyga bo'lgan huquqlarini ta'minlash;

beshinchidan, Konstitutsiyada xususiy mulk himoyasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan konstitutsiyaviy kafolatlarni kuchaytirish. Mulkdor sud qarorisiz, o'zining roziligisiz, tovon pulisiz mulkdan mahrum etilmasligini belgilash;

oltinchidan, Asosiy qonunda insonning mehnat qilish va munosib turmush sharoitlariga, ishsizlikdan himoyalanishga bo'lgan huquqlarining ishonchli kafolatlarini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish (kelgusida butunlay tugatish) – konstitutsiyaviy islohotlarni bosh maqsadidir;

yettinchidan, oilaning konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirish maqsadida "oila erkak va ayolning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi" asosida shakllantirilishini mustahkamlash;

sakkizinchidan, fuqarolarning ekologiyaga oid huquqlari va majburiyatlarini konstitutsiyaviy normalarda aks ettirish;

to'qqizinchidan, xalq hokimiyatchiligini real amal qilishi uchun zarur huquqiy mexanizmlarni ifodalash hamda yanada kuchaytirish muhimligi e'tirof etildi.

Ana shunday yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar orqali mamlakatimizda inson qadrini chinakamiga oliy qadriyat, benazir ne'mat darajasiga ko'tarishga erishish mumkin. Buning uchun fuqarolarimizda yuksak huquqiy ong, konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyat, Asosiy qonunga cheksiz hurmat hissini ham shakllantirish lozim[1].

**Tadqiqotlar natijalari**

Zamonaviy sharoitlarda konstitutsiyaviy islohotlarni o'tkazish murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon bo'lib, uni muvaffaqiyatli, jamiyat va davlat rivojlanishi ehtiyojlariga mutanosib tarzda o'tkazish ham siyosiy, ham huquqiy jihatdan puxta ilmiy asoslangan yondashuv ta'minlanishini taqozo etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy novellalari quyidagilardan iborat.

Avvalo uning 1-moddasida "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" ekani qat'iy belgilab qo'yildi.

Ikkinchidan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi deb belgilanmoqda. Unda inson huquqlariga oid normalar 3 barobardan ziyod oshib, inson huquq va erkinliklari qonunlarning, barcha vazirlik va davlat idoralari faoliyatining mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida mustahkamlandi. Qonunlardagi noaniqliklar insonlar (fuqarolar) foydasiga hal bo'lishi shart deb ta'kidlandi.

Uchinchidan, davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi lozimligi e'tiborga molik.

To'rtinchidan, insonning yashash huquqi qonun bilan muhofaza qilinishi, fuqarolarning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari sudning asoslantirilgan qarorisiz cheklanishi mumkin emasligi, shuningdek, shaxsning aybsizlik prezumpsiyasi tamoyilining konstitutsiyaviy asoslari hamda kafolatlari sezilarli tarzda kuchaytirilmoqda. Odil sudlovni amalga oshirishda "Xabeas korpus" va "Miranda qoidasi" institutlari

1 Qarang: https://8553-konstitutsiyaviy islohotlarning bosh maqsadi – inson qadri va manfaatlarini amalda ta'minlashdir html.

yanada kengaytirildi.

Beshinchidan, fuqarolarning huquqiy muhofazasini, ularning malakali yuridik yordam olish, xususan, advokat koʻmagidan foydalanish kafolatlari kuchaytirildi.

Oltinchidan, samarali, ixcham va xalqchil davlat boshqaruvi tizimi joriy etilmoqda. Parlamentarizm institutlarini kuchaytirish sari dadil qadam qoʻyildi.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Konstitutsiyaviy yangilanish nazariyasi va amaliyoti tahlilining asosiy maqsadi – ushbu islohotlarning mohiyatini anglab yetish, uning mazmuni va xususiyatlarini ochib berish, konstitutsiyaviy qonunchilik va amaliyot rivojlanishi qonuniyatlarini va tendensiyalarini tadqiq etishdir.

Konstitutsiyaga qatʼiy rioya etgan holda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlarimiz milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, barqarorlik muhiti va huquqiy tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlash uchun muhim poydevor boʻladi. U xalqimizning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish, fuqarolarning bunyodkorlik salohiyatini roʻyobga chiqarish, tashabbuskorligini ragʻbatlantirish borasida beqiyos huquqiy kafolatlar yaratdi[2].

Jamiyatimizda yuksak konstitutsiyaviy-huquqiy tafakkur va konstitutsiyaviy madaniyatning shakllantirilishi, uning turmushimizning uzviy qismiga aylantirilishi ijtimoiy adolat hamda qonun ustuvorligini taʼminlashga ishonchli zamin yaratishi tabiiy. Shu munosabat bois "konstitutsiyaviy madaniyat"-ni qaror toptirish, uni izchil yuksaltirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi.

Soʻnggi yillarda milliy huquqshunosligimizda "konstitutsiyaviy madaniyat" voqeligini ilmiy va amaliy jihatdan talqin etishga eʼtibor sezilarli darajada kuchaydi. Xorijiy adabiyotlarda ham bu mavzuga oid ishlanmalar paydo boʻlmoqda. Jumladan, professor G.G.Arutyunyan "konstitutsiyaviy madaniyat" jamiyatda demokratik huquqiy xulq-atvor qoidalarini oʻrnatish hamda kafolatlash jarayonida tarixan shakllangan, ajdodlar va butun insoniyat tajribasi bilan boyitilgan, shu jamiyat hayotining asosini tashkil etuvchi muayyan eʼtiqodlar, tasavvurlar, huquqiy ongning qadriyatli tizimidir, deb taʼriflaydi[3].

Rossiyalik olim V.A.Kryajkovning fikriga koʻra, "konstitutsiyaviy madaniyat" jamiyat huquqiy hayotining muayyan sifat holati boʻlib, unda konstitutsiyaviy qadriyatlarni oʻzlashtirish va ulardan foydalanishning meʼyori aks etadi. Mazkur tushuncha Konstitutsiyaning rivojlanish darajasida, qonunchilikning, huquqni qoʻllash amaliyotining, huquqiy ongning konstitutsiyalashuvi holatida, shuningdek, inson va fuqarolar asosiy huquq va erkinliklarining kafolatlanishida namoyon boʻladi[4].

Konstitutsiyaviy madaniyatning holati va tavsifi tahlili asosida uning quyidagi belgi va xususiyatlarini eʼtirof etish mumkin:

*birinchidan,* konstitutsiyaviy madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida uning boshqa turlari, yaʼni iqtisodiy, siyosiy, diniy, maʼnaviy va boshqa koʻrinishlari bilan uzviy aloqador;

*ikkinchidan*, konstitutsiyaviy madaniyatni shakllantirmay turib mamlakatda mustahkam konstitutsiyaviy tuzumni qaror toptirish mumkin emas. Bu davlat va jamiyat hayotining Konstitutsiya asosida qatʼiy tashkil etilganligini nazarda tutadi;

*uchinchidan,* inson huquqlarining kafolatlanganlik darajasi konstitutsiyaviy madaniyat holatining asosiy koʻrsatkichidir. Inson va fuqaro huquq hamda erkinliklariga ustuvorlik berilishi konstitutsiyaviy madaniyatning muhim belgisi boʻlib, shaxsning jamiyatdagi mavqeyini, oʻz huquqiy martabasini anglashga, eʼtirof etilishiga koʻmaklashadi;

*toʻrtinchidan,* konstitutsiyaviy madaniyat demokratik huquqiy davlat barpo etilishining muhim sharti boʻlib u avvalo jamiyat rivojlanishining zamonaviy standartlarini qaror toptirishga, aholini har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltirilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga, fuqarolarning davlat ishlarida faol ishtirokini taʼminlashga xizmat qiladi;

*beshinchidan,* konstitutsiyaviy madaniyatda nafaqat huquqiy normativ va maʼnaviy, balki siyosiy-meʼyoriy jihatlar, yuridik faoliyatning ijobiy natijalari, shuningdek, odamlar va ular jamoalari uchun ijtimoiy-huquqiy faoliyat namunalari ifodalanadi.

2 Odilqoriev X.T. *Davlat hokimiyatining mohiyati va huquqiy qiyofasi tavsifi* / Davlat hokimiyati va huquqiy tizimni demokratlashtirish: ilmiy maqolalar toʻplami. – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2015-yil, 9-bet

3 Arutyunyan G.G. *Роль конституционной диагностики в обеспечении устойчивости общественного развития* // Конституционное правосудие (Вестник Конференции органов конституционного контроля стран молодой демократии). 2010 г., № 4 (50), С. 24-42.

4 Кряжков В.А. *Конституционная культура в зеркале правосудия Конституционного суда РФ* / журн. Конс. правосудие. 2008 г., № 3, С. 38.

Shunday qilib, *konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyat jamiyat* umumiy huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi, uning alohida shakli tarzida maydonga chiqadi. Ayni vaqtda jamiyatning huquqiy madaniyati shu jamiyatda harakatda bo'lgan qonunlar bilan, ayniqsa, Asosiy qonun – Konstitutsiya bilan bevosita aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Davlatimiz rahbari huquqiy madaniyat mavzusiga alohida e'tibor qaratib, 2019-yil 9-yanvardagi farmoni bilan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi"ni tasdiqlaganligi ham fikrimizning jonli dalilidir[5].

Professor T.V.Voronovichning ta'kidlashicha, konstitutsiyaviy madaniyat – Konstitutsiyaga moslik, konstitutsiyaviy qadriyatlar, insonning huquq va erkinliklari haqidagi bilimlarning oddiygina yig'indisi emas, balki bu bilimlarga munosabatdir, ya'ni ular hayot va faoliyatning regulyatoriga (tartibga soluvchi omiliga) aylandimi yoki yo'qmi? Mana shu bilimlarga, ma'naviy boylikka ijobiy munosabat shakllansagina konstitutsiyaviy madaniyat mavjudligi haqida gapirish mumkin. Zero, konstitutsiyaviy madaniyat inson va jamiyat hayotida ijodiy va tartibga soluvchi rol o'ynaydi[6]. Konstitutsiyaviy madaniyatning asosini yuksak rivoj topgan konstitutsiyaviy-huquqiy ong tashkil etadi. Shu bilan birga, jamiyat a'zolarida, davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolik jamiyati tuzilmalarida muayyan konstitutsiyaviy tafakkur, konstitutsiyaviy dunyoqarash qaror topishi lozim[7].

Yurtimizda ijobiy konstitutsiyaviy madaniyat shakllanganligi, bir tomondan, Konstitutsiya normalarini qo'llovchi organlar, mansabdor shaxslar, ijtimoiy tuzilmalarning risoladagidek faoliyatida, ikkinchi tomondan, Konstitutsiya va qonunlarning muhofaza mexanizmlari, mutasaddi idoralar va shaxslarning ijrochilik intizomida namoyon bo'ladi.

**Xulosa**

Mamlakatimizning istiqboldagi konstitutsiyaviy rivojlanishini bashorat qilib, quyidagi ikkita omilni ta'kidlash zarur deb hisoblaymiz. Birinchisi, konstitutsiyaviy model va tuzilishini to'xtatib qo'yish mumkin emas. Hatto Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya kabi ilg'or mamlakatlarning tajribasi ham Konstitutsiya va qonun hujjatlarida belgilangan davlat va huquq tizimining muntazam o'zgarishidan dalolat beradi. Ikkinchisi, konstitutsiyaviy tuzilmani qonuniy tartibga solishning to'liqligi va tabaqalanishi mamlakatning mahalliy mintaqalari yanada rivojlanishi, uning yutuqlari va ustuvorliklariga qarab o'zgaradi. Uchinchidan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning mazmunini ilmiy tadqiq va tahlil etishga jiddiy e'tibor qaratib, uning metodologik asoslarini ishlab chiqish, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishlarini va kompleks izlanishlarning mavzuli mundarijasini belgilab olish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, O'zbekistonning konstitutsiyaviy rivojlanish istiqbollari konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligi, Konstitutsiyada jamiyat qadriyatlarining ifodalanishi huquqiy madaniyat yuksalishi bilan bog'liq. Aynan Konstitutsiya jamiyat va davlat rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini qonuniy mustahkamlaydi va konstitutsiyaviy tartibga solish darajasiga ko'taradi, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida demokratik qadriyatlarni amalga oshirishning yangi huquqiy mexanizmlarini belgilaydi.

#

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni / http://old.lex.uz/docs/4149765

6 Воронович Т.В. *Конституционная культура: роль конституционного правосудия в ее формировании* // Вестник Конституционного суда Республики Беларус, 2011 г., № 2, С.103.

7 Islamov Z.M. *Konstitutsiya va huquq ustunligi prinsipi.* T. 2013-yil, 38-bet

**Xurshid KARIMOV,**
**Huquqni muhofaza qilish akademiyasi kafedra boshlig‘i,**
**yuridik fanlar doktori, professor**

# KONSTITUTSIYA – INSON BILAN DAVLAT ORGANLARINING O‘ZARO MUNOSABATLARIDA MUHIM HUQUQIY KAFOLAT

***ANNOTATSIYA.*** *Ushbu maqolada ma’muriy pretsedenti mavjud bo‘lgan jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish bilan bog‘liq nazariy va amaliy muammolar keng yoritiladi. Ma’muriy javobgarlik va jinoyat tarkibi o‘rtasidagi huquqiy chegaralar, ularning qo‘llanilishida uchraydigan normativ kolliziyalar hamda tergov va sud amaliyotida kuzatilayotgan turli talqinlar chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, inson va davlat organlari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarda vujudga keladigan barcha noaniqlik va ziddiyatli holatlarni inson manfaatlari foydasiga talqin etishni ko‘zda tutuvchi konstitutsiyaviy kafolatning amaliy ahamiyati alohida asoslab beriladi.*

*Maqolada shuningdek, amaldagi Plenum qarorlarining ayrim normalarini aniqroq belgilash, kvalifikatsiya mezonlarini bir xil tatbiq etish, tergov organlarida huquqiy aniqlikni kuchaytirish va sudlar tomonidan xatoliklarni minimallashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan. Muallif tomonidan keltirilgan xulosalar jinoyat huquqi nazariyasi hamda huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В статье представлен углублённый анализ теоретических и практических проблем квалификации преступлений, основанных на административной преюдиции. Рассматриваются границы между административной и уголовной ответственностью, выявляются нормативные коллизии, а также различия в правоприменительной практике следственных органов и судов, возникающие вследствие неоднозначности или неполноты законодательства. Особое внимание уделено конституционному принципу, согласно которому все противоречия и неясности в законодательстве, возникающие во взаимоотношениях человека с государственными органами, должны толковаться в пользу личности. Подчёркивается роль этого принципа в обеспечении верховенства права и защите прав граждан.*

*Кроме того, в статье сформулированы предложения по совершенствованию квалификационных критериев, уточнению отдельных положений постановлений Пленума Верховного суда, унификации следственной и судебной практики, а также снижению вероятности судебных ошибок. Представленные выводы способствуют повышению стабильности, единообразия и справедливости правоприменения.*

***ABSTRACT.*** *This article provides an in-depth examination of the theoretical and practical challenges associated with the qualification of crimes involving administrative prejudice. It analyzes the boundaries between administrative liability and criminal elements, explores various forms of normative collisions, and identifies inconsistencies and interpretive ambiguities that frequently arise in investigative and judicial practice. Special emphasis is placed on the constitutional principle that requires all contradictions and uncertainties in legislation emerging in the interaction between an individual and state authorities to be interpreted in favor of the person, highlighting its significance for ensuring legality and safeguarding human rights.*

*The article also proposes a set of scientifically grounded recommendations aimed at improving qualification criteria, enhancing the clarity of Supreme Court Plenum resolutions, unifying legal approaches in investigative bodies, and minimizing judicial errors. These proposals contribute to strengthening the consistency, predictability, and fairness of law-enforcement and judicial processes.*

***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, ma’muriy pretsedent (preyuditsiya), jinoyatni kvalifikatsiya qilish, huquqiy noaniqliklar, normativ kolliziya, inson manfaatlari, konstitutsiyaviy talqin, tergov amaliyoti, sud amaliyoti, Plenum qarorlari, huquqni qo‘llash amaliyoti.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, административная преюдиция, квалификация преступлений, правовые неопределённости, нормативные коллизии, толкование в пользу личности, следственная практика, судебная практика, постановления пленума верховного суда.*

***Key words:*** *Constitution, administrative prejudice, criminal qualification, legal ambiguity, normative collision, interpretation in favor of the individual, investigative practice, judicial practice, supreme court plenum resolutions.*

Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishiga oid konstitutsiyaviy norma bugungi kunda tergov va sud amaliyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilayotgan, 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi inson huquqlarining kafolatiga qaratilgan muhim huquqiy normalardan biridir.

Ma’lumki, ba’zida huquqiy normalardagi bo‘shliqlar, qonunchilikdagi ziddiyatlarning qanday hal etilishi bo‘yicha aniq tushuntirish yoki yechimlar bo‘lmaganida huquqni qo‘llashda, ayniqsa, jinoyat qonunchiligi normalari asosida qaror qabul qilishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 20-moddasida[1] mustahkam-

1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/6445145

langan yuqoridagi qoida, inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklarni hal qilishda inson uchun muhim huquqiy kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Qayd etish lozimki, Konstitutsiyamizning 15-moddasida[2] “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi” deb mustahkamlanishi hamda yuzaga kelayotgan huquqiy munosabatlarda Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilayotganligi Konstitutsiyaning inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta’minlashda muhim huquqiy kafolat bo‘lib xizmat qilayotganligini ko‘rsatadi.

Bu borada ayniqsa Konstitutsiyamizning 28-moddasida[3] mustahkamlangan “aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak” deb belgilangan normasi ham jinoyat jarayonida qaror qabul qilishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan 2023-yil 23-iyunda “Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qaror[4] qabul qilingani hamda mazkur qarorda “Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi haqidagi qoida uning normalari barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan ustun turishini anglatadi.

Shunga ko‘ra, sudlar ko‘rib chiqilayotgan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatning mazmunini baholashi va Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi oliy yuridik kuchga ega normativ-huquqiy asos sifatida qo‘llashi lozim.

Sudlar Konstitutsiya normasini tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmaganligi vaji bilan qo‘llashni rad etishga yo‘l qo‘yilmasligiga e’tibor qaratishlari kerak” deb belgilanishi ham Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi borasidagi qoidalarning hayotga tatbiq etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi[5] qonuniga asosan, qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirishlar berilgan qonun hujjatlarini qo‘llayotgan boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir. Ya’ni sud-tergov amaliyotida ham ushbu tushuntirishlarga amal qilish majburiy hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, ba’zida muayyan qonun normasidagi noaniqlik qilmishni jinoyat yoki jinoyat emas deb topishda sud-tergov amaliyotida turlicha yondashuvga sabab bo‘ladi. Bunday vaziyatda Konstitutsiyamizda belgilangan normalar mazkur masalaga yechim bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur masalani jinoyat qonunchiligida aks etgan ma’muriy preyuditsiyali jinoyatlar misolida ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining[6] 68 ta moddasida 87 ta jinoyat tarkibi bo‘yicha ma’muriy preyuditsiya nazarda tutilgan. Preyuditsiya lotincha “praejudicialis” so‘zidan olingan bo‘lib, “avvalgi sud qaroriga tegishli” degan ma’noni bildiradi. Ya’ni ushbu 87 ta jinoyat tarkibi nazarda tutilgan qilmishlar jinoyat sifatida malakalangan bo‘lishi uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lishi talab etiladi. Demak, dastlab yuqoridagi 68 moddada ko‘rsatilgan 87 ta jinoyat tarkibi bo‘yicha Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga asosan ma’muriy huquqbuzarlik hisoblanib, ushbu huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun shaxsga avval ma’muriy jazo qo‘llanilgan bo‘lishi kerak.

Ma’muriy preyuditsiyali jinoyatlarga oid normalarni qo‘llashda qator muammolar mavjudligi natijasida sodir etilgan qilmishni jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik deb baholashda tergov va sud amaliyotida turlicha yondashuv qo‘llanilmoqda. Bu esa o‘z navbatida muayyan shaxs xuddi shunday

2 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/6445145

3 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/6445145

4 "Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori // https://lex.uz/docs/6523654

5 "Sudlar to‘g‘risida"gi qonun // https://lex.uz/docs/5534923

6 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // https://lex.uz/docs/111453

huquqbuzarlik uchun jinoyiy javobgarlikka tortilgan bir paytda boshqa shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilishi holatlariga olib kelishi mumkin.

Fikrimizni quyidagi misol yordamida tahlil qilamiz.

Masalan, dastlab ma’muriy huquqbuzarlik sifatida belgilangan qilmish, keyinchalik jinoyat qonunchiligida ma’muriy preyuditsiyali jinoyat sifatida kiritilganda, jinoyat qonunchiligiga kiritilgunga qadar sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik inobatga olinadimi yoki yo‘qmi degan masala mavjud muammolardan biridir. Masalan, transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxsning transport vositasini boshqarishi, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa jinoyiy javobgarlik keltirib chiqaradi. Ammo mazkur qonun qabul qilingungacha transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxsning transport vositasini boshqarganligi uchun ma’muriy jazoga tortilgan bo‘lsa, jinoyiy javobgarlik masalasi ko‘rib chiqilayotganida qonun qabul qilingungacha qo‘llanilgan ma’muriy jazo inobatga olinadimi yoki yo‘qmi — bu masalada yagona yondashuv mavjud emas.

Bundan tashqari, ma’muriy preyuditsiyaga ega jinoyat tarkiblari uchun ma’muriy jazoga tortilgandan so‘ng qancha muddat davomida mazkur huquqbuzarlikni sodir etilishi jinoyiy javobgarlikni keltirib chiqarishi haqida aniq muddat hamda mazkur masalani qanday hal qilish jinoyat qonunchiligida belgilangan emas. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qator qarorlarida muayyan ma’muriy preyuditsiyali jinoyatlar uchun “ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida takroran sodir etilgan bo‘lsa” deb tushuntirish berilgan bo‘lib, mazkur tushuntirishlar ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida xuddi shunday qilmish takroran sodir etilganda jinoiy javobgarlik keltirib chiqarishini anglatadi. Lekin mazkur muddatlar masalasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoyat qonunchiligida aks etmagan. Bu esa o‘z navbatida ba’zi ma’muriy preyuditsiyali jinoyatlar uchun javobgarlik masalasini hal qilishni qiyinlashtiradi.

Masalan, transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxsning transport vositasini boshqarishi, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa Jinoyat kodeksining 261-2-moddasiga[7] asosan jinoyiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Agar shaxs transport vositalarini boshqarish huquqidan uch yil muddatga mahrum etilgan hamda mazkur shaxs transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan bo‘lishiga qaramasdan transport vositasini boshqarganligi uchun ma’muriy jazoga tortilgan bo‘lsa, lekin shu shaxs ma’muriy jazoga tortilganligiga bir yildan ortiq vaqt o‘tganidan so‘ng yuqoridagi huquqbuzarlikni yana takroran sodir etsa (transport vositalarini boshqarish huquqidan uch yil muddatga mahrum etilgan bo‘lishiga qaramasdan), bunda jinoiy javobgarlik yuzaga keladimi yoki ma’muriy huquqbuzarlik hisoblanadimi? Ushbu masalada qonunni qo‘llash bo‘yicha aniq tushuntirish berilmagan.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 20-moddasida[8] mustahkamlangan inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishiga oid qoidadan kelib chiqib, mazkur masalada barcha noaniqliklar huquqbuzarlik sodir etgan shaxs foydasiga hal etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’muriy preyuditsiyali jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishga oid Oliy sud Plenumi qarorlarida tushuntirishlar berilishi, shuningdek, Jinoyat kodeksiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi bu boradagi noaniqlik va ziddiyatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#

7 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // https://lex.uz/docs/111453

8 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/6445145

**Людмила ЮГАЙ,**
**начальник отдела НИИ цифровой криминалистики Правоохранительной академии Республики Узбекистан, доктор юридических наук (DSc), доцент**

# КОНСТИТУЦИОННЫЕ ГАРАНТИИ ЗАЩИТЫ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ

***АННОТАЦИЯ.*** *В статье анализируются конституционные гарантии защиты персональных данных в условиях интенсивной цифровой трансформации Республики Узбекистан. На основе действующих нормативно-правовых актов и международных стандартов рассматриваются ключевые направления государственного регулирования в сфере цифровой идентификации, обработки персональных данных и обеспечения информационной безопасности. Особое внимание уделено рискам, связанным с утечками, незаконным использованием и злоупотреблением персональными данными, включая биометрические сведения, а также вызовам, возникающим в результате развития технологий искусственного интеллекта. Подчеркивается значимость конституционного закрепления цифровых прав граждан, включая право на исправление и уничтожение данных, для формирования устойчивой системы защиты личности в цифровом обществе.*

***ANNOTATSIYA.*** *Maqolada O‘zbekiston Respublikasining jadal raqamli transformatsiyasi sharoitida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning konstitutsiyaviy kafolatlari tahlil qilingan. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlar asosida raqamli identifikatsiyalash, shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish va axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Shaxsiy ma’lumotlar, jumladan, biometrik ma’lumotlarning sizib chiqishi, noqonuniy foydalanish va suiiste’mol qilish bilan bog‘liq xavf-xatarlar, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan tahdidlarga alohida e’tibor qaratildi. Raqamli jamiyatda barqaror shaxsni himoya qilish tizimini shakllantirish uchun fuqarolarning raqamli huquqlarini, shu jumladan, ma’lumotlarni tuzatish va yo‘q qilish huquqini konstitutsiyaviy mustahkamlash muhimligi ta’kidlangan.*

***ABSTRACT.*** *The article analyzes constitutional guarantees for the protection of personal data in the context of intensive digital transformation in the Republic of Uzbekistan. Based on current regulatory legal acts and international standards, key directions of state regulation in the sphere of digital identification, personal data processing, and information security are examined. Particular attention is devoted to risks associated with data breaches, unlawful use, and misuse of personal data, including biometric information, as well as challenges arising from the development of artificial intelligence technologies. The significance of constitutional enshrinement of citizens' digital rights, including the right to correction and deletion of data, is emphasized for the formation of a sustainable system of personal protection in digital society.*

***Ключевые слова:*** *персональные данные, информационная безопасность, биометрические данные, цифровая идентификация, искусственный интеллект, deepfake, киберугрозы.*

***Kalit so‘zlar:*** *shaxsiy ma’lumotlar, axborot xavfsizligi, biometrik ma’lumotlar, raqamli identifikatsiya, sun’iy intellekt, deepfake, kibertahdidlar.*

***Key words:*** *personal data, information security, biometric data, digital identification, artificial intelligence, deepfake, cyber threats.*

На сегодняшний день в Республике Узбекистан в рамках реализации Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030», а также внедрения специального режима применения технологий искусственного интеллекта и ряда других мер динамично развивается процесс внедрения информационных технологий во все сферы жизни общества[1]. Созданы различные информационные базы персональных данных лиц, которые содержат биографическую информацию, сведения о месте проживания, имеющемся автотранспорте, семейном положении, членах семьи, недвижимости, отпечатки пальцев, изображение лица, подпись, системы интеллектуального видеонаблюдения и многое другое. В частности, широко распространенной тенденцией во всем мире, в том числе и Республике Узбекистана является распространение цифровой идентификации личности.

С одной стороны, цифровизация данных сведений, возможности их получения в уда-

1 Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6079 «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 5 октября 2020 г. // Национальная база данных законодательства, 06.10.2020 г., № 06/20/6079/1349; 31.10.2020 г., № 06/20/6099/1450; 02.04.2021 г., № 06/21/6198/0269, 14.07.2021 г., № 06/21/6261/0667, 12.08.2021 г., № 06/21/6277/0788, 26.08.2021 г., № 07/21/5234/0826, 30.11.2021 г., № 06/21/26/1111;11.05.2022 г., № 06/22/134/0407, 23.08.2022 г., № 06/22/194/0766; Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4996 «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта» от 17 февраля 2021 г. // Национальная база данных законодательства, 18.02.2021 г., № 07/21/4996/0127, 29.07.2021 г., № 07/21/5199/0721; 15.04.2022 г., № 07/22/208/0311, 31.08.2022 г., № 06/22/214/0791; 03.12.2022 г., № 06/22/258/1064; Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5234 «О мерах по внедрению специального режима применения технологий искусственного интеллекта» от 26 августа 2021 г. // Национальная база данных законодательства, 26.08.2021 г., № 07/21/5234/0826; 23.08.2022 г., № 06/22/194/0766. и др.

ленном режиме с помощью цифровой идентификации направлены на решение ряда важных вопросов, среди которых снижение бюрократических составляющих, минимизация коррупционных рисков, экономия времени, транспортных расходов, учет интересов лиц с ограниченными возможностями, а также использование технологий в целях обеспечения общественной безопасности.

С другой стороны, данная сфера затрагивает комплекс важных вопросов, связанных с рисками и угрозами злоупотребления данными сведениями, их утечки, кражи, продажи и использования в преступных целях.

В условиях цифровой трансформации будущее прав человека, в том числе цифровых, тесно связано с необходимостью обеспечения разумного баланса между защитой личных данных и уровнем развития информационных технологий. В современных условиях глобальной цифровизации обеспечение защиты персональной информации является важнейшим приоритетным направлением государственной политики во всем мире, направленным на обеспечение прав и свобод человека. Защита персональных данных требует постоянного совершенствования законодательства и правоприменительной практики, проведения системного научного анализа и исследований, направленных на выявление и предупреждения новых цифровых рисков и угроз.

Согласно данным Global Digital 2025, в начале 2025 года в мире насчитывается 5,56 млрд интернет-пользователей, что соответствует уровню проникновения в 67,9%. За 2024 год количество пользователей увеличилось на 136 миллионов (+2,5%)[2].

В соответствии с ежегодным отчетом о цифровом пространстве страны аналитической платформы Datareportal Digital 2025: Uzbekistan количество интернет-пользователей в Узбекистане достигло 32,7 миллиона человек, что составляет 89 % от всего населения республики. При этом, по сравнению с прошлым годом рост составил 626 тысяч человек[3].

При этом, в Узбекистане на ноябрь 2025 г. количество пользователей Instagram составляет 40,09 %, Facebook – 20,16 %, Pinterest – 14,74 %, YouTube – 11,4 %, Twitter – 9,26 %, LinkedIn – 1,95 %[4].

Данные показатели свидетельствуют о значительных масштабах объёмах информации наших граждан в цифровом пространстве, в том числе и персональных данных. В вышеуказанных условиях распространения цифровых технологий преобразуются устоявшиеся государственные и общественные институты, встают новые вопросы о защите идентификации личности в связи с обработкой персональных данных[5].

Персональные данные личности во все времена представляли интерес для преступников, но на сегодняшний день с учетом роста преступлений, совершаемых при помощи информационных технологий, персональные данные стали распространенным объектом купли-продажи в Даркнете или иных цифровых платформах. В связи с чем, приобретает особую актуальность вопрос защиты и конфиденциальности персональных данных. Необходимость принимать меры в этой сфере связана, на наш взгляд, ещё и с тем, что современные технологии позволяют легко копировать и распространять любые сведения. Уровень развития искусственного интеллекта, IoT (Интернета вещей) и иных технологий охватывают полностью жизнедеятельность человека. Умные устройства и системы, находясь рядом с человеком, собирают, хранят и обрабатывают данные о человеке, что создает дополнительные риски и угрозы злонамеренного использования.

Расширение сферы отношений в сети Интернет, развитие электронной коммерции, расширение использования социальных сетей, получение банковских и государственных услуг в удаленном режиме, рост киберпреступлений обусловливают необходимость

2 https://datareportal.com/reports/digital-2025-global-overview-report (дата доступа: 10.03.2025 г.)

3 https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan (дата доступа: 10.03.2025 г.)

4 Social Media Stats Uzbekistan. Режим доступа: https://gs.statcounter.com/social-media-stats/all/uzbekistan/#monthly-202411-202511 (дата доступа: 12.11.2025 г.)

5 Талапина Э.В. Право и цифровизация: новые вызовы и перспективы // Журнал российского права. – 2018 г., – №2, – С. 1-13.

отдельного внимания государства к обеспечению безопасности персональных данных и законодательного регулирования вопросов их защиты на самом высоком уровне.

Обеспечение и гарантии прав на защиту персональных данных отражены в ряде международных документов. Статья 12 Всеобщей декларации прав человека (1948 г.)[6] гарантирует право на неприкосновенность частной жизни. Статья 17 Международного пакта о гражданских и политических правах (1966 г.)[7] закрепляет защиту от произвольного вмешательства в личную жизнь. Конвенция Совета Европы о защите частных лиц при автоматизированной обработке личных данных (Конвенция 108, 1981 г.)[8] является первым международным договором в этой сфере. Общий регламент по защите данных (GDPR) Европейского Союза (2018 г.)[9], устанавливающий строгие стандарты обработки личных данных и предоставляющий гражданам ЕС широкие права в этой области,

С учетом цифровой трансформации всех сфер жизни общества и государства право на защиту персональных данных выступает наряду с правом на жизнь, труд, неприкосновенность частной жизни, право на тайну переписки, телефонных переговоров, почтовых и телеграфных отправлений и иных сообщений и т.д.

Реалии современной жизни безальтернативно обязывают нас в определенных случаях вносить все свои персональные данные, включая биометрические, ПИНФЛ, номер телефона, электронный адрес, сведения о банковской карте и многое другое, однако уровень обеспечения их сохранности, исключения возможности злонамеренного использования остается в тени. Пока вопрос не коснется ситуации, когда гражданин пострадает от преступных действий с использованием его персональных данных, данная сфера не вызывает особого внимания. Вопрос обеспечения всесторонней защиты персональных данных имеет критически важное значение.

В данном аспекте, В.И. Чехарина отмечает, что современном этапе развития общества требования по защите персональных данных становятся более высокими и нуждаются в появлении нового конституционно-правового регулирования, предусматривающего конкретизацию конституционных норм в области защиты данных, что получает развитие в конституционно-правовом регулировании национальных государств. Конституционные основания защиты персональных данных предстают в виде определенных конституционных прав, объектом защиты которых являются в том числе персональные данные[10].

В современном цифровом мире право физического лица на защиту персональных данных закреплено конституциями демократических государств, в том числе и нашего государства.

В статье 31 Конституции Республики Узбекистан закреплены права каждого на защиту его персональных данных, на требование об исправлении недостоверных данных, на уничтожение данных, собранных о нем незаконным путем или более не имеющих правовых оснований.

В соответствии со статьей 4 Закона Республики Узбекистан № ЗРУ-547 «О персональных данных» от 2 июля 2019 г. персональные данные представляют собой зафиксированную на электронном, бумажном и (или) ином материальном носителе информация, относящаяся к определенному физическому лицу или

6 Всеобщая декларация прав человека. Принята резолюцией 217 A (III) Генеральной Ассамблеи ООН от 10 декабря 1948 года. Режим доступа: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml (дата доступа: 12.11.2025 г.)

7 Международный пакт о гражданских и политических правах. Принят резолюцией 2200 A (XXI) Генеральной Ассамблеи от 16 декабря 1966 года. Режим доступа: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml (дата доступа: 12.11.2025 г.)

8 Конвенция о защите частных лиц в отношении автоматизированной обработки данных личного характера Страсбург, 28 января 1981 года. Режим доступа: https://rm.coe.int/1680078c46. (дата доступа: 12.11.2025 г.)

9 Общий регламент по защите данных (GDPR) Европейского Союза от 27 апреля 2016 года. Режим доступа: https://gdpr-text.com/ru/. (дата доступа: 12.11.2025 г.)

10 Чехарина В.И. *О конституализации права на защиту персональных данных: из зарубежного опыта* // International Journal of Humanities and Natural Sciences. vol. 3-2 (42). ¬ 2020 г., – С.223-228.

дающая возможность его идентификации[11].

К персональным данным относятся биографические и биометрические данные, сведения о месте жительства, работы, номер телефона, электронный адрес, номер банковской карты, информация о принадлежащем ему транспортном средстве и другая важная информация о личности, которая позволяет его идентифицировать.

В Конституции Республики Узбекистан закреплены следующие важные гарантии в данной сфере:

1. право на защиту персональных данных лица;
2. право на требование об исправлении его недостоверных данных;
3. право на уничтожение данных, собранных о нем незаконным путем или более не имеющих правовых оснований.

Персональные данные относятся к категории конфиденциальной и необходимо обеспечить их соответствующую защиту. Оказавшись в руках преступников, такие данные могут стать орудием преступления, в частности, мошенничества, вымогательства, вмешательства в частную жизнь, оскорбления, клеветы и многое другое.

В последнее время по всему миру участились массовые случаи кражи и утечки персональных данных, которые всплывают в открытом доступе в Интернете или выставляются на продажу в Даркнете[12].

Вместе с тем, вызывает озабоченность деятельность мошеннических колл-центров, которые используют для совершения своих преступных действий персональные данные граждан, включающие в себя номера телефонов, фамилии, имена, отчества и т.д.[13]. В большинстве случаев персональные данные были приобретены непосредственно для совершения мошеннических действий, что значительно облегчает реализацию преступных намерений.

К примеру, в 2016 г. в Гане были похищены биометрические данные избирателей. В 2017 г. похищены отпечатки пальцев покупателей американской компании Avanti Markets; кроме того, в Индии была зарегистрирована утечка из всеобщей биометрической системы Aadhaar, которая используется для аутентификации в банках и при получении государственных услуг. В 2018 г. в Зимбабве похитили отпечатки пальцев и фотографии избирателей. В 2019 г. в открытый доступ попала многомиллионная дактилоскопическая база южнокорейской компании Suprema[14]. В 2022 г. в России была утечка база персональных данных клиентов «Яндекс еда», их имена, телефоны, адреса, коды от домофонов попали в сеть[15].

Кроме того, имеются потенциальные риски создания дипфейков (DeepFake) на основе похищенных биометрических персональных данных, с использованием которых могут совершаться преступления[16].

В январе 2021 г. в Китае двое жителей при помощи дипфейков с 2018 г. обманули налоговую службу на сумму свыше 76 млн долларов. Благодаря, фотоизображениям лиц, купленным в Даркнете и «оживленным» с помощью дипфейк-приложений, они успешно проходили проверку систем распознавания лиц. Мошенники оформляли на несуществующих людей компании-пустышки и выдавали поддельные налоговые накладные[17].

---

11 Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-547 «О персональных данных» от 2 июля 2019 г. // Национальная база данных законодательства, 03.07.2019 г., № 03/19/547/3363; 15.01.2021 г., № 03/21/666/0032

12 Кузьмин Ю.А. *Кража персональных данных (криминологический аспект)* // Oeconomia et Jus. — 2020 г., — №3, — С. 48-57.

13 В Белоруссии и Узбекистане ликвидировали обманывавшие россиян кол-центры. Режим доступа: https://tass.ru/obschestvo/24195511. (дата доступа: 10.11.2025 г.)

14 Югай Л.Ю. *Технология Deepfake: проблемы и пути решения* // Инновационные методы в криминалистике: Материалы Международной научно-методической конференции. – Караганда: Карагандинская Академия МВД Республики Казахстан им. Б. Бейсенова, 2021 г., – С.205-207.

15 "Яндекс.Еда" признана потерпевшей по делу об утечке данных клиентов. — Режим доступа: https://www.interfax.ru/russia/878055. — Дата доступа: 10.11.2025 г.

16 Югай Л.Ю. *Мошенничество с использованием биометрических технологий: сущность, риски и меры противодействия* // Фирибгарлик ва кибержиноятлар содир этилишини олдини олишдаги ҳуқуқий муаммолар: халқаро илмий-амалий конференция материаллари (2021 йил 5 октябрь, Тошкент). – Т.: «InScience», 2021 йил, 59-63-бетлар

17 Мошенники в Китае с помощью дипфейков обманули госсистему распознавания лиц на $76,2 млн. — Режим доступа: https://vc.ru/legal/228953-moshenniki-v-kitae-s-pomoshchyu-dipfeykov-obmanuli-gossistemu-raspoznavaniya-lic-na-76-2-mln. — Дата доступа: 10.04.2025 г.

Должны отметить, что в нашей стране также наблюдаются случаи использования дипфейков в мошеннических целях с участием известных политиков, бизнесменов, спортсменов и других медийных лиц, предлагающих быстрые варианты получения значительной прибыли без особых усилий.

Вместе с тем, имеют место факты, когда в какой-либо информационной базе данных отображены недостоверные данные, относящиеся к данному лицу. Вышеуказанное, к примеру, может повлечь за собой существенное нарушение прав лица при заключении договоров купли-продажи, наследования, заключении брака и т.д. При функционировании данных систем возможны её сбой или влияние человеческого фактора, и владелец персональных данных, в первую очередь, заинтересован в корректном отображении данных сведений. Изменение и дополнение персональных данных, не соответствующих действительности, должно производятся безотлагательно с момента установления такого несоответствия.

Безопасность информационных систем, в первую очередь, означает защиту находящихся в них данных от определенных рисков, таких как потеря или несанкционированный доступ, и обеспечение надлежащего качества данных (их релевантности, точности и актуальности)[18]. Безопасность информационных систем отвечает интересам как субъектов персональных данных, и контролера данных (оператора информационных систем), поскольку позволяет надлежащим образом осуществлять деятельность, для которой эти данные обрабатываются[19].

Персональные данные должны собираться исключительно законным путем. В соответствии, со статьёй 21 Законом Республики Узбекистан «О персональных данных» обработка персональных данных, за исключением случаев, предусмотренных законом, должны осуществляться только по письменному согласию их владельца. Под обработкой персональных данных понимается их сбор, систематизация, хранение, изменение, дополнение, использование, предоставление, распространение, передача, обезличивание и уничтожение.

Должны отметить, что жизнь человека динамично меняется, его правовой статус и персональные данные соответственно. Он может жениться, развестись, продать недвижимость, приобрести или утерять гражданство и многое другое. В связи с чем, имеет особое значение право лица на уничтожение персональных данных, которые более не имеют правовых оснований.

«Право на забвение» (право на удаление) является одним из элементов контроля человека над своими персональными данными[20]. Данное право представляет собой одно из позитивных обязательств в отношении защиты персональных данных. Это право предполагает исправление, удаление или прекращение обработки персональных данных по требованию их субъекта при наличии для этого основания. Сегодня в том или ином виде оно закреплено в целом ряде международных актов и национальном законодательстве и признано судебной практикой[21].

В национальном законодательстве отдельные вопросы, затрагивающие вопросы защиты персональных данных отображены. В частности, к ним относятся законы «О персональных данных», «О кибербезопасности», «Об информатизации», соответствующие акты правительства. Кроме того, предусмотрены административная и уголовная ответственность за нарушение законодательства о персональных данных.

При этом, интенсивное развитие информационных технологий, рост видов и количества преступлений в кибепространстве влечет за собой новые риски и угрозы, на данном этапе

18 Tzanou M. *Data Protection as a Fundamental Right Next to Privacy? "Reconstructing" a Not So New Right* // International Data Privacy Law. ¬ 2013. ¬ Vol. 3. ¬ Iss. 2. ¬ P. 88–99. DOI: 10.1093/idpl/ipt004.

19 Варламова Н.В. *Цифровые права ¬ новое поколение прав человека?* // Proceedings of the Institute of State and Law of the RAS. 2019. Volume 14. No. 5. ¬ С.141-167.

20 Zeller B., Trakman L., Walters R., Rosadi S.D. *The Right to Be Forgotten — The EU and Asia Pacific Experience (Australia, Indonesia, Japan and Singapore)* // European Human Rights Law Review. ¬ 2019. ¬ Iss. 1. ¬ P. 24.

21 Варламова Н.В. *Цифровые права ¬ новое поколение прав человека?* // Proceedings of the Institute of State and Law of the RAS. 2019. Volume 14. No. 5. ¬ С.141-167.

пока не в полном объеме охватываемые рамками правового поля. Вышеуказанное требует своевременного реагирования со стороны государства, международного сотрудничества между компетентными органами разных государств, а также постоянную работу над совершенствованием мер по противодействию данным видам преступности, предусматривающих комплекс правовых, технических, организационных аспектов.

В развитых демократических странах по всему миру конфиденциальность персональной информации признается критическим элементом гражданского общества и необходимостью для развития Интернета. Реализация государством основных прав личности невозможно осуществить без обеспечения защиты персональных данных.

Важность обеспечения сохранности персональных данных самим обществом пока не осознается в полном объеме, узкая направленность (специализированность) нормативно-правовых актов в данной сфере, недостаточность освещения необходимости соблюдения «цифровой гигиены» не способствует состоянию полной информационной безопасности личности. Информационная безопасность является важным составляющим компонентом национальной безопасности.

При этом, степень реализации и удовлетворённости граждан закрепленными в Конституции правами и свободами оказывает прямое воздействие на социально-экономическое состояние отдельной личности, общества, организации, регионов и государства в целом. Осознание гражданами того, что все его права, в том числе и цифровые, надлежащим образом защищены и признаются высшей ценностью, способствует снижению социальной напряжённости и улучшению социально-психологического климата, что закономерно способствует устойчивому и системному развитию личности, общества и государства.

Закрепление в статье 31 Конституции Республики Узбекистан указанных цифровых прав и гарантий укрепило конституционные гарантии прав граждан на осуществление контроля за оборотом их персональных данных, защиту их прав и свобод применительно к использованию их персональных данных и введения контроля над перемещением их персональных данных в соответствии с международными стандартами. Внимание государства на самом высоком уровне к обеспечению безопасности и защите персональных данных наших граждан еще раз подчеркивает приверженность нашего государства к обеспечению личных прав и законных интересов личности.

#

**Dilfuza ABDULLAYEVA,**
**Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,**
**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

# O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA MEHNAT HUQUQLARINI KAFOLATLASH VA XMT STANDARTLARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

***ANNOTATSIYA.*** *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan mehnat huquqlari kafolatlari va Xalqaro mehnat tashkilotining(XMT) asosiy standartlarini kompleks qiyosiy-huquqiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, konstitutsiyaviy normalarning xalqaro mehnat standartlariga muvofiqligi darajasi, xususan, mehnat qilish erkinligi, kamsitilmaslik, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash, adolatli ish haqi va ijtimoiy himoya huquqi tamoyillari o'rganilgan. Maqolada O'zbekistonda mehnatning konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solinishi, shuningdek, XMTning ratifikatsiya qilingan konvensiyalarining milliy huquqiy tizimga ta'siri tahlil qilingan.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В Статье посвящена комплексному сравнително-правовому анализу гарантий трудовых прав и основных стандартов международной организации труда (МОТ), закрепленных в Конституции Республики Узбекистан. Также изучается степен соответствия конституционных норм международным трудовым стандартам, в частности принципы свободы труда, недискриминации, обеспечения безопасных условий труда, справедливой оплаты труда и права на социалную защиту. В стате анализируется конституционно-правовое регулирование труда в Узбекистане, а также влияние ратифицированных конвенций МОТ на националную правовую систему.*

***ABSTRACT.*** *The article is devoted to a comprehensive comparative legal analysis of guarantees of labor rights and basic standards of the International Labor Organization (ILO), enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The degree of compliance of constitutional norms with international labor standards, in particular the principles of freedom of work, non-discrimination, ensuring safe working conditions, fair pay and the right to social protection, is also being studied. The article analyzes the constitutional and legal regulation of labor in Uzbekistan, as well as the impact of ratified ILO conventions on the national legal system.*

***Kalit so'zlar:*** *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti, mehnat huquqlari, xalqaro mehnat standartlari, qiyosiy-huquqiy tahlil, ijtimoiy himoya, kamsitmaslik, mehnat huquqi, mehnatni muhofaza qilish, XMT konvensiyalari.*

***Ключевые слова:*** *Конституция Республики Узбекистан, Международная организация труда, трудовые права, международные трудовые стандарты, сравнително-правовой анализ, социалная защита, недискриминация, право на труд, охрана труда, конвенции мот.*

***Key words:*** *the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the international labor organization, labor rights, international labor standards, comparative legal analysis, social protection, non-discrimination, the right to work, labor protection, ilo conventions.*

O'zbekiston Respublikasida rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hamda mehnat munosabatlari o'zgarishi sharoitida mehnat huquqlarining ishonchli va samarali kafolatlari to'g'risidagi masala alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi milliy qonunchilikning asosiy manbayi va eng yuqori huquqiy kuchi bo'lib, mehnat sohasidagi huquqiy tartibga solishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) faol ishtirokchisi sifatida uning asosiy konvensiyalarini izchil ratifikatsiya qilib, xalqaro mehnat standartlariga rioya qilish va ularni amalga oshirish majburiyatini oldi.

Konstitutsiyaviy normalarning xalqaro majburiyatlar bilan muvofiqligi darajasini o'rganishning ahamiyati nafaqat milliy qonunchilik samaradorligini oshirish, balki islohotlar davrida fuqarolarning ijtimoiy huquqlari va davlatning iqtisodiy manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurati bilan ham bog'liq. Konstitutsiyaviy kafolatlarni XMT talablari bilan uyg'unlashtirish barqaror rivojlanishning muhim omili bo'lib, munosib mehnat uchun sharoit yaratadi, xodimlarning alohida toifalarini himoya qiladi hamda ijtimoiy sheriklik institutlarini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" nomli asarida[2] "davlat va jami-

1 Lex.uz/ru/docs/6445145.

2 Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik.* – Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2021-yil, 20-bet

yat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeyini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir" deya ta'kidlaydi. Bu borada xalqaro standartlar va shartnomalarni o'rganish, xorijiy davlatlarning mehnat sohasida kamsitishga oid tajribalarini tahlil qilgan holda milliy qonunchilik bazamizni takomillashtirish zamon talabidir.

O'zbekistonda XMT konvensiyalarining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi qonun bilan belgilanadi. Konstitutsiyaning 15-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir[3].

O'zbekiston hozirgi kunda global iqtisodiy va huquqiy makonda o'z o'rnini mustahkamlashga intilmoqda. XMT konvensiyalari mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishda universal standartlarni belgilaydi[4]. O'zbekiston 1992-yilda XMTga a'zo bo'lganidan buyon 25 ta konvensiyani ratifikatsiya qildi, bu esa mamlakatning xalqaro majburiyatlarni bajarishga sodiqligini ko'rsatadi. Biroq ratifikatsiya qilingan konvensiyalarni milliy qonunchilikka to'liq tatbiq etishda muammolar mavjud. Masalan, mehnat xavfsizligi, ish haqini himoya qilish va kasaba uyushmalari faoliyatini rivojlantirish kabi sohalarda xalqaro standartlarga to'liq moslashish hali ham to'liq amalga oshirilmagan[5].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, XMT konvensiyalari va tavsiyalaridagi qoidalar bu xalqaro mehnat standartlari deb ataladi. Davlatlar XMTning konvensiyalari va tavsiyalarini qabul qilgan holda, ularni implementatsiyasini amalga oshirib xalqaro mehnat standartlarini o'zining qonunchiligiga joriy etadilar. O'zbekiston ham XMTning to'laqonli a'zosi sifatida xalqaro mehnat standartlarini o'zining qonunchiligida aks ettirib kelmoqda va ishchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan turli xil standartlarnining implementatsiyasini amalga oshirishda jadal harakat qilmoqda.

O'zbekistonda xalqaro va milliy qonunchilikning mutanosibligi Mehnat kodeksining 10-moddasida ifodalangan bo'lib, unga ko'ra agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida xodimlar uchun O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonunchiligiga yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan imtiyozliroq qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining qoidalari mehnatga oid yakka tartibdagi munosabatlar va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonunchiligida to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan hollarda ham qo'llaniladi[6].

Amaldagi milliy mehnat qonunchiligining tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro mehnat standartlari mamlakatimizning milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilingan. Qolaversa, ayrim milliy normativ-huquqiy hujjatlarimizda XMT konvensiyalarida belgilanganidan ham imtiyozliroq qoidalar joy olgan. Quyida xalqaro mehnat standartlarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiyasining bir qancha misollarini ko'rib chiqamiz.

Erkin kasb tanlash huquqining mavjudligi va mehnat qilish huquqining mavjudligi XMTning asosiy prinsiplaridan hisoblanadi. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida berilishicha, mehnat qilish huquqi bu fuqarolarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlaridan biridir va uning kafolati xalqaro ko'lamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'rsidagi xalqaro pakt va xalqaro mehnat konvensiyalarida berilgan[7]. Ushbu huquqlarning kafolati Konstitutsiyamizda ko'zga tashlanadi. Konstitutsiyamizning 42-moddasi butunlay mehnat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan bo'lib, unga ko'ra har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning

3 Mahmudova G. *Xalqaro shartnomalar–xalqaro huquqning manbasi sifatida.* – Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. 2.7, 2024-yil, 772-bet

4 Кантария Е.А. «Международно-правовые проблемы деятельности Международной организации труда в условиях глобализации». Диссертация, 2007 г. — С. 35.

5 Jiyanova Sh. "Specific Characteristics Of New Labor Legislation And International Experience" Modern Science and Research 2.9 (2023): 263-b.

6 Lex.uz/ru/doks/6257288.

7 Abdumajidov va boshqalar. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. -Toshkent, Adolat nashriyoti, 2009-yil, 304-bet

belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega. Shuningdek, Mehnat kodeksining 3 va 5-moddalarida keltirilishicha, mehnat qilish huquqining erkinligi Mehnat kodeksining asosiy prinsiplaridan biridir. Bunga ko'ra har kim o'zining mehnat qilishga bo'lgan huquqlarini o'zi tasarruf etadi va har bir odam qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shaklda o'zining mehnat qilish huquqini amalga oshirishi mumkin.

XMT mehnatni himoyalashning bir usuli sifatida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilashni davlatlarga yuklaydi. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilash borasida XMTning "Eng kam ish haqini o'rnatish to'g'risida" nomli 131-sonli konvensiyasi mavjud bo'lib, unda davlatlar o'zining iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda uning hududida amalga oshirilgan ishlar uchun eng kam oylik ish haqini belgilashi lozimligi belgilangan[8]. Milliy qonunchiligimizda bu qoidaning implementatsiyasini biz Konstitutsiyaning 42-moddasi 2-qismida ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zaruriyatini hisobga olgan holda belgilanadi. Mehnat kodeksining 245-moddasi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilash va uning kafolatini qonun yo'li bilan mustahkamlaydi. Ushbu moddaga ko'ra, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yagona miqdorda belgilanadi. Kodeksda belgilanishicha, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining ichiga mukofotlar, ish haqiga ustamalar, boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlar, shuningdek, ish vaqtidan tashqari ish, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ish, tungi vaqtdagi ish uchun to'lovlar, shuningdek tegishli kompensatsiyalar kirmaydi.

XMT ishga qabul qilishda odamlarning irqi, tanasining rangi, jinsi, dini, siyosiy nuqtayi nazari, ijtimoiy kelib chiqishiga oid diskriminatsiyaning oldini olish maqsadida o'zining 111-sonli "Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risida" nomli konvensiyasini 42-sessiyasida qabul qilgan[9]. Undan anglashiladiki, hech kimning ayol jinsida bo'lganligi, uning bolasi mavjudligi, homiladorligi uchun mehnat qilish huquqi cheklanishi mumkin emas[10]. Bu qoidalar Konstitutsiyaning 42-moddasida aks ettirilgan bo'lib, unga ko'ra homiladorligi yoki bolasi borligi uchun ayollarni ishga qabul qilishdan bosh tortish yoki ularni ishdan bo'shatish mumkin emas. Bu qoida Mehnat kodeksining 119-moddasi 2-qismi 4-bandida aks ettirilgan bo'lib, unda homiladorlik yoki farzandi borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ishga qabul qilmaslik taqiqlangan. Shuningdek, bu qoidaning kafolati sifatida Jinoyat kodeksining 148-moddasi 2-qismi xizmat qiladi. Unga ko'ra, ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganini bila turib uni ishga olishdan g'ayritabiiy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

**Majburiy mehnatning taqiqlanganligi** ham XMTning asosiy standartlaridan biridir. Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida XMT o'zining 14-sonli konferensiyasida 1930-yili "Forced Labour Convention" nomli 29-sonli konvensiyasini qabul qilgan. Unga ko'ra, har bir a'zo davlat o'zida majburiy mehnatning har qanday shakldagi ko'rinishini tugatishi shart[11]. Bu qoida Konstitutsiyaning 44-moddasi 1-qismida aks ettirilgan bo'lib, ushbu qismga ko'ra sud qarori bilan tayinlangan jazosini ijto etish tartibidan yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Xuddi shunday kafolat Mehnat kodeksining 3 va 5-moddalarida bor va unga ko'ra O'zbekistonda majburiy mehnat taqiqlanadi. Lekin bu yerda Mehnat kodeksi qaysi ishlar majburiy mehnat sanalmasligini ham aniqlashtirib beradi. Xususan, qonunga ko'ra harbiy xususiyatga ega bo'lgan majburiyatlar, bajarilishi favqulodda yoki harbiy holat joriy etilishiga sabab bo'ladigan ishni sud qarori bilan belgilangan ishni qilish majburiy mehnat sanalmaydi[12].

XMT bolalar mehnatini himoya qilishni tartibga

8 Eng kam ish haqini o'rnatish to'g'risidagi konvensiya, 1970-yil. XMTning 131-sonli konvensiyasi 1-moddasi

9 Degener, Theresia, and Yolan Koster-Dreese, eds. *Human rights and disabled persons: Essays and relevant human rights instruments*. Vol. 40. Brill, 2021. Page-20.

10 Bandlik va kasbdagi kamsitishga qarshi to'g'risidagi konvensiya, 1958-yil. XMTning 111-sonli konvensiyasi, 1-moddasi.

11 Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya, 1930-yil. XMTning 2-sonli konvensiyasi, 2 va 3-moddalari

12 Muradov S. A. (2024) *Majburiy mehnatga jalb etganlik uchun javobgarlik: milliy va xorijiy tajriba*. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 4 (6), 46-55. doi: 10.5281/zenodo.11546760. 2-bet.

solish maqsadida ham o'zining qoidalarini ishlab chiqqan, ushbu qoidalarni o'zining 182-sonli "Worst forms of child labour convention" nomli konvensiyasida birlashtirgan. Konvensiyaga ko'ra bolalar mehnati ularning rivojlanishi, sog'lig'i va psixologiyasiga ziyon yetkazmasligi lozim va ularga ziyon yetkazadigan ishlar taqiqlanishi kerak[13]. Milliy qonunchiligimizda bu qoidalar Konstitutsiyaning 44-moddasi 2-qismida hamda Mehnat kodeksining 25-moddasida aks ettirilgan. Ularga ko'ra, bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi, shuningdek, ish beruvchi bolalarni ularga ziyon yetkazmaydigan ishlarga qo'yishi lozim.

Mehnatni tartibga solishda ish vaqtining davomiyligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun XMT tuzilganidanoq, ya'ni 1919-yilda Vashingtonda 1-sonli "Hours of Work" nomli konvensiyasini qabul qiladi. Unga ko'ra, haftalik eng ko'p ish soati 48 soatni tashkil qiladi. Bu miqdordan oshib ketishi mumkin emas. Ushbu qoidaning mamlakatimiz qonunchiligidagi ifodasi sifatida biz Mehnat kodeksining 182-moddasini keltirishimiz mumkin. Unga ko'ra, ish vaqtining normal davomiyligi besh kunlik yoki olti kunlik ish haftasida 40 soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas[14].

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi XMTning standartlarini, konvensiyalarini ratifikatsiya qilish va ularni implementatsiya qilish orqali o'zining qonunchiligida aks ettirmoqda.

Bundan tashqari bizga ma'lumki, XMTning tavsiyalari ham xalqaro mehnat standarti hisoblanadi. O'zbekiston ham shunday tavsiyalarni bevosita qabul qilish va ularni implementatsiya qilish orqali, shuningdek, bilvosita ularni ratifikatsiya qilmasdan o'zining qonunchiligida aks ettirish orqali XMT standartlarini joriy qilmoqda.

Mamlakatimiz qonunchiligida XMT standartlarining mavjud bo'lishi bu nafaqat mehnatni tartibga solishda foydali, balki ishchilarning huquqlarini himoya qilishda ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Ushbu standartlarni milliy qonunchiligimizda aks ettirishimiz bilan bir vaqtda, ularning nazorat qilinishi va ushbu standartlarni buzganlarning jazolanishi ham juda muhimdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqaro mehnat tashkilotining asosiy standartlariga mos keladi, mehnatga bo'lgan fundamental huquqlarni, adolatli mehnat sharoitlarini, ijtimoiy himoyani va kamsitishning oldini olishni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, milliy huquqiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari va uni isloh qilish bosqichi bilan bog'liq huquqlarni amalga oshirishni ko'rsatadi. So'nggi yillarda konstitutsiyaviy kafolatlarning kuchayishi xalqaro mehnat normalari bilan uyg'unlik darajasini oshirishga yordam berdi, ammo huquqlarni himoya qilishning protsessual mexanizmlarini yanada rivojlantirish, mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni institutsional mustahkamlash va ijtimoiy sheriklik amaliyotini kengaytirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shuningdek, milliy huquqiy bazaning XMTning xalqaro standartlariga kompleks yaqinlashishi O'zbekistonda mehnat siyosatini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishi ekanligini tasdiqlaydi.

#

13 Bolalar mehnatining eng yomon ko'rinishlari to'g'risidagi konvensiya, 1999-yil. Preambula, 3 va 4-moddalar.

14 Abdullaeva D. "Some issues of legal regulation of working hours in the Republic of Uzbekistan". Бюллетень науки и практики, 6 (5), 406.

**Abror MAMATOV,**
**Bosh prokuratura boshqarma katta prokurori,**
**Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI — PROKURATURA ORGANLARIDA HUQUQIY AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ASOSIY MEZONI

***ANNOTATSIYA.*** *Maqolada prokuratura organlarida huquqiy axborot xavfsizligini ta’minlashning nazariy, tashkiliy hamda axloqiy-psixologik omillari tizimli tahlil qilinadi. “Huquqiy axborot xavfsizligi” tushunchasining kengaytirilgan ilmiy modeli taklif etilib, prokuratura axborot siyosatini baholashda “Xalq ishonchi indeksi”ni joriy etishning amaliy ahamiyati asoslanadi. Shuningdek, axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, milliy “Huquqiy axborot xavfsizligi strategiyasi – 2030”ni ishlab chiqish hamda tegishli qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surildi. Maqolada Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga yangi modda kiritish, “E-matbuot” platformasini yaratish, blogerlik faoliyatini tartibga solish, xalqaro axborot muloqotini kuchaytirish va boshqa masalalar ko‘rib chiqiladi.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В статье представлено системное исследование теоретических, организационных и психолого-этических основ обеспечения правовой информационной безопасности в органах прокуратуры. Предлагается расширенная научная модель понятия «правовая информационная безопасность», а также обосновано внедрение «Индекса доверия населения» для оценки эффективности информационной политики прокуратуры. Рассмотрены вопросы формирования информационной культуры безопасности, разработки национальной «Стратегии правовой информационной безопасности – 2030» и совершенствования законодательства. В статье также предлагаются меры по введению новой административной ответственности, созданию платформ «E-matbuot» и «E-press», регулированию деятельности блогеров и укреплению международного информационного взаимодействия.*

***ABSTRACT.*** *The article provides a comprehensive analysis of the theoretical, organizational, and psychological-ethical foundations of legal information security within prosecution bodies. It introduces an expanded scientific model of the concept “legal information security” and justifies the implementation of the “Public Trust Index” for evaluating the effectiveness of the prosecution’s information policy. The study also offers recommendations for forming an information security culture, developing the national “Legal Information Security Strategy – 2030,” and improving relevant legislation. Additional proposals include introducing a new administrative liability provision, creating the “E-press” and “E-matbuot” platforms, regulating blogging activities, and enhancing international communication mechanisms.*

***Kalit so‘zlar:*** *axborot xavfsizligi, huquqiy tartibga solish, prokuratura faoliyati, ochiqlik va shaffoflik, raqamlashtirish, elektron platformalar, axborot madaniyati, xodimlarni tayyorlash.*

***Ключевые слова:*** *информационная безопасность, правовое регулирование, деятельность прокуратуры, открытость и прозрачность, цифровизация, электронные платформы, информационная культура, подготовка кадров.*

***Key words:*** *information security, legal regulation, prosecution activities, openness and transparency, digitalization, electronic platforms, information culture, staff training.*

Bugungi globallashuv, raqamlashtirish va ochiqlik siyosati sharoitida huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, xususan, prokuratura tizimida axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi milliy xavfsizlikning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” tamoyili davlat boshqaruvi tizimida shaffoflik, qonun ustuvorligi va jamoatchilik bilan doimiy aloqani kuchaytirishni talab etadi. Shu bilan birga, bu jarayon axborot oqimlarining oshishi, raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi hamda OAV va ijtimoiy tarmoqlarning ta’sir kuchi ortgan davrda yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Prokuratura organlarining jamoatchilik bilan aloqalari hamda huquqiy axborot tizimi faoliyati davomida axborot xavfsizligi davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarini himoya qilishning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda qonun ustuvorligini ta’minlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Kons-

titutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasidayoq "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" deb mustahkamlab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin[1]. Bu esa davlat va uning boshqaruv organlari, fuqarolar hamda yuridik shaxslarning har bir harakatida qonun va huquqning ustunligini yana bir bor namoyon etadi. Ushbu moddada ifodalangan "huquqiy davlat"ni vujudga keltirish, barcha uchun qonunlar hamda qonunosti hujjatlari ijrosini birdek ta'minlash masalasida asosiy nazorat qiluvchi organ hisoblangan prokuratura organlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir" degan norma belgilab qo'yilgan.

Bu norma timsolida O'zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume'tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya'ni xalq suverenitetining tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo'yilgan.

Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O'zbekiston — inson sha'ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo'lishi, xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi, "odamlar tashvishi bilan yashash", barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g'oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Demokratiyaning talabu taomili va ustunligi ham shunda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan: "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlardan biri — prokuratura organlaridir. Shuningdek, prokuratura organlari tomonidan mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda"[2] deb bildirilgan fikrlar zamirida ham ushbu organning mamlakat kelajagi va unda istiqomat qiluvchi fuqarolar hayotida muhim vazifa va funksiyalarni bajarishi aks etganligining isboti sanaladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tizimida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda[3].

Milliy qonunchiligimizda axborot xavfsizligini kafolatlovchi asosiy hujjat bu Konstitutsiyamiz hisoblanadi. Konstitutsiyaning 31-moddasiga ko'ra:

har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega;

har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi;

har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Axborotning yaxlitligiga ko'ra, axborot to'g'ri bo'lishi kerak va u buzib talqin qilinmasligi darkor. Biz tahlil qilgan moddada ham shaxslarga ular to'g'risidagi noto'g'ri ma'lumotlarni tuzatishni talab qilish huquqini berishda ushbu element Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topganini ko'rishimiz mumkin. Uchinchi element — mavjudlikka ko'ra, shaxs istagan payti o'ziga tegishli bo'lgan axborotdan foydalanishi mumkin.

Konstitutsiyadan tashqari axborot xavfsizligini ta'minlovchi bir qancha joriy qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilingan.

Konstitutsiyaning 81-moddasi 2-qismiga muvofiq "Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqla-

1 O'zbekistonRespublikasiKonstitutsiyasi.Qonunchilikma'lumotlarimilliybazasi,01.05.2023-y.,03/23/837/0241-son//https://lex.uz/docs/-6445145

2 Prezident Shavkat Mirziyoyevning prokuratura xodimlari bilan uchrashuvidan. 07.01.2017-y. // https://president.uz/oz/lists/view/178

3 O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-sonli qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9–10-son, 168-modda // https://lex.uz/docs/-106197.

ri amalga oshirilishini kafolatlaydi". Ushbu norma OAVning erkin faoliyat yuritishiga konstitutsiyaviy kafolat berar ekan, ularning jamiyatda "to‘rtinchi hokimiyat" sifatidagi mavqeyini mustahkamlaydi.

Prokuratura faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish, sud-huquq islohotlari samaradorligini yoritish va qonun ustuvorligini mustahkamlashda OAV muhim rol o‘ynaydi. OAV vakillari tomonidan yuritilayotgan jurnalistik tekshiruvlar ko‘plab huquqbuzarlik holatlarining aniqlanishiga, prokuratura tomonidan esa bu holatlar bo‘yicha qonuniy chora ko‘rilishiga omil bo‘ladi.

Qisqa qilib aytganda, yuqoridagi konstitutsiyaviy normalar asosida prokuratura organlari, jamoat tashkilotlari va OAV o‘rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmini shakllantirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, qonun ustuvorligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, davlat hokimiyatining ochiqligi va jamoatchilik nazoratining kuchayishiga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning 143-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. Ushbu norma prokuratura tizimini davlatda qonuniylikni ta’minlovchi mustaqil va markazlashgan tizim sifatida belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, prokuratura faoliyati faqat jinoyatni aniqlash yoki ayblovni ilgari surish bilan cheklanmay, balki umumiy ijtimoiy nazorat, ya’ni fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda esa axborot vositalari orqali jamoatchilikka qonunbuzarlik holatlari haqida xolis va tezkor ma’lumot yetkazish prokuratura uchun muhim axborot manbasi sifatida xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning 146-moddasi 2-qismida esa quyidagicha belgilangan: "Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkin". Ushbu norma prokuratura organlari faoliyatining ochiqligini, shuningdek, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik qilish zaruratini taqozo etadi.

Ommaviy axborot vositalari o‘z mohiyatiga ko‘ra jamoatchilik fikrining shakllanishi va tarqalishida vositachi bo‘lib, ularning faoliyati orqali davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida axborot aloqasi mustahkamlanadi. Bu esa prokuratura organlariga qonunbuzarlik holatlari to‘g‘risida tezkor ma’lumot olish, jamoatchilik fikrini o‘rganish va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha zarur tashabbuslarni ilgari surishda yordam beradi.

"Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida"gi qonunning 35-moddasida belgilanishicha, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ta’sis etilgan OAV mazkur organlarning rasmiy xabarlari, normativ-huquqiy hujjatlari va boshqa axborotlarini e'lon qilishi shart.

Ushbu norma bevosita davlat organlari, xususan, prokuratura tizimining axborot siyosati va jamoatchilik bilan aloqalari mexanizmini huquqiy jihatdan belgilab beradi.

Prokuratura organlari tomonidan ishlab chiqilgan qonunchilik tashabbuslari, rasmiy ma’lumotlar, statistik tahlillar yoki matbuot anjumanlari mazmuni aynan davlat veb-resurslarida, ya’ni rasmiy va ishonchli manbada e’lon qilinishi zarur. Bu orqali fuqarolarga qonuniylik, jazo muqarrarligi va huquqiy islohotlar jarayoni haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri rasmiy va xolis axborotlar etkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi demokratik taraqqiyot yo‘lidan borar ekan, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish muhim prinsip sifatida belgilanmoqda.

Bu mexanizm ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, prokuratura tizimi faoliyatining shaffofligi, qonuniyligi va ochiqligini ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Bu o‘rinda "Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida"gi qonunni ta’kidlash kerak. Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, jamoatchilik nazoratining subyektlaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalari (OAV) keltirib o‘tilgan. Bu norma orqali ommaviy axborot vositalarining nafaqat axborot yetkazuvchi, balki jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli subyekt sifatidagi maqomi belgilab berilgan.

Bosh qomusimiz asosida hozirda raqamli texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda davlat organlari faoliyatida axborot bilan ishlash masalalari alohida ahamiyat kasb eta boshladi.

Ayniqsa, prokuratura organlari uchun axborot xavfsizligini ta’minlash, axborot aylanishida ochiqlikni oshirish va jamoatchilik bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylandi.

Prokuratura organlari faoliyatining oshkoraligini ta’minlash va jamoatchilik bilan samarali axborot almashinuvi tizimini yaratish – zamonaviy huquqiy davlatning muhim mezonlaridan biridir.

Shu bois prokuratura faoliyatini yoritishda ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni shakllantirish zaruratga aylanmoqda.

Avvalo OAV orqali prokuratura tizimi tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat haqida aniq, ishonchli va tezkor axborotlar tarqatilishi jamoatchilikda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, bu yondashuv jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini keng targ'ib etish imkonini beradi.

Shu maqsadda OAV bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, ayniqsa, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarni qamrab olgan holda muntazam monitoring olib borish va tasdiqlanmagan, asossiz ma'lumotlarga tezkor ravishda rasmiy munosabat bildirish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim.

Bunda prokuratura organlarining rasmiy matbuot xizmatlari axborot siyosatini izchil yuritish, shaffoflikni ta'minlash va fuqarolarning axborot olish huquqini ro'yobga chiqarishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi zarur.

Shuningdek, jurnalistlar va blogerlar bilan tizimli va ochiq muloqot platformalarini yo'lga qo'yish, ularni prokuratura tizimidagi islohotlar, tergov amaliyoti va qonunchilikdagi o'zgarishlar bilan muntazam tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Shu asosda seminarlar, davra suhbatlari, ommaviy axborot vositalari vakillari uchun media-brifinglar tashkil etilishi lozim. Bu esa ikki tomonlama huquqiy madaniyatni rivojlantirishga, axborotni yetkazishda professional etikani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, axborot xavfsizligi masalasi faqat texnik vositalar bilan cheklanmaydi, u huquqiy asoslar, tashkiliy mexanizmlar va xodimlarning axborot madaniyati bilan uzviy bog'liqdir.

**Axborot xavfsizligi va jamoatchilik ishonchi**

Prokuratura faoliyatida jamoatchilik ishonchi muhim o'rin tutadi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma'lumotlar ko'lami kengaygan sharoitda har bir xabar, fikr yoki tanqidiy material fuqarolarning prokuraturaga bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatishi tabiiydir.

Jamoatchilik munosabati odatda axborotning qanchalik aniq va tezkor berilishiga bog'liq bo'ladi. Shu bois men prokuratura faoliyati samaradorligini baholashda "Xalq ishonchi indeksi"ni joriy etishni taklif qilaman. Bu indeks ommaviy axborot vositalaridagi materiallar tahlili, fuqarolar murojaatlarining hal etilishi va jamoatchilik fikri asosida shakllanishi mumkin. Bunday yondashuv prokuratura faoliyatining real natijalarini aniq ko'rsatadi va ochiqlikni ta'minlaydi.

"Axborot xavfsizligi" tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, uni faqat texnik himoya vositalari bilan izohlash to'g'ri emas. U huquqiy tartibga solish, tashkiliy boshqaruv va psixologik-axloqiy omillarni o'z ichiga oladi.

Prokuratura tizimida "axborot xavfsizligi madaniyati"ni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda axborot bilan bog'liq xatarlar texnik xavflardan ko'ra xodimlarning axborot madaniyati yetarli darajada emasligidan kelib chiqadi.

Shu munosabat bilan har bir xodim uchun axborot etikasi, maxfiylik, xizmat siri, axborot almashinuvi qoidalari kabi yo'nalishlarni qamrab olgan o'quv dasturlarini joriy etishni muhim deb hisoblayman.

**Axborot xavfsizligi strategiyasi va kelgusi vazifalar**

Men prokuratura tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqish zarur degan xulosaga keldim. "Huquqiy axborot xavfsizligi strategiyasi – 2030" nomidagi bunday hujjatda quyidagi vazifalar o'z aksini topishi mumkin:

axborot infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

kiberxavfsizlikni kuchaytirish;

xodimlar malakasini muntazam oshirish;

jamoatchilik nazorati va ochiqlik tamoyillarini rivojlantirish.

Bunda elektron platformalarning o'rni katta bo'ladi. Masalan, jamoatchilik bilan aloqalarni ta'minlovchi "E-matbuot" platformasi axborot tizimini yaratish. Ushbu tizimni yaratishdan maqsad axborot almashinuvini raqamlashtirish, jamoatchilik bilan aloqalarni markazlashtirilgan va raqamlashtirilgan tarzda boshqarish, axborot olish jarayonini tezkor tashkil etish hamda monitoring qilib borish tizimini takomillashtirishdan iborat.

**Qonunchilikni takomillashtirish zaruriyati**

Qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, amalda axborot xavfsizligiga oid huquqbuzarliklar uchun aniq ma'muriy javobgarlik belgilab berilmagan. Shu sababdan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga axborot xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun alohida modda kiritishni taklif qilaman. Bu axborot tizimlari bilan ishlashda mas'uliyatni oshiradi va davlat axborot resurslariga bo'lgan xatarlarni kamaytiradi.

Ma'lumki, axborotlashtirish qoidalarini buzish jinoyatini tergov qilish ichki ishlar organlari tomonidan olib boriladi. Biz bermoqchi bo'lgan taklifda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining

$278^{1}$-moddasini JPKning $381^{2}$-moddasi 1-qismidan 2-qismiga o‘zgartirishni, ya’ni “nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha surishtiruv ishni qo‘zg‘atgan organ tomonidan olib boriladi” degan qismga o‘zgartirish kiritishni taklif qilamiz.

Yuqorida aytganimizdek, axborotlashtirish qoidalarini buzish jinoyati hozirda ichki ishlar organlari tomonidan tergov qilinadi. Biroq bu toifadagi jinoyatlar texnik va sohaviy jihatdan murakkab bo‘lgani sababli surishtiruvni faqat bir organ ixtiyoriga berib qo‘yish har doim ham samarali natija bermaydi.

Shu bois JKning $278^{1}$-moddasini JPKning $381^{2}$-moddasi 1-qismidan chiqarib, 2-qismiga o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bu o‘zgarish jinoyatni qaysi organ tezkor va malakali tergov qila olishiga qarab surishtiruv vakolatini belgilash imkonini yaratadi.

Natijada axborot xavfsizligiga oid huquqbuzarliklarni tergov qilish tizimi aniq, samarali va sohaviy talablarga moslashtirilgan tarzda amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, prokuratura organlari xalqaro hamjamiyat bilan samarali muloqotda bo‘lish, O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi pozitsiyasini to‘g‘ri anglash va baholash uchun xalqaro auditoriyaga aniq, faktlarga asoslangan va izchil ma’lumotlarni yetkazishi muhimdir.

Shu bois prokuratura organlarining xalqaro miqyosdagi imijini oshirish, xalqaro miqyosda rezonans bergan xabarlarga bayonot berish maqsadida rasmiy saytida xalqaro auditoriya uchun “E-press” bo‘limini tashkil etish taklif etiladi.

Ushbu bo‘limda prokuratura organlari tomonidan xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan ishlar va tadbirlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda rezonansga sabab bo‘lgan xabarlar yuzasidan xorijiy tashkilotlar vakillarining so‘rovlariga (ingliz va rus tillarida) rasmiy bayonotlar berish hamda ularni ushbu bo‘limda joylashtirish nazarda tutiladi.

Bo‘lim, shuningdek, xorijiy diplomatlar, OAV va huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar uchun rasmiy axborotning ochiqligini ta’minlash hamda xalqaro maydonda O‘zbekistonning axborot jihatdan barqaror o‘rnini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, prokuratura organlari faoliyatiga doir ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinayotgan (tanqidiy mazmundagi) materiallarga munosabat bildirishni tashkil etish to‘g‘risida Reglament ishlab chiqish taklif etiladi.

Ushbu reglament orqali ijtimoiy tarmoqlarda chiqayotgan tanqidiy maqolalarni belgilangan muddatlarda o‘rganib chiqish va bayonot berish tartibini belgilash nazarda tutiladi.

Shuningdek, “Blogerlik faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish taklif etiladi. Ushbu qonunni ishlab chiqish va amaliyotda joriy qilishdan asosiy maqsad blogerlar faoliyatini tartibga solish, ularning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash hamda faoliyatiga huquqiy maqom berishdan iboratdir.

